

**Z.A.Artukmetov, X.K.Allanov**

**SUG'ORISHNING  
YANGI TEKNOLOGIYALARI  
UNDAN FOYDALANISH**



**0'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**Z. A. ARTUKMETOV, X. K. ALLANOV**

**SUG'ORISHNING YANGI  
TEXNOLOGIYALARI VA UNDAN  
FOYDALANISH**

*Qishloq xojaligi oliy o 'quv yurtlarining 5A620204 - Agronomiya (dalachilik) va 5A620203 — Umumiy dehqonchilik  
magistratura mutaxassisliklari uchun o 'quv qo 'llanma*

Toshkent Davlat agrar universiteti  
Toshkent - 2010

**40.62 A 80**

631.6(075)

*Toshkent Davlat agrar universiteti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsija etilgan (2010 yil  
29- yanvardagi 2- sonli bayonnomasi).*

**Taqrizchilar:** Shukurlayev X. Sh. - **TIMI** qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi  
kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi; **Niyazaliyev**  
**B. I.** - O‘zPITI katta ilmiy xodimi, qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi.

**Artukmetov Z. A.**

**A 80 Sug‘orishning yangi texnologiyalari va undan foydalanish:** qishloq xo‘jaligi oliy o‘quv yurtlarining 5A620204 - Agronomiya (dalachilik) va 5A620203 - Umumiy dehqonchilik magistratura muttaxassisliklari uchun o‘quv qo‘llanma /Z. A. Artukmetov, X. K. Allanov; O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi. -T.: Toshkent Davlat agrar universiteti, 2010.- 116 b.

**1. Muallifdosh.**

O‘quv qo‘llanma yangi ta‘lim standarti tomonidan qishloq xo‘jaligi oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan muttaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talabalmi hisobga olgan holda O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rtacha maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, unda Respublika qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan sugarish usullari va texnologiyalari batafsil yoritilgan, ularдан samarali foydalanish yo‘llari korsatilgan. Suningdek, unda keltirilgan amaliy tajriba mashg‘utotlari talabalarning mazkur fandan olgan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Qo‘llanmada fan bo‘yicha materiallami umumiyl takrorlash uchun va, shuningdek, test savollarui to‘plamlari ham keltirilgan.

Qo‘llanma qishloq xo‘jaligi oliy o‘quv yurtlarining 5A620204 - Agronomiya (dalachilik) va 5A620203 - Umumiy dehqonchilik magistratura muttaxassisliklari talabalari uchun mo‘ljallangan.

**BBK 40.62ya73  
UDK 631.6 (075)**

## KIRISH

Hozirgi kunda respublikamizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida mulkchilikning yangicha shakllarini teng xuquqli asosda ravnaq topishimi ta’minlash, bozor iqtisodiyotiga o‘tish borasida islohotlarni chuqurlashtirish kabi dolzarb masalalarga alohida e’tibor berilmoqda. Yurtimizda qabul qilinayotgan qonunlar, Hukumat qarorlari qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan yanada samaraliroq foyda-lanishga, sug‘oriladigan gektar mahsulorligini oshirishga imkon ber- moqda. Respublika Prezidentining 2003 yil 24- martdagagi «Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida», 27- oktabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida», 2007 yil 29- oktabrdagi «Yerlar- ning meliorativ ahvolini tubdan yaxshilash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Famionlari asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Tugatilayotgan xo‘jaliklar hududida o‘zaro suv xo‘jaligi munosabat- larini tartibga solish to‘g‘risida», «Suv xo‘jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida», 2008 yil 21-apreldagi «2008 yilning sug‘orish mavsumida kuzatilayotgan suv tanqisligini yumshatish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlaming bajarilishi va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar haqida» va boshqa qator qarorlar qabul qilindi, «Suv ta’minoti va undan foydalanish to‘g‘risida namunaviy shartnoma», «Fermer va boshqa suvdan foydalanuvchilar bilan suvdan foydalanuv- chilar uyushmalari o‘rtasida pullik suv xo‘jalik ish va xizmatlami z ko‘rsatish bo‘yicha namunaviy shartnoma»lar ishlab chiqildi. Bulaming barchasi dehqon va fermer xo‘jaliklarining yer va suv resurslariga boigan munosabatlarini toiaqonli shakllanishiga keng yo‘l ochdi.

Respublika iqtisodiyotini kelgusi rivojlantirish mamlakat tabiiy boyliklaridan tejamli foydalanishga bogiiq bo‘lib, bu yerda aholini maishiy va xalq xo‘jaligini ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan suv resurslari alohida ahamiyat kasb etadi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti sur’atlaring o‘sishi, shuningdek, aholi sonining ortishi qo‘srimcha suv miqdorini talab qilmoqda. Tabiiy holatdagi rejimi, hajmi va sifati kabi ko‘rsatkichlari bo‘yicha suv manbalarining talabga yetarlicha javob bera olmasligi ushbu muammo yechimini murakkablashuviga olib kelmoqda.

Regionda mayjud suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish sharoitida ham yaqin kelajakda xalq xo‘jaligini suv bilan ta’minlash masalasining yanada jiddiyashuvi kutilmoqda. So‘nggi yillarda suv

ta'minotining keskin (35-40% gacha) kamayishi tufayli qishloq xo'jaligida sezilayotgan suv tanqisligini yumshatish maqsadida mavjud suv resurslaridan yanada samarali foydalanish talab etiladi.

Tabiiy landshaftlarga insoniyat ta'sirining faollashuvi, suv resurslari va atrof muhitning tanazzuli kuchaygan hozirgi sharoitda insoniyat hayoti uchun qulay bo'lgan turg'un agroekotizimmi ishlab chiqish va shakllantirish eng asosiy muammolardan biri boiib qoldi.

Sohada yuzaga kelgan muammoni ijobiy hal etish uchun qishloq-xo'jaligida suvni mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan holda taqsimlashga imkon beruvchi texnik jihatdan mukammal gidromeliorativ tizimlami barpo etish, melioratsiya qilinayotgan yerlaming samaradorligini oshirish maqsadida mavjud tizimlami qayta qurish va jihozlash, tizimlardan foydalanish va ularga **texnik** xizmat ko'rsatishda yangi tashkiliy uslublami tatbiq qilish, suvni behuda isrofgarchiligidagi kamaytirish, sug'orish texnikasini takomillashtirish, ekinlami sug'orish rejimini tabaqalashtirish, sho'rlanishga va botqoqlanishga moyil bo'lgan yerlaming barchasida kollektor-zovur tarmoqlari barpo etish, sug'orish tarmoqlarini filtratsiyaga qarshi to'shamalar bilan ta'minlash, ekinlami parvarishi bo'yicha jadal texnologiyalami qo'llash, sug'orish tizimlari- dan foydalanishni yaxshilash talab etiladi.


Respublika qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, ekinlar yetishtirishga joriy etilayotgan texnologiyalar ushbu soha mutaxassislari ishiga ham qo'shimcha talablar qo'ymoqda. Qishloq xo'jaligi mutaxassisi zamonaviy xo'jalik gidromeliorativ tizimlaridan samarali foydalanishni tashkil etish va ulami boshqarish, tuproq va o'simliklaming suv rejimlarini boshqarish, sug'orishni tashkil etish va amalga oshirish, suvdan tejamli foydalanish, sug'orishning tejamli usul va texnikalarini qo'llash, yerlaming meliorativ holatini yaxshilash, sho'rlanish va botqoqlanishga qarshi kurash va uni oldini olish masalalari bo'yicha zamriy bilim va amaliy ko'nikmalami o'zida mujassam etgan bo'lishi lozim. Shu sababdan «Sug'orishning yangi texnologiyalar» va undan foydalanish» fanini o'rganish magistraturaning 5A620204 - Agronomiya (dalachilik) va 5A620203 - Umumiy dehqon-chilik muttaxassisliklari dasturining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ushbu fan «Ekinlami sug'orish asoslari», «Sug'orish tizimlaridan foydalanish», «Melioratsiya», «Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash», «Tuproqshunoslik», «Chiqindi va oqova suvlardan foydalanish», «Sug'orish tarmoqlari va ulardan foydalanish» fanlari bilan uzviy bogiqlikdir.

**1. EKLARNI SUG'ORISH TEXNIKA VA  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI AHVOLI VA  
TAKOMILLASHTIRISH VAZIFALARI**

Respublikamizning umumiyligi maydoni 447,4 ming km<sup>2</sup> bo'lib, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 22614 ming gektami tashkil etadi. So'nggi asr davomida sug'oriladigan yer maydoni 2,36 marotaba ko'paydi: 1809,5 ming gektardan (1914 y.) 4276,1 ming gektarga yetkazildi. Lalmikor dehqonchilik maydoni 743 ming gektami tashkil etadi. Respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi - 97 foizi sug'oriladigan yerlardan olinmoqda. Bunday yerlarda ekinlar hosildorligi lalmi yerlardagiga qaraganda bir necha (hatto 10 va undan ortiq) marta yuqoridir: to'g'ri foydalanylinda yetishtiriladigan mahsulot miqdori bo'yicha 1 ga sug'oriladigan yer 6-7 ga lalmikor yerga, 50 ga baland tog' va 100 ga cho'l yaylovlari teng.

Aholi sonining o'sish sur'atlarini sug'oriladigan yerlami kengaytirish sur'atlaridan ortib ketishi natijasida jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan haydalma yer maydoni yildan-yilga kama-yib, 0,35 gektardan 0,16-0,17 gektarga tushib qoldi. Bu ko'rsatkich Rossiyada - 0,67, Qozog'istonda - 1,54, Qirg'izistonda - 0,21 va Ukrainada - 0,59 gektami tashkil etadi (1- rasm).


Qishloq xo'jaligining o'sib borayotgan suvgaga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlash maqsadida respublikamizda qudratlil suv xo'jalik majmuasi bafo etilgan: umumiyligi suv sarfi 2500 m<sup>3</sup>/sek. bo'lgan 75 ta yirik kanal, umumiyligi hajmi 17,8 km<sup>3</sup> (foydatli hajmi 14,6 km<sup>3</sup>) bo'lgan 52 ta suv omborlari, 32,4 ming km xo'jaliklararo kanallar (shundan 9,4 ming km. ga beton to'shamal yotqizilgan), 176,4 ming km xo'jalik (shu jumladan 133,6 ming km tuproq o'zanli, 37 ming km beton to'shamali, 25 ming km beton novli, 3,7 ming km yopiq quvurli) sug'orish tarmoqlari, 31 ming km xo'jaliklararo va 106,3 ming km (67,1 ming km ochiq va 39,2 ming km yopiq) xo'jalik kollektor-zovur tarmoqlari ishlatalib kelinmoqda. 3 mingta sug'orish quduqlari, 4800 dan ortiq vertikal zovur quduqlari, 24,6 mingdan ortiq kuzatuv quduqlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ekin maydonlarining 2,3 mln. gektari (53 foizi) nasos stansiyalari yordamida sug'oriladi.




1- rasm. Respublikada aholi soni, sug'oriladigan yerlar maydoni va sug'orish maqsadlarida suv olish dinamikasi.

O'zbekiston suv xo'jaligi kompleks tavsifga ega. Hozirgi kunda respublikamizning suvgaga boigan umumiy ehtiyoji yiliga 56-60 mlrd. m<sup>3</sup> ni tashkil etadi (2 va 3- rasmlar). Uning 92 foizi qishloq xo'jaligi, 5,5 foizi maishiy-xo'jalik va 1,5 foizi sanoat ehtiyojlariga, 0,8 foizi baliq-chilikka va 0,2 foizi energetika maqsadlariga sarflanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududida shakllanayotgan suv resurslari, km<sup>3</sup>/yil.




Suv xavzalari bo'yicha suv iste'moli, km<sup>3</sup>/yil



■ Amudaiyo xavzası III "SSMtfo xavzası"

2- rasm. O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan suv resurslari va suv havzalari bo'yicha suv iste'moli.

Respublikadagi mavjud sug'orish tizimlarining yanada to'liq takomillashtirilmaganligi, sug'orish dalalarida suv o'lchash ishlarini talab darajasida tartibga solinmaganligi, sug'orishning tejamli usul va texnikalarini keng joriy etilmaganligi tufayli suv manbalaridan olina-yotgan suvning 36—40 foizi behuda isrof bo'lib ketmoqda. Sug'orish tizimlarining foydali ish koefitsienti 1960 yil 0,40 ni tashkil etgan bo'lsa, respublika suv xo'jaligida amalga oshirilgan qator tadbirlar evaziga bu ko'rsatkich hozirga kelib 0,60-0,64 ga yetkazildi. Respublika bo'yicha har gektar ekin maydonining ehtiyoji 8-10 ming m<sup>3</sup> bo'lsada, amalda 13-14 ming m<sup>3</sup> suv sarflanmoqda (1960 yil bu ko'rsatkich 20 ming m<sup>3</sup> ni tashkil etgan).



3- rasm. O'zbekiston respublikasida iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha suv iste'moli ko'lami.

#### Takrorlash uchun savollar:

1. Respublikada gidromeliorativ tizimlardan foydalanishning hozirgi ahvoli va vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Suv xo'jalik muammolari va ulami hal etish yo'llarini ko'rsating.
3. Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish qanday qonun va me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi?
4. Suvdan samarali foydalanishda sug'orish texnika va texnologiyalarining ahamiyatini bayon eting.
5. Respublikada suv resurslaridan foydalanish holatini bayon eting.

## **2. QISHLOQ XO'JALIK EKINLARINI ZAMONAVIY SUG'ORISH USULLARI VA TEXNIKASI**

Qishloq xo'jaligi ekinlarini *sug'orish usullari* sug'orish suvini sug'oriladigan uchastkalarga taqsimlash va suvning oqim shaklini tuproq va atmosfera namligiga aylantirishda qo'llaniladigan usul va tadbirlar majmuasi bo'lib, hozirgi vaqtida *yer yuzasidan* (*tuproq, ustidan*), *yomg 'irlatib, tuproq orasidan, tomchilatib* va *aerozol* (*may- da dispers yomg 'irlatib*) sug'orishlar farqlanadi.

*Sug'orish texnikasi* sug'orishni o'tkazish texnologiyasi va bunda qo'llaniladigan texnik vositalami o'z ichiga oladi. Sug'orish texnikasi zamonaviy sug'oriladigan dehqonchilikda eng murakkab va mas'- ul agromeliorativ tadbir hisoblanadi.

Sug'orishning sifati va suvdan tejamli foydalanish, sug'orishda ish unumдорligini oshirish, tuproqning qulay suv, havo, tuz va oziq rejimlarini, meliorativ ahvolini ta'minlash, tuproq unumдорligini oshirish ko'p jihatdan sug'orish usulini to'g'ri tanlanganligi hamda sug'orish texnikasini to'g'ri tashkil etilganligi va amalga oshirili- shiga bog'liq bo'lib, bularning barchasi ekinlardan yuqori va barqa- ror hamda sifatli hosil yetishtirish shartlaridir.

### **SUG'ORISH USULLARI VA TEXNIKALARINI QO'LLASH MAQSADLARI VA SHAROITLARI**

Sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligi sug'orish usuli va texnikasiga ma'lum darajada bog'liq. Qabul qilingan sug'orish usuli va texnikasi sug'orish suvini dalaga tekis taqsimlash va tuproqning hisobiy qatlamini bir xilda namiqtirish, suvni filtra- tsiya va oqovaga behuda sarflni eng kam darajaga tushirish, tuproqqa va ekinlarga ishlov berishni mechanizatsiyalash, suvchilar uchun tegishli gigiena-sanitariya sharoitlarini yaratgan holda sug'onsjni kechayu-kunduz o'tkazish va ulaming ish unumдорligini oshirish imkoniyatlarini berishi lozim. Tanlangan sug'orish usuli va texnikasi sug'orish tizimida suv taqsimlash jarayonlarini hamda sug'orishni mechanizatsiyalash va avtomatlashtirishga erishishni ta'minlamog'i zarur. Shuningdek, sug'orishga qilinadigan mehnat sarfi va xarajat- larining eng kam bo'lishligi, sug'orishning tuproqni zichlashuvi va strukturasiini buzilishi hamda irrigatsiya eroziyasiga sabab bo'luvchi

salbiy ta'sirini eng'kam darajada bo'lishi, mazkur usulni ma'lum bir \* tabiiy sharoitda qo'llash mumkinchiligi e'tiborga olinadi (1 va 2- jadvallar).

1-jadval

**Turlicha sug'orish usullarini qo'llash maqsadlari**

Sug'orish usullari	Tuproqni namiqtitish	Havo + namligini oshirish	Nam X toplash	Sho'r - yuvish	-C CЯ -2 jaO O	Chiqindi suvlar bilan sug'orish X	Haroratni + boshqarish	Provaka- + tsion
Yomg'irlatib	+				+			
Tuproq ustidan	+	X	+	+	X	+	-	+
Tuproq orasidan	+	-	-	-	+	+	-	-
Tomchilatib	+	-	-	-	+	-	-	-
Aerozol		+	-	-	-	-	+	-

hoh: Maqsadga «+» - muvofiq; «—» - nomuvofiq; «X» - qisman muvofiq.

2-jadval

**Turlicha sug'orish usullarini qo'llash sharoitlari**

Sug'orish usullari	Sho'itangan tuproqlar	Yengil quinoq tuproqlar	Og'ir tuproqlar	Murakkab relyefli tuproqlar	Katta nishobli yerlar	Minerallastagan sizol suvlar yaqinjoylashgan yerlar	Suv resurslari kam yerlar	Sug'orish suvlarini minerallashtirish	Kuchli shamollli rayonlar
Yomg'irlatib	+	X	+	+	+	+	+	-	X
Tuproq ustidan	+	X	+	X	X	X	X	X	+
Tuproq orasidan	-	X	X	X	+	-	+	-	+
Tomchilatib		X	+	+	+	-	+	-	+
Aerozol	+	+	+	+	+	+	+	-	+

Izoh: Qo'llash «+» - mumkin; «-» - mumkin emas; «X» - qisman mumkin.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish usullari va texnikasini tanlashda joyning iqlim, geomorfologik, gidrogeologik sharoitlari, biologik, xo'jalik, iqtisodiy va boshqa bir qator omillami e'tiborga olish talab etiladi. Hududning nam bilan ta'minlanganlik darajasi, suvning buqlanishga sarfi, havoning harorati va nisbiy namligi, shamolning tezligi va yo'nalishi kabi muhim iqlim elementlari ham hisobga olinishi lozim. Hududning nam bilan ta'minlanganlik darajasi bug'lanish kamomadi (mavsum davridagi umumiy bug'la- ' nish ( $E$ ) va yog'in suvlaridan foydalanish ( $P$ ) miqdorlari farqi:  $D=E-P$ ) va namlanish koeffitsienti ( $R_n$ ) ko'rsatkichlari bilan tavsif- lanadi. Qabul qilingan sug'orish usuli va texnikasi ushbu kamomadni to'liq yoki undan ko'proq miqdorda ta'minlay olishi zarur.

Shamolning tezligi, takrorlanish jadalligi, davomiyligi, yo'nali- shi yomg'irlatib sug'orish samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Uzoqqa otar yomg'irlatib sug'orish mashinalari shamol tezligi 2-2,5 m/sek. gacha, o'rtacha otar - 5, yaqining otar - 6-7 va konsolli hamda ko'p tayanchli mashinalar 8-10 m/sek. gacha bo'lgan sharoitlarda qo'llanilishi maqsadga muvofiqliqdir. Tuproqning granu- lametrik tarkibi, nam sig'imi, suv o'tkazuvchanligi, sho'ranganlik darajasi, tuproq qatlaming qalinligi, suv eroziyasiga bardoshliligi va boshqa xossalari muhim ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi. Suv o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan tuproqlarda yomg'irlatish jadalligi 0,5-0,8 mm/min. gacha, o'rtacha tuproqlarda 0,2-0,3 va kam suv o'tkazuvchan tuproqlarda 0,1-0,2 mm/min. gacha bo'lgan yomg'ir- latib sug'orish mashinalari qo'llaniladi. Yomg'irlatish jadalligi tuproq-ning suv o'tkazuvchanlik qobiliyatidan yuqori bo'lsa sug'o- rish suvi tuproqqa singib ulgurmey, tuproq ustida ko'lkoblar va suv oqimi hosil bo'ladi.

O'rtacha suv o'tkazuvchan tuproqlar 150-250 m uzunlikdagi egatlar orqali va yo'laklab bostirib sug'orishlar uchun qulay bo'lsa, suv o'tkazuvchanligi kuchsiz bo'lgan tuproqlar 350 m va undan uzun egatlar orqali, chek olib va yo'laklab bostirib sug'orishlar uchun qulaydir.

Tuproqning sho'ranganlik darajasi, sizot suvlaming joylashgan- lik chuqurligi, tuproq osti yotqiziqlari ham sug'orishning u yoki bu usuli yoki texnikasini tanlashda e'tiborga olinadi. Sho'rلانмаган va kuchsiz sho'rangan yerlarda yomg'irlatib sug'orish yaxshi natijalar bersa, o'rtacha va kuchli sho'rangan yerlarda yer yuzasidan

sug'orish va chek olib bostirib sho'f yuvish samarali hisoblanadi. Tuproq osti yotqiziqlari shag'al va toshloqdan iborat kam qatlamlı yerlarda yomg'irlatib sug'orish qator afzalliklarga ega.

Sug'orish usullari va texnikasini tanlashda joyning relyefi muhim o'rin tutadi. Ushbu sharoit muvaqqat sug'orish tarmoqlarini joylashtirish tartibini belgilash, yomg'irlatib sug'orish mashinalari- ning texnologik o'lchamlarini tanlashda hisobga olinadi. Yer yuzasidan sug'orishda joyning nishobligi me'yoriy ko'rsatkichlarga mos kelishi lozim. Aks holda tuproqning irrigatsiya eroziyasi kuchayib ketishi mumkin. Shu sababdan yer yuzasidan sug'orishlarda yer tekislash ishlariga alohida ahamiyat qaratiladi.

Sizot suvlaming joylashgan chiqurligi, minerallashganlik darajasi, joyning zovurlashtirilganlik darajasi ham sug'orishning u yoki bu usuli va texnikasini tanlashda muhim omillardan hisoblanadi.

Sizot suvlaming mineralashganlik darajasi 1,5-3,0 g/1 va kritik joylashish chiqurligi 1,5-2,2 m bo'lgan sharoitda yomg'irlatib sug'orishni qo'llash samarali hisoblansa, mineralashganligi 5,0-7,0 g/1 va kritik chiqurligi 3,0-3,5 m bo'lgan yerlarda yer yuzasidan sug'orish qulay hisoblanadi, mineralashganligi 3,0-5,0 g/1 va kritik chiqurligi 2,2-3,0 m bo'lgan sharoitda u yoki bu sug'orish usulidan foydalanish mumkin.

Sug'orish usullari va texnikasini tanlashda ekinlami sug'orish rejimi, o'simliklaming rivojlanish xususiyatlari, yetishtirish texnolo- giysi kabi biologik omillar ham e'tiborga olinadi. Yetishtirilayotgan ekinning bo'yi (balandligi) yomg'irlatib sug'orish mashinalarining turini tanlashda e'tiborga olinishi lozim. Shuningdek, ildiz tizimi tuproqning ustki qatlamlarida joylashgan o'simliklar (masalan, sabzavot ekinlari)ni sug'orishda yomg'irlatib sug'orish boshqa sug'orish usullariga qaraganda samarali hisoblanadi.

Sug'orish usullari va texnikasini xo'jalikning joylashgan o'mi va ixtisoslashganlik sohasi, dalalaming o'lchami va shakli, almashlab ekish turi, sug'oriladigan hududning tashkil etilishi kabi xo'jalik sharoitlari, sug'orish tizimining suv bilan ta'minlanganlik darajasi, suvdan va yerdan foydalanish koeffitsientlari, tizimning foydali ish koeffitsienti, suv sifati, harorati, sho'ranganlik darajasi, suv manbai- ning joylashgan o'mi kabi suv xo'jalik sharoitlari ham hisobga olgan holda tanlash talab etiladi.

Maqbul sug'orish usullari va texnikasini qo'llash imkoniyati ulaming texnik-iqtisodiy ko'satkichlarini taqqoslash orqali aniqla- nadi (3-jadval).

*3-jadval  
Turli tuproq sharoitlari va sug'orish usullarida g'o'zani sug'orish me'yorlari*

Sug'orish usullari	Tuproqning mexanik tarkibi va hajmiy massasi (g/sm <sup>3</sup> )		
	yengil (1,00-1,20)	o'ttacha (1,30-1,50)	og'ir (1,60-1,70)
Yo'laklab bostirib	90-100	120-130	140-160
Egatlab	60-70	80-100	110-120
Tuproq orasidan	50-60	70-90	100-110
Yomg'irlatib	35 <sup>10</sup>	40-50	60-70
Tomchilatib	5,5-6	7-8	9-10

Ekinlar yetishtirilayotgan rayonlamning iqlim sharoitlari kam boshqariladi va u ekinlami sug'orish me'yori miqdorini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Masalan, g'o'zani mavsumiy sugarish me'yori shimoliy iqlim mintaqasida 4-6 ming m<sup>3</sup>/ga bo'lsa, marka- ziy va janubiy iqlim mintaqalarida tegishlicha 6-8 va 8-10 ming m<sup>3</sup>/ga. ni tashkil etadi. Ekinlami sug'orish va mavsumiy sug'orish me'yori sug'orish usullari va texnikasiga bog'liq holda turlichcha bo'ladi (4 va 5-jadvallar).

*4-jadval  
Iqlim mintaqalari va sug'orish usullariga bog'liq holda g'o'zani mavsumiy sug'orish  
me'yori, ming m<sup>3</sup>/ga (Lev V.T., 1981)*

Iqlim mintaqalari	Sug'orish usullari		
	egatlab	tuproq orasidan	yomg'irlatib
Shimoliy	4-6	3 <sup>1</sup>	1,5-2,0
Markaziy	6-8	5-6	2,5-3,0
Janubiy	8-10	7-8	3,0-4,0

Yer yuzasi (tuproq ustidan)dan sug'orish jarayonida tuproqning chuqr qatlamlariga suvni singib ketishi va oqova tashlanishi (15-25 foiz) hamda yomg'irlatib sug'orishda atmosferaga bugianishini (6- 25 foiz) hisobga olgan holda brutto hisobidagi sug'orish me'yori turli sharoitlarda turlichadir (6-jadval).

5-jadval

**Iqlim mintaqalari va sug'orish texnikalariga muvofiq sug'orish me'yorlari**

Iqlim mintaqalari	Sug'orish texnikasi		
	yer yuzasidan	tuproq orasidan	yomg'irlatib
Shimoliy	400-600	300-400	150-200
Markaziy	600-800	500-600	250-300
Janubiy	800-1000	700-800	300-400

6-jadval

**Yer yuzasidan va yomg'irlatib sug'orishlarda suv isrofgarchiligi koeffitsienti miqdorlari**

Sug'orishni qo'llash sharoitlari	Egatlab va yo'laklab sug'orishda suv taqsimlash usullari		Yomg'irlatib sug'orish	
	chim va qog'oz salfetka bilan	maxsus qurilmal lar yordamida	ochiq kanal- orgali	Hopiq qu- vurlar orqali
Yaxshi	1,15-1,2	1,1-1,15	1,15-1,2	\
O'rtacha	1,25-1,3	1,2-1,25	1,2-1,25	1,1-1,2
Murakkab	1,3-1,35	1,25-1,3	1,25-1,3	1,15-1,25

**Takrorlash uchun savollar:**


1. Qanday sug'orish usullari va texnikalarini bilasiz?
2. Sug'orish usul va texnikasi deganda nimani tushunasiz?
3. Sug'orish usullarini qo'llash maqsadi va sharoitlarini ko'sating?
4. Sug'orish usul va texnikasini tanlashda qanday omillar hisobga olinadi?
5. Sug'orish usul va texnikalarini texnik jihatdan baholash ko'rsatkichlarini bayon eting?

### **3. EKINLARNI YER YUZASIDAN SUG'ORISH TIZIMI**


Qishloq xo'jaligi ekinlarini yer yuzasidan sug'orishda sug'orish suvi dalaga tuproq ustidan taqsimlanadi. Bunda suv tuproq ustidan gorizontal harakat qilish jarayonida tuproqqa shamiladi. Egatlab sug'orishda suv vertikal va yon tomonlarga yo'nalgan holda shamiladi. Yer yuzasidan sug'orishni quyidagi turlari qo'llaniladi: *egatlab' sug 'orish, yo 'laklab (pol olib) bostirib sug 'orish va chek olib bostirib sug 'orish.*

#### **3.1. EGATLAB SUG'ORISH**

Egatlab sug'orish yer yuzasidan sug'orishning eng takomillash- gan usuli bo'lib, nishobligi 0,001 dan 0,05 gacha bo'lgan yerlarda yetishtirilayotgan qator oralarini chiqiq qilinadigan ekinlami asosiy sug'orish usuli hisoblanadi. Bu usul bog' va uzumzorlar, ayrim hollarda yoppasiga ekilgan ekinlar (boshoqli don va yem-xashak o'tlari) ni sug'orishda ham qo'llaniladi. Respublikadagi sug'oriladigan dehqonchilik yerlarining eng ko'p qismi shu usulda sug'orilib kelinmoqda. Egatlab sug'orishda suv dala bo'yicha sug'orish egatlari orqali taqsimlanadi va suv tuproqqa egatning tubi va devorlari orqali singadi (4 va 5-rasmlar).



**4- rasm. Ekinni egatlab sug'orish.**




5 - rasm. GVzani qator oralatib sug'orish.

Egatlab sug'orishda qo'shni egatlaming namiqish konturlarining o'zaro qo'shilishi yuzaga keladi. Tuproqning mexanik tarkibiga bog'liq holda bu qo'shilish sug'orish davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Yengil tuproqlarda suv gravitatsiya ta'sirida uning chuqur qatlama- riga singadi. Shu boisdan yengil tuproqlarda qator oralari 0,6-0,7 m, o'rtacha qumoq tuproqlar 0,7-0,8 m va og'ir qumoq tuproqlarda 0,8- 1,1 m qilib olinadi. Nam to'plash va ekishdan oldin sug'orishlarda egatlar oralig'ini 0,7-1,0 m bo'lishi maqsadga muvofiqli.

Hozirgi zamon dehqonchiligidagi sug'orishlar *oxiri berk* (oqova chiqarilmaydigan) va *ochiq* (oqova chiqariladigan), *tubi tirqishli*, *ekin ekiladigan egatlar* orqali amalga oshirilmoqda (6- rasm).

Suv o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan tuproqlarda egatlar maxsus egat olgichlar bilan olinib, bir yo'la uning tubi va devorlari zichlashtirilib ketiladi. Bu esa suvning tuproqqa singishini ancha sekinlashuviga olib keladi va buning hisobiga egatlar uzunligini orttirish mumkin bo'ladi. Oxiri berk chuqur egatlar bilan sug'orish nishobligi 0,002 dan kichik bo'lgan yerlarda sabzavot va qator oralari chopiq qilinadigan ekinlami va nam to'plash maqsadida sug'orishlarda qo'llaniladi. Sug'oriladigan uchastka oxirida egatlar bir-biri bilan umumiy egat orqali tutashtiriladi. Sug'orishda egatlar

ma'lum chuqurlikdagi suv bilan to'ldiriladi hamda suv berish to'xtatiladi.



6- rasm. Sug'orish egatlari: a - qator oralari chopiq qilinadigan ekinlami sug'orishda; b - ekin ekiladigan; v - tubi tirkishli; c - terrasali; a<sub>e</sub> - qator orasining kengligi. (0'chovlar sm hisobida).

Chuqr egatlari orqali (oqova chiqarmasdan) sug'orish nishobligi 0,002-0,004 bo'lgan yerlarda qo'llanilib, bunda egatning 2/3 qismi suv bilan toidiriladi. Egatga suv berish egat oxiriga suvni yetib borishidan awalroq to'xtatiladi.

Oxiri ochiq va oqova chiqariladigan egatlari orqali sug'orish respublikada qo'llaniladigan asosiy sug'orish texnikasi hisoblanadi. Tuproqqa singib ulgurmagan suv oqova tarzida tashama ariqlarga tushadi, ulardan quyida joylashgan dalalami sug'orishda foydala- niladi.

Tubi tirkishli egatlari orqali sug'orish suv o'tkazuvchanligi yomon bo'lgan notebris relyefli joylarda nam to'plash maqsadida va ekishdan oldin sug'orishlarda, ayrim hollarda ekinlami sug'orishda qo'llaniladi. Bunda egat tubi uni olish jarayonida maxsus qurollar yordamida 35 mm kenglikda va 17 sm. gacha chuqurlikda tilmalanib boriladi. Egatga suv sarfi odatdag'i sharoitdagiga qaraganda 2-3 marta oshiriladi. Bunday sug'orishda tuproqni tez va deyarli bir tekis namiqtirishga erishiladi.

Ekin ekiladigan egatlari tor qatorlab ekiladigan ekinlar (boshoqli don, yem-xashak o'tlari)ni ekish jarayonida bir yo'l olinadi va pushtalar hamda egatning yon bag'ri va tubiga urug' ekib ketiladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini egatlab sug'orish tuproqni chuqur qatlamlarigacha namiqtirish imkonini beradi, bostirib sug'orishlarga qaraganda tuproq strukturasi yaxshi saqlanib qoladi, tuproq kuchli zichlashmaydi. Egatlab sug'orish tuproqda kechadigan mikrobio- logik jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi. Suv bilan 20-30 foiz maydon bostiriladi. Egatlari oralig'i - pushtalar doim yumshoq holatda boiib, namlikni yaxshi saqlaydi. Lekin egatning boshi va oxirida tuproqni bir xil ehuqurlikda namlash imkoniyatining yo'qligi, suvchining ish unumdorligini kamligi ( $g \cdot o^zani$  suqorishda bir smenada 0,5-1,0 ga), nisbatan katta miqdordorda suv berishning mumkin emasligi ushbu suqorish texnikasining kamchiliklari hisoblanadi.

### 3.2. YO'LAKLAB BOSTIRIB SUG'ORISH

Yo'laklab bostirib sug'orishda suv dalaga yo'lak (taxta, pol)lar orqali yoppasiga bostirib beriladi. Yo'lak bo'ylab suv qatlami tuproq sathidan 2-3 sm qalinlikda harakat qilishi jarayonida tuproqqa singib, uni namiqtiradi. Bunday sug'orish ko'ndalang nishobligi 0,002 dan va bo'ylama nishobligi 0,015 dan kichik bo'lgan yerlarda nam toplash maqsadida hamda ekishdan oldin sug'orishlarda, yoppasiga ekilgan boshoqli, dukkakli don va yem-xashak ekinlarini, ayrim hollarda bog' va tokzorlami sug'orishda qo'llaniladi.

Yo'laklab sug'orish texnikasi elementlariga *yo'lakning kengligi, uzunligi, solishtirma suv sarfi, yo'lak boshidagi suv qatlamining qalinligi, suv berish davomiyligi* kiradi.

Nishobligi 0,001-0,002 atrofida bo'lgan yerlarda yo'lak kengligi 1,8-7,2 m (*tor yo'lak(ar)*) va uzunligi 200<sup>4</sup>400 m. gacha, ko'ndalang nishobliksiz hamda bo'ylama nishobligi 0,001-0,003 gacha bo'lgan yerlarda 10-30 m (*keng yo'lak*) va uzunligi 600 m. gacha bo'lishi mumkin. Yo'laklaming kengligi odatda dalaning tekislanganlik darajasiga bog'liq bo'lib, ko'ndalang nishobligi kichik yerlarda u seyalkaning qamrov kengligiga teng yoki unga barobar marta oshirib olinadi. Eng ko'p qo'llaniladigan yo'lak kengligi 3,6-7,2 m. ga teng bo'lib, ko'ndalang nishobligi katta yerlarda 1,8 m qilib olinadi.

Yo'laklar bir-biridan pushta (marza)lar yordamida ajratiladi. Pushtalar suvni yo'lak bo'ylab harakatlanishini boshqaradi. U yo'lakning bosh qismida bo'ylama va ko'ndalang nishoblikka bog'liq holda 0,1-0,15 m. dan 0,2-0,45 m. gacha balandlikda

olinadi. Pushtaning tubi esa 0,4-0,6 m va undan ortiq bo‘ladi. Pushtalar УКП, КПВ-2000А, ПР-0,5 pol olgich-tekislagichlar yordamida, sug'orish tarmog'i esa КЭУ-0,3 yoki KOP-500 kanal qazg'ich-tekislagichlar yordamida 0,53-0,40 m chuqurlikda olinadi.

Yo'laklar uzunligi tuproqning suv o'tkazuvchanligi va nishobli- giga bog'liq holda turlicha bo'ladi (7- jadval). Tuproqning suv o'tkazuvchanligi qanchalik kichik bolsa, yo'laklar shunchalik uzun qilib olinadi. Sug'oriladigan yerlar notekis bolsa yo'lak uzunligi tavsiya etilgan miqdorlardan 2-3 marta qisqa qilib olinadi.

*7-jadval*

**Yo'lak kengligi 3,6 m va pushta balandligi 0,15 m bo'lган шароитда sug'orish texnikasi elementlari**

Tuproqlar	Bo'ylama nishoblik	Yo'lak uzunligi, m	Solishtirma suv sarfi, l/sek.
Yugori suv o'tkazuvchan yengil qumoq	0,003	200	5,5
	0,006	150	4,0
O'rtacha suv o'tkazuvchan o'rtacha qumoq	0,003	400	8,0
	0,006	350	7,0
Kam suv o'tkazuvchan og'ir qumoq	0,003	500	8,5
	0,006	400	7,5


Yo'laklab bostirib sug'orish ikki xil sxemada amalga oshiriladi:

1) yaxshi tekislangan va ko'ndalang nishobliksiz yerlarda suv muvaqqat tarmoqdan bevosita yo'lakning bosh qismiga uzatiladi;

2) yaxshi tekislagan va murakkab mikrorelyefga ega joylar- da bu usulda suv taqsimlash ancha murakkab. Shu sababdan bunday sharoitda yo'lakka suv uning yon tomonidan uzatiladi. Buning uchun qo'shni yo'laklar o'rtaidan КЭУ-0,3 kanal qazg'ich-tekislagich yordamida 25-30 sm chuqurlikda muvaqqat ariq olinadi (uning qirg'og'i yo'laklami chegaralovchi pushta bo'lib xizmat qiladi). Suv yo'lakka muvaqqat ariqning oxirgi qismidan bosh qismiga qadar har 10-20 m masofa oralatib navbatma-navbat suv berib boriladi (7-rasm).

Yo'lakka beriladigan suv miqdori uning 1 m eni uchun belgila- nib, u solishtirma suv sarfi deb tushuniladi. Uning miqdori nishob- likka bog'liq holda 1 dan 20 1/sek. gacha bo'ladi: ko'ndalang nishobligi 0,002 dan va bo'ylama nishobligi 0,004 dan katta yerlarda

yo'lakning solishtirma suv sarfini kamaytirishga to'g'ri keladi. Bu esa yo'lakning eni va uzunligi bo'ylab keraklicha suv qatlamini hosil qilish imkonini bermaydi, natijada tuproq bir xilda namiqmaydi. Yo'lakka beriladigan eng ko'p suv sarfiga yo'lakning bo'ylama nishobligi 0,001-0,003 ga teng bo'lgan sharoitdagina yo'l qo'yiladi.



7- rasm. Yo'laklab bostirib sug'orish: a - suvni yo'lakka yon tomondan taqsimlanishi; b - suvni yo'lakning bosh qismiga o'tkazish; g- tuproqning namiqish konturi; 1 -sug'orish tarmog'i (o'qariq); 2 - muvaqqat ariq; 3 - pushta (marza)lar; 4 - suv to'sqichlar. (Ol'chovlar m hisobida).

Yo'lak oxiridan oqova chiqishini kamaytirish maqsadida suv yo'lak uzunasining 3/4 qismini o'tishi bilan suv sarfi ikki marotaba kamaytiriladi. Bu o'zgaruvchan oqim bilan sug'orish deb yuritiladi.

Yo'laklab bostirib sug'orishda sug'orish me'yori 1000-1500 m<sup>3</sup>/ga atrofida bo'ladi. Bunda suvni yo'lak oxiriga yetib borish vaqtini inobatga olinishi lozim. Yo'lakka taqsimlanadigan suv miqdori uning tuproqqa singish miqdoriga muvofiq kelishi, ya'ni  $q=f=v-t^a$  tenglikni qanoatlantirishi kerak (bu yerda  $q$  - yo'lakka suv sarfi, 1/sek.;  $v$  - suvning filtratsiya tezligi ( $v=0,05-0,15$  m/cek.);  $t$  - sug'orish davoliyili (t = 4-12 soat va undan ortiq);  $a$  - filtratsiya tezligining so'nish koefitsienti ( $a=0,2-0,8$ , o'rtacha - 0,5). Ma'lum sharoit uchun suvning solishtirma sarfi ( $q$ , 1/sek.) ni bilgan holda yo'lakka umumiy suv sarfi ( $q_{yM}$ , 1/sek.) ni quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin:

$$q_{yM} Q' Cl.$$

bu yerda  $a$  - yo'lak kengligi, m.

Keng va uzun yo'laklar orqali sug'orishda suvni ППА-165У, ППА-300, КП-200 rusumdag'i mashina va agregatlar yordamida taqsimlash sug'orishda yug'ori ish unumdorligiga va samaradorlikka erishishga olib keladi.

Yo'laklab bostirib sug'orish yuqori ish unumdorligini ta'min- laydi. Lekin sug'orishda tuproqning yuzasi suv bilan to'liq bostiri- lishi tufayli struktura agregatlarining parchalanishi va tuproqnjng kuchli zichlashishi kuzatiladi, sug'orishdan so'ng qatqaloq vujudga keladi va tuproqni qurib borishi bilan uning yuzasida paydo bo'lgan yoriqlar kengaya borib, suvning bug'lanishga isrof bo'lishi kucha- yadi. Shu sababdan birinchi sug'orishni yoppasiga ekilgan ekinlar tuproq yuzasini to'liq soyalagandan keyin o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

### 3.3. CHEK OLIB BOSTIRIB SUG'ORISH

Bunday sug'orish maxsus qurilgan cheklami suv bilan bostirish orqali amalg'a oshiriladi. Sholini sug'orishda va sho'r yuvishda qo'llaniladi. Sug'orish cheki pushta (marza)lar bilan o'rab olingen sholichilik kartasining eng kichik bo'g'ini bo'lib, unga berilgan suv singishi orqali tuproq namligiga aylanadi. Chek olib bostirib sug'orish nishobligi kichik ( $<0,002$ ) va qat'iy nishobsiz, suv o'tka- zuvchanligi kuchsiz, tabiiy zovurlashtirilganligi yuqori yoki kollek- torzovur tarmoqlari bilan ta'minlangan yerlarda qo'llaniladi.

Sholini sug'orishda chek 10-12 sm. dan 15-16 sm. gacha suv qatlami bilan bostiriladi (8- rasm).


Xorazm va Qoraqalpog'istonning ayrim xo'jaliklarida sholidan boshqa ayrim ekinlar (bug'doy, arpa, suli, oqjo'xori va b.) ham chek olib, qisqa muddatli bostirib sug'orib kelinmoqda. Qisqa muddatli bostirib sug'orishda chekka 10 sm. dan 15 sm. gacha qalinlikda suv beriladi, suvning bir qismi tuproqqa singishi bilan o'simlikning dimiqib nobud bo'lishini oldini olish maqsadida ortiqcha suv tashama tarmoqlarga chiqarib yuboriladi.

Chek olib bostirib sug'orishda suvchining smenadagi ish unumdorligi 8 gektargacha yetib boradi. Lekin bunday sug'orishda ekinlami sug'orish me'yori nisbatan katta ekanligidan tuproqni sun'iy zovurlashtirish talab etiladi, chek va kartalar atrofida olingen pushtalar qishloq xo'jaligi texnikasinig harakatiga xalaqit beradi.

8 - rasm. Chek olib bostirib sug'orishda tuproqning namiqish konturi.

#### 3.4. EGATLAB SUG'ORISH TEKNIKASI ELEMENTLARI

Qishloq xo'jaligi ekinlarini egatlab sug'orishning sifati va samaradorligi sug'orish texnikasi elementlarini qanchalik to'g'ri tanlanganligi va tatbiq etilganligiga bevosita bog'liqdir. Egatlab sug'orish texnikasi elementlariga egatning uzunligi (4), ko'ndalang kesimining shakli va o'lchamlari, egatga suv berish davomiyligi ( $?_{um}$ ) va miqdori ( $q$ ) kiradi (20- rasm).



20- rasm. Egatlarning ko'ndalang kesimi: a - uchburchakli; b - trapetsiya- parabolik; B - egatning kengligi;  $a_e$  - qator orasining kengligi;  $H_e$  - egatning umumiy chuqurligi;  $h$  - egatning chuqurligi.

Egatlar uzunligi dalaning tekislanganlik darajasi, nishobligi, suv otkazuvchanligi va qator orasining kengligiga muvofiq ravishda tanlanadi.

**Egatning ko'ndalang kesimi o'lchamlari va egatlar orasidagi masofa.** Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi amaliyotida *chuqur*, o 'rtacha *chuqur* va *sayoz* egatlardan foydalanim kelinmoqda. Sayoz

egatlaming chuqurligi 10-15 sm, ustki kengligi 30-35 sm, o'rtacha chuqurlikdagi egatlarda bu ko'satkichlar tegishlicha 15-20 va 40-45 sm, chuqur egatlarda esa 20-30 va 50-60 sm. ni tashkil etadi (8- jadval). Sayoz egatlar tor qatorlab va lentsimon ekilgan ekinlami, o'rtacha chuqur egatlar qator oralari 60-70 sm va chuqur egatlar qator oralari 80-90 sm bo'lgan ekinlami sug'orishda qo'llaniladi. Nam to'plash maqsadida o'tkaziladigan sug'orishda egatlar 30 sm. gacha chuqurlikda olinadi.

Boshoqli don va ko'p yillik o'tekinlari kuzda ekilganda chuqur va o'rtacha chuqur egatlar olinadi. Ular erigan qor va yomg'ir suvlarini tutib qolib, tuproqqa shimilishini yaxshilaydi. Bunday egatlar bahorga yaxshi saqlanib qoladi. Sayoz egatlar esa yog'in sochin ta'sirida tekislanib ketishi mumkin, bu esa kelgusi sug'o- rishlami o'tkazishni murakkablashtirib yuboradi.

*8-jadval*


**Tuproqning mexanik tarkibiga ko'rta egatlar orasidagi masofa va ularning ko'ndalang kesim o'lchamlari (Kolpakov V. V., Siarev I.P., 1981)**

Egatlar	Ko'ndalang kesimi		Egatlar orasidagi masofa, sm	
	chuqurligi, sm	ustki kengligi, sm	yengil qumoq tuproq	og'ir qumoq tuproq
Sayoz	10-15	30-35	40-50	60-70
O'rtacha chuqur	15-20	40-45	60-70	80-90
Chuqur	20-30	50-60	80-90	90-110

Foydalanish maqsadlari va tuproqning suv o'tkazuvchanligiga bog'liq holda egatlar orasidagi masofa turlicha bo'ladi, odatda, ular yetishtirilayotgan ekinlaming qator orasi kengligiga teng bo'ladi. Egatdagi suvni tuproqqa vertikal singishi yengil tuproqlarda kuchli, yon tomonlarga infiltratsiyasi kuchsiz bo'ladi. Shu bois, bunday tuproqlarda egatlar oralig'i katta bo'lganda tuproqning namiqish konturlari deyarli qo'shilmaydi va pushtani yetarlicha namiqtirmaydi. Og'ir tuproqlarda esa buning aksini ko'rish mumkin (10- rasm). Demak, yengil tuproqlarda egatlar orasidagi masofalar kichik, og'ir tuproqlarda nisbatan katta qilib olinadi.

Egatlar orasi qanchalik tor bo'lsa chopiq traktorlarining tezligi shunchalik kichik bo'ladi, ulaming ish unumdorligi pasayib ketadi. Umuman olganda, egatlar orasidagi masofani shunday kattalikda

tanlab olish kerakki, toki sug'orishda qo'shni egatlar orasidagi pushta to'liq namiqsin.



10- rasm. Egatlab sug'orishda tuproqning namiqish konturi: a - yengil tuproqda; b - og'ir tuproqda.

**Egat uzunligi.** Juda kalta (40-60 m) egatlar orqali sug'orish suvchining va qishloq xo'jaligi mashinalarining ish unumdarligini, yer va suvdan foydalanish koeffitsientlarini pasayishiga olib keladi.

Kalta egatlar orqali sug'orishda tuproqning hisobiy qatlamini namiqtirish uchun lozim bo'lgan sug'orish davomiyligida suvning ko'p qismi (40-50 foizigacha) oqova sifatida tashlab yuboriladi. Haddan ziyod uzun egatlar orqali sug'orishda qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalanish samaradorligi va suvchining ish unum-dorligi ortadi. Lekin suvni egat oxirigacha yetib borishi uchun ko'p vaqt (?i) talab etiladi va tuproqning hisobiy qatlamini namiqtirish uchun zarur bo'lgan vaqt ( $\text{f}_m$ ) mobaynida egatning bosh qismida chuqr qatlamlarga filtratsiya bo'lishi tufayli ko'p miqdordagi suv isrof bo'ladi. Bu esa tuproqning egat bo'y lab bir xil chuqurlikda namiqmasligiga olib keladi, ya'ni egatning bosh qismida uning ortiqcha namiqishi va oxirida yetarlicha namiqmasligiga sabab bo'ladi. Suvning filtratsiyaga sarfi sizot suvlar sathini ko'tarilishini va tuproqning meliorativ ahvolini yomonlashuvini keltirib chiqaradi. Shu sababdan amaliyotda egatlaming qulay o'lchamlarini tanlashda egatning boshidan oxirigacha tuproqning hisobiy qatlamini sifatli namiqtirish imkoniyati e'tiborga olinadi.

Egat uzunligini egatga suv sarfi bilan bog'liq holda tanlash suvdan foydalanish samaradorligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Samarqand viloyatida olib borilgan tajriba natijalari ko'rsatadiki, g'o'zani chuqr egatlar orqali sug'orish tuproqning hisobiy qatlamini kapillyar namiqishini yaxshilaydi, suvni egat

uzunligi bo'yicha bir xilda taqsimlanishini va sug'orishdan keyin tuproqni bir vaqtda yetilishini ta'minlaydi. Bunday sharoitda tuproqda kechuvchi mikrobiologik jarayonlar hamda o'simlikning o'sib rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi (9-jadval).

9-jadval

**Egatning uzunligi va suv sarfiga bog'liq holda g'o'zaning o'sib rivojlanishi va hosildorligi (Gorenberg Ya. X., Sherkulov M. ma'lumotlari)**

Egat o'lchamlari, sm chuqurligi	uzunligi	Egatning suv sarfi, l/sek.	O'simlik bo'yi, sm	Bir tupdag'i soni, dona		%"... .....%■' Hosil, s/ga
				hosil shoxlari	ko'saklar	
18	100	0,1	67,8	11,1	10,0	27,7
25	100	0,1	71,1	11,9	10,8	29,2
18	200	0,2	70,1	11,4	10,4	30,0
25	200	0,2	72,8	11,2	11,2	31,9
18	300	0,3	72,7	11,1	10,9	29,0
25	300	0,3	77,2	12,1	10,1	33,3

N. T. Laktayevning (1978) ma'lumotlariga ko'ra suv o'tkazuvchanligi kuchli tuproqlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini 150-200 m. li egatlar orqali sug'orishda sug'orish me'yori 1400-1800 m<sup>3</sup>/ga. ni tashkil etgan bo'lsa, egatga suv sarfini oshirish natijasida sug'orish me'yori bir muncha qisqargan. Lekin egat uzunligi 400 m. gacha yetkazilganda sug'orish me'yori 1500 m<sup>3</sup>/ga. gacha ortib borgan. Nisbatan uzun egatlar orqali sug'orish ish unumdorligini 4,5 martagacha ortishi va sug'orish tannarxini 54 foizga kamayishiga olib keladi.

Amaliyotda egatlar dalaning tekislanganlik darajasi, nishobligi va suv o'tkazuvchanligiga bog'liq holda 50 m. dan 600 m. gacha uzunlikda olinadi. 10 va 11-jadvallarda egatga suv taqsimlash miqdorlari o'zgaruvchan bo'lgan sharoitlar uchun egatlarning tavsija etilgan qulay uzunliklari keltirilgan. Egat uzunligi tuproqning mexanik tarkibi, relyefi va joyning nishobligiga bog'liq bo'lib, egat uzunligining ortishi va egatga suv sarfming kamayishi bilan sug'orish me'yori ortib boradi.

10- jadval

**Egatning suv sarfi doimiy bo'lgan sharoitda sug'orish texnikasining tavsiya  
etilgan elementlari (Laktayev N. T. bo'yicha)**

Tuproqning suv o'tkazuvchanligi	Ko'sats- kichlar	Egat yo'nalishi bo'yicha nishoblik				
		0,04	0,01	0,005	0,00175	0,0005
Kuchli - qumloq, 1 m chuqurlikda shag'al yotqiziqli yengil qumoq tuproqlar	4	40	105	180	200	150
	?e	0,1	0,5	0,75	1,5	1
	h	5,5	1,3	3,0	1,25	1,8
	h	2,5	1,9	0,5	0,75	0,2
	^um	8	3,2	3,5	2	2
Yuqori - yengil, katta qatlamlili qumoq tuproqlar	4	75	130	250	300	250
	?e	0,1	0,25	0,75	1	0,75
	h	7,8	4,6	2,8	3,1	4,6
	h	14	9,4	5,9	5,2	5,8
	^um	6,2	4,8	3,1	2,1	1,2
O'rtacha - o'rtacha qumoq tuproqlar	4	100	175	300	300	350
		0,1	0,25	0,5	0,5	0,5
	t\	6	5	5,2	6	10
	h	17	11	7,8	6,5	4
	^um	23	16	13	12,5	14
Sust - og'ir qumoq tuproqlar	4	150	200	325	400	600
		0,1	0,1	0,25	0,25	0,5
	h	9	18	19	20	13
	h	32,5	29	26	17	8
	^um	41,5	47	36	37	21
Kuchsiz - soz, suv o't- kazmaydigan qatlamlili qumoq tuproqlar	4	125	150	250	300	600
	4c	0,05	0,05	0,1	0,1	0,25
	t\	14	20	20	34	35
	h	76	67,5	55	41	20
	?vm	90	87,5	75	75	55

**Egatning suv sarfi.** Sug‘orishning samaradorligi va sifati, suvdan foydalanish darajasi va suvchining ish unumdarligi egatga suv berish miqdoriga ham bogiiqdir. O‘zPITI ma’lumotlariga ko‘ra egatning suv sarfi ortishi bilan sug‘orish davomiyligi qisqaradi, lekin oqova miqdori ortib, tuproqning irrigatsiya eroziyasi kuchayadi. Suv sarfi haddan kichik bo‘lgan sharoitda suvni egat oxiriga yetib borish vaqtini (?i) ortadi va buning oqibatida egatning bosh qismida filtratsi- yaga suv sarfining ko‘payishi kuzatiladi.

11-jadval

O‘zgaruvchan oqim bilan sug‘orish sharoitida egatlab sug‘orish texnikasining tavsya etilgan elementlari (Laktayev N. T. bo‘yicha)

Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi	Ko‘rsat-kichlar	Egat yo‘nalishi bo‘yicha dalaning nishobligi				
		0,004	0,01	0,005	0,00175	0,0005
Kuchli - qumloq, 1 m chugurlikda shag‘al yotqiziqli yengil qumoq tuproqlar	<i>h</i>	40	105	200	250	-
	<i>q<i>4</i>·i</i>	0,1/0,05	0,5/0,25	1/0,5	2/1	-
	<i>ll</i>	5,5	1,3	1,7	1,1	-
	<i>h</i>	2,5	1,9	1,3	0,8	-
	Aim	8	3,2	3	1,9	-
Yuqori - yengil, katta qatlamlı qumoq tuproqlar	<i>h</i>	75	130	300	350	-
	<i>Qilq-i</i>	0,1/0,05	0,25/0,125	1/0,5	1,5/0,75	-
	<i>t</i>	7,8	4,6	2,4	1,8	-
	<i>tl</i>	6,2	4,8	3,1	-	-
	Aim	14	9,4	5,5	5,0	-
O‘rtacha - o‘rtacha qumoq tuproqlar	<i>h</i>	100	175	350	350	400
	<i>q<i>1</i>/qi</i>	0,1/0,05	0,25/0,125	0,75/0,375	0,75/0,375	0,75/0,375
	<i>h</i>	6	5	3,8	4,5	0,5
	<i>h</i>	17	11	7,2	7	3,5
	<i>t<sub>um</sub></i>	23	16	11	11,5	11
Sust - og‘ir qumoq tuproqlar	<i>l<sub>c</sub></i>	100	200	400	400	600
	<i>ti</i>	0,05/0,25	0,1/0,05	0,05/0,25	0,5/0,25	0,75/0,375
	<i>ll</i>	12	18	6,5	7,5	10,9
	<i>tl</i>	37	29	18,5	15,5	8,1
	Aim	49	47	25	23	19
Kuchsiz - soz, suv o‘tkazmaydigan qatiam yotqiziqli qumoq tuproqlar	<i>h</i>	125	250	350	450	700
		0,01/0,025	0,1/0,05	0,25/0,0125	0,25/0,125	0,5/0,25
	<i>tl</i>	14	18	10	18	18
	<i>h</i>	86	67	40	41	26
	<i>t<sub>um</sub></i>	100	85	50	59	44

Izoh: 4 - egat uzunligi, m; *q<sub>1</sub>* va *q<sub>2</sub>* - egatga o‘zgaruvchan suv sarfi miqdorlari, 1/sek.; *ti* va *t<sub>2</sub>* - *q<sub>1</sub>* va *q<sub>2</sub>* sarfda sug‘orish davomiyligi, soat; *t<sub>um</sub>* - sug‘orishning umumiy davomiyligi, soat.

Chopiq traktorlarining g‘ildiragi o‘tgan qator oralig‘ida zichla-nishi tufayli tuproqning suv o‘tkazuvchanligi nisbatan yomonlashadi, ushbu egatlarda suvning oqish tezligi yuqori bo‘ladi va barcha egatlarda suvning tuproqqa shimalishi bir xilda kechmaydi. Sug‘orish texnikasi elementlariga to‘g‘ri rioya qilmaslik oqibatida oqova chiqish miqdori egatga berilgan suvning 50 foizigacha yetib borishi mumkin (qulay sharoitda esa 15-20 foizni tashkil etadi).

Sug‘oriladigan yerlarda suvdan foydalanish koeffitsientini oshirish, oqova va fflitratsiyaga sarfini kamaytirish, tuproqni sifatlari namiqtirish maqsadida amaliyotda o‘zgaruvchan oqim bilan sug‘orish keng tatbiq etilmoqda. Bunda egatga dastlab nisbatan katta miqdorda ( $q_1$ ) suv taqsimlanadi va suvni egat oxiriga yetib borishi arafasida uning sarfi ikki barobar kamaytiriladi ( $q_2$ ) hamda belgilangan sug‘orish me’yori to’liq berilgunga qadar jildiratib sug‘orish o‘tkaziladi.

Joyning nishobligi, qator orasining kengligi, egatning chuqurligi va tuproqning suv o‘tkazuvchanligiga muvofiq holda egatning suv sarfi 0,05-2 1/sek. atrofida bo‘ladi.

**Sug‘orish davomiyligi.** Tuproqning hisobiy qatlamini namiqtirish va bunda belgilangan sug‘orish me’yorini berish uchun ma’lum vaqt talab etiladi. Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi, egatning suv sarfi va uzunligiga bog‘liq holda sug‘orish davomiyligi turlicha bo‘ladi. Yengil qumoq tuproqlaming suv o‘tkazuvchanligini kuchli bo‘lganligi bois sug‘orish 12-16 soat, og‘ir tuproqlarda esa, aksincha, kichik bo‘lganligi tufayli 24-36 soat davom etadi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari ko‘rsatadiki, suv sarfi 0,3 1/sek. bo‘lganda 120 m uzunlikdagi egatni suv bosib o‘tishi uchun 24 soat sarflangan bo‘lsa, 0,5 1/sek. suv taqsimlanganda bu vaqt 9 soat 32 min. gacha kamaygan: suv sarfini ortishi bilan sug‘orish davomiyligi qisqaradi. Ekinni birinchi sug‘orish vaqtida egat tuproqning kuchli g‘ovak va g‘adir-budir bo‘lishi tufayli suvning oqish tezligi kichik bo‘ladi. Shu sababdan suvni egat oxiriga yetib borish vaqtiga (/i)ni kamaytirish va suv sarfini oshirish talab etiladi. Navbatdagi sug‘orishlarda tuproqning nisbatan zichlanganligi tufayli suvni egat oxiriga yetib borish vaqtiga birinchi suvdagiga nisbatan 57 marta qisqaradi (Yeryomenko V. E.).

Egatning boshidan oxiriga qadar tuproqni hisobiy qatlamini namiqtirish uchun suv egat oxiriga yetib borgandan keyin ham

sug'orish davom ettiriladi. Egat oxiriga suvni yetib borish (/,) va undan keyin sug'orishni davom ettirish vaqtilari ( $t_2$ ) sug'orishning umumiy davomiyligi ( $4_m$ ) ni tashkil etadi.

O'zgaruvchan oqim bilan sug'orishda egatning suv sarfi ( $q$ ) va sug'orish davomiyligi ( $t$ ) suvning egat oxiriga yetgunicha belgilangan sug'orish me'yorini tuproqqa singib ulgurishini ta'minlaydigan holda tanlanishi lozim, ya'ni egatga umumiy taqsimlangan suv ( $q-t$ ) va tuproqqa umumiy suvning singish ( $v_t$ ) miqdorlari o'zaro teng., ya'ni  $q-t = v_t$  bo'lishi lozim.

### 3.5. EGATLAB SUG'ORISH TEXNIKASI ELEMENTLARINING HISOBI

Sug'orish texnikasi elementlari matematik hisoblash, dala tajri- balarini va sinov sug'orishlari o'tkazish usullari orqali aniqlanadi. Matematik hisoblash suvning yer yuzasidagi oqimi ta'sirida tuproqning namiqish mexanizmning ma'lum bog'liqligi asosida amalga oshiriladi. Sinov sug'orishlari o'tkazish yo'li bilan tavsiya etilgan sug'orish texnikasi elementlariga muayyan xo'jalik sharoiti uchun tegishli aniqliklar kiritiladi.

Egatga eng ko'p suv berish miqdori ( $q_{lim}$ , 1/sek.) egatning suv o'tkazuvchanlik qobiliyatiga bog'liq bo'lib, egat tubining nishobligi 0,003 dan kichik bo'lgan yerlar uchun S. M. Krivovyaz taklif etgan quyidagi bog'liqlik orqali aniqlanadi:

$$q_{lim} = 1,28 \cdot yf_i \cdot (0,6 \cdot d_e \cdot 2A)^2,$$

bu yerda 4 - egat tubining nishobligi;  $d_e$  - egatning chuqurligi, m;

A - dalaning tekislanganlik aniqligi, sm.

Egat tubining nishobligi katta bo'lgan sharoitda suv bilan egatning yuvilishini oldini olish maqsadida egatga suv sarfi 0,1 1/sek. gacha kamaytiriladi. Bunday yerlarda suv sarfini yuqori bo'lishi sug'orish mavsumida har hektar maydondan 5-15 t. gacha unumdar tuproqning yuvilib, oqova bilan olib chiqib ketilishiga sabab bo'ladi.

Egat uzunligining yo'l qo'yiladigan eng katta miqdori ( $U_{lim}$ , m) suvning egat oxirigacha yetib borishi ( $t_{lim}$ ) va eng katta suv sarfi ( $q_{lim}$ ) ni singish ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lib, u quyidagicha hisoblanadi:

Aim  $\lim / (X_0 * |J - |^st)$ ? bu yerda  
 $X_0$  - egatning bosh qismidagi namiqish perimetri ( $0,1 - qj^{i^2} - u^m$ ),  
 $m$ ;  
 $J$  - egat uzunligi bo'yicha namiqish peremetrini kamayishini  
 hisobga oluvchi koeffitsient ( $0,75-0,85$ );  $k_{st}$  - suvni muqarrar singish  
 tezligi koeffitsienti, mm/sek.  
 Yuvilishga bardoshliligi turlicha bo'lgan tuproqlar uchun suvni egatga  
 yo'l qo'yiladigan sarfi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:  
 $*7\lim \kss' 4?$   
 bu yerda  $q_{lim}$  - eng katta suv sarfi (yuvilishga o'rtacha va kuchsiz qarshilik  
 ko'rsatuvchi tuproqlar uchun  $0,004$  1/sek. va katta qarshilik ko'rsatuvchi  
 tuproqlar uchun  $0,005$  1/sek.);  
 $<\kss-$  egatning kamaytirilgan suv sarfi, 1/sek.

Belgilangan sug'orish me'yorida sug'orish davomiyligi va egatning suv  
 sarfini aniqlash uchun sinov sug'orish o'tkaziladi. Bunda egatning uzunligi  
 bo'yicha tuproqning bir xilda namiqishini nazorat qilish maqsadida namiqish  
 konturi egatning boshi, o'rtasi va oxirida anig'lanadi. Namiqish konturi uchun  
 tuproq namligi egatning o'rtasi, qirg'og'i va pushtasida anig'lash orqali  
 belgilanadi. Tuproq notekis namlanganda uning namiqish konturi har xil  
 boiadi. Demak, sug'orish noto'g'ri o'tkazilmoqda.

Tuproqning namiqish konturi va u asosida 1 ga may donga berilgan suv  
 miqdorini hisoblash yo'li bilan egatning bir xilda nami- qishi - sug'orishning  
 bir tekislik koeffitsienti  $K_h$  ni aniqlash mumkin:

$/4, m_{ox} / //bosh \blacksquare$

bu yerda  $m_{ox}$  va  $w_{bosh}$  - egatning oxiri va boshidagi sug'orish me'yori,  $m^3/ga$ .  
 Agar  $\hat{a}=0,85-0,9$  bo'lsa sug'orish sifati yaxshi,  $\hat{b}=0,75-0,80$  - qoniqarli  
 va  $\hat{c}=0,5-0,6$  bo'lsa yomon hisoblanadi:

Egatlab sug'orishda sug'orish davomiyligi, egatning suv sarfi va egat  
 uzunligi quyidagi ifodalar yordamida aniqlanadi:

$$t = [(m - a - I)/(10000 \cdot v \cdot P^1)]^{17\hat{a}}; q = (jn - a \cdot 0/(36000-));$$

$$/=(3600 \bullet q \bullet t)/(m \cdot a),$$

bu yerda  $v$  - suvning o'rtacha singish tezligi (0,06-0,15), m/sek.;

$P^x$  - egatning namiqish perimetri, m;  $t$  -

sug'orish davomiyligi, soat;

$a$  - suvning singish tezligini kamayish koeffitsienti (0,2-0,8);  $m$  -

sug'orish me'yori (netto),  $m^3/ga$ ;  $a$  - egatlar orasidagi masofa (0,6-0,9), m;


/-egat uzunligi (200-500), m.

### 3.6. EGATLARGA SUV TAQSIMLASH TEKNIKASI

Qishloq xo'jaligi ekinlarini yer yuzasidan sug'orish amaliyoti ko'ssatadiki, suvchi mehnatining ko'p qismi suvni egatlarga taqsim- lashga sarflanadi. Sug'orishda ish unumdorligi bir vaqtida ishlayotgan egatlar soniga bog'liq bo'lib, uni oshirish maqsadida turli xil yangi suv taqsimlash usullari ishlab chiqarishga tatbiq qilinmoqda. Hozirgi kunda egatlarga suv taqsimlash va suv sarfini rostlash bir necha usullarda - *oddiy usulda, nay va sifonlar, bo 'g 'otchalar, qattiq, yarim qattiq quvurlar* va *egiluvchan shlanglar* yordamida amalga oshirilmoqda.

**Oddiy usulda suv taqsimlash.** Bunday usulda suv o'qariqdan beshamaklarga, ulardan esa egatlarga qog'oz salfetka (o'g'itdan bo'shagan qoplar) yoki chim yordamida taqsimlanadi (11- rasm). Mazkur sharoitda bitta suvchi 36-40 1/sek. miqdordagi suvni boshqara oladi, xolos.

Egatlarga suvni chim va qog'oz salfetkalar yordamida taqsim- lashda bitta suvchi 1 ga maydonga suv tarash uchun 3-4 soat vaqt sarflasa, nay va sifonlar yordamida taqsimlashda 1,5-2 soat sarflaydi. So'nggi egatlarga suv endi taqsimlanganda dastlab suv taqsimlangan egatlardagi suv uning oxiriga yetib borgan bo'ladi. Buning oqibatida suv taqsimlashning dastlabki vaqlarida dalaning suv berilgan qismi ortiqcha namiqadi va eng keyin taqsimlangan qismi yetarlicha namiqmoydi, ya'ni tuproqning namiqishi dala bo'yicha notekis bo'lib, o'simlikning o'sib rivojlanishini turlicha boiishiga olib keladi (12- rasm). Shuningdek, chim kesish va uni sug'oriladigan uchastkalarga tashib keltirish, egatlami jihozlash ko'p qo'l kuchi mehnatini talab etadi.




11- rasm. Egatlarga suvni qog'oz-salfetka!ar yordamida taqsimlash.



12- rasm. Go'zani tuproq ustidan sug'orishda suv isrofgarchiligi.

**Egatlarga suvni bo'g'otchalar, nay va sifonlar yordamida taqsimlash.** Bo'g'otchalar tunuka yoki plastmassadan tayyorlangan bo'lib, ular o'qariqdan yoki beshamakdan suvni egatga taqsimlashda


qoilaniladi. Nay va sifonlar tunuka va polietilendan, shuningdek, rezina shlangdan tayyorlanadi. Ulami ishslash tamoyili o'qariq va egatdagi suv sathlari farqiga asoslangan. Polietilendan tayyorlangan nay va sifonlar eng ko'p qo'llanilib kelinmoqda, ular 20-60 mm diametrda 1,3 m uzunlikda bo'lib, suv sarfi 0,2-2 l/sek. ni tashkil etadi. Bunday jihozlar qo'llanilganda egatlarga suv bir xilda taqsimlanadi, suv egatlar oxiriga baravar yetib boradi va tuproq bir tekisda namlanadi. Suvchining ish unumdotligi oshadi (smenada 2-3 ga. gacha) va mehnat gigienasi yaxshilanadi, bitta suvchi 90-100 l/sek. miqdordagi suvni boshqarishi uchun imkoniyat yaratiladi. Nay va sifonlar yordamida nishobligi 0,003 dan katta joylarda uzun egatlar (200-400 m) orqali sug'orish yuqori samara beradi (13- rasm).



13- rasm. Egatlarga suv taqsimlash jihozlari: a - bo'gotchalar; b - nay; v va g - sifon; 1 - o'qariq; 2 - egat; 3 - suv olgichning mahkamlagichi; 4 - sifoning tirsagi; 5 - suv olgich. (0'lchovlar sm hisobida).

0'zgaruvchan oqim bilan sug'orish sharoitida har bir egatga ikkitadan sifon yoki nay o'matiladi va suvning egat oxiriga yetib borishi arafasida ulardan bitti yig'ishtirib olinadi. Bir suvchi sug'orishda 70-100 ta nay yoki sifonga xizmat ko'rsatadi. Kichik nishobli sharoitda suvchi 100-200 ta egatga nay yoki sifonlami bir xil balandlikda joylashtirib chiqqandan so'ng o'qariqdagi suv sathini to'sqichlar yordamida ko'taradi. Bunda barcha nay yoki sifonlarga suv bir vaqtda uzatiladi. Sug'orish yakunlanishi arafasida to'sqichlar

olinib, suv sathi pasaytiriladi va egatlarga suv berish bir vaqtida to‘xtatiladi. Egatlarga suv taqsimlangandan so‘ng suvchi o‘qariqdagi suv sathini nazorat qilib, sifonlami xas-cho‘pdan tozalab turadi (14- rasm).



14- rasm. Egatlarga suvni sifonlar yordamida tarash.

**Egatlarga to‘shalgan plynokalar orqali sug‘orish.** O‘zPITI tomonidan ishlab chiqilgan egatlarga to‘shalgan plynokalar orqali g‘o‘zani sug‘orishda suv sarfini kamaytirish bo‘yicha muhim tadbir hisoblanadi. Bunda 60 sm kenglik va 0,008 mm qalinlikdagi shaffof plynoka qator oralatib egatning boshidan oxirigacha to‘shaladi va har

1- 1,5 m masofada uning o‘rta qismida 3-4 mm diametrda suv chiqargich teshikchalar hosil qilinadi: sug‘orish suvi ular orqali tuproqqa o‘tib, uni namiqtira boshlaydi. Bunday sug‘orish texnikasi suv oqimi ta’sirida egat yuvilishini oldini oladi, tuproq yuzasini qisman qoplaganligi (qator oralatib to‘shalganda dalaning 33 va har bir egatga to‘shalganda 66 foiz) tufayli suvni bug‘lanishga sarfini kamaytiradi, erta muddatlarda g‘o‘za ekilgan tuproqning issiqqlik rejimini yaxshilaydi (15- rasm).

Institutning Jizzax filiali (Oqbuloq tajriba xo‘jaligi)ning sizot suvlari chuqruda joylashgan yerlarida g‘o‘zaning C-4727 va AN- Boyovut-2 navlarini sug‘orish bo‘yicha A.G. Bezborodov (2001) rahbarligida olib borilgan tajribalar quyidagilami ko‘rsatdi: plynoka to‘shalmagan odadagi usulda g‘o‘za 4 marta  $2850 \text{ m}^3/\text{ga}$  umumiy me’yorda sug‘orilganda hektaridan 36,5 s. dan hosil yetishtirilgan bo‘lsa, qator oralatib plynoka orqali sug‘orilganda bu ko‘rsatkichlar

tegishli ravishda 1600 m<sup>2</sup>/ga va 41,4 s. ni tashkil etgan, ya'ni mavsumiy sug'orish me'yori 1250 m<sup>3</sup>/ga. ga kamaygan, hosildorlik esa 4,9 s/ga. ga ortgan. Sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan sharoitda esa g'o'zani 1 marta sug'orish kifoya qilgan bo'lib, odatdagi usulda sug'orilganda 750-840 m<sup>3</sup>/ga suv sarflagan holda hektaridan 26,4-32,2 s. dan paxta yetishtirilgan. Qator oralatib plyonka orqali sug'orilgan variantda bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 410-550 m<sup>3</sup>/ga va 31,1-36,0 s. ni tashkil etgan, har bir egatdan plyonka orqali sug'orilganda esa 410 m<sup>2</sup>/ga va 53,4 s/ga. dan hosil olingan.




15 - rasm. G'o'zani egatga to'shalgan plynokalar orqali sug'orish.

Fermer xo'jaliklarida qator oralari chopiq qilinadigan ekinlami plyonka orqali egatlab sug'orish suvdan tejamli foydalanish imkoniyatini yaratish bilan birgalikda tuproqning qulay suv rejimini yaxshilaydi, ustki qatlamini g'ovak bo'lishini va ekinlar hosildorligini ortishini ta'minlaydi.

**Egatlarga yopiq tarmoqlar yordamida suv taqsimlashda** *qattiq, yarim qattiq quvurlar va egiluvchan shlanglardan* foydalanish sug'orishda ish unumdorligini, yerdan va suvdan foydalanish koeffitsientlarini oshirishga, suvchining mehnat gigienasini va sug'orish sifatini yaxshilashga olib keladi. Tabiiy-xo'jalik sharotlarga bog'liq holda *ko'chmas, yarim ko 'chma va ko 'chma suv taqsimlash tizimlari* qo'llaniladi.


Ko'chmas sug'orish tizimlarida suv olish inshooti, nasos stansi- yalari, sug'orish tarmoqlari hamda sug'orish texnikasi doimiy ravishda qurilgan bo'lib, yarim ko'chma tizimlarda sug'orish texnikasi bir daladan ikkinchi dalaga ko'chirilib yurilishi orqali sug'orish amalga oshiriladi, ko'chmas tizimlarda esa uning barcha tarkibiy elementlari sug'orish jarayonida bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chirib yuriladi.

**Ko'chmas tizimlar** tuproqning haydov qatlami ostiga (35-40 sm chuqurlikka) joylashtirilgan o'zi bosim hosil qiluvchi yopiq quvurlar va ochiq sug'orish nov (lotok) lar ko'rinishida bo'ladi (16-rasm). Ular yuqori rentabelli paxta, bog' va uzumzorlami sug'orishda qo'llaniladi.




16 - rasm. G'ozani ochiq sug'orish nov (lotok) lari yordamida sug'orish.

I. A. Sharov va G.Yu. Sheynkin taklif etgan tizim joyning katta nishobligi yo‘nalishi bo‘yicha joylashtirilgan taqsimlash quvuri va undan suv oluvchi sug’orish quvurlaridan iborat bo‘lib, tizim kartada ko‘ndalang va bo‘ylama sxemalarda joylashtirilishi mumkin. Quvurlar plastmassa, asbestsement va ba’zan betondan tayyorlanadi (17- rasm). Sug’orish quvurlarida ekinning qator oralig’iga teng masofada 3-9 mm diametrda suv chiqarish teshiklari o’matilgan bo‘lib, sug’orish suvi ulardan chiqib, 30-40 sm diametrda voronkalai; hosil qilib tuproq yuzasiga buloqchalar shaklida ko’tariladi va egatlarga yo‘naladi (18- rasm). Quvur bo‘ylab suvni bir xilda taqsimlanishi uchun quvurlar uzunligi 150-250 m. gacha qilib olinadi va uning bosh qismida suv bosimi 4-6 m qilib ta’minlanadi. Egatga suv sarfi quvurdagi suv chiqargich diametrini va quvurdagi suv sarfini o’zgartirish orqali boshqariladi. Ushbu tizim qo’llanilgan sharoitda bitta suvchi bir vaqtida 500-600 tagacha egatdagi suvni boshqarishi mumkin va bunda ish unumdorligi odatdagi sug’orishdagiga nisbatan 3-4 marta ortadi.



17- rasm. Temir-beton novdan suv olinib, egatlarga suv tuproq ostidan taqsimlanadigan tizimning ko‘rini-shi.



18- rasm. Egatlarga suvni tuproqning haydov osti qatlamiga joylashtirilgan yopiq quvurlar yordamida taqsimlash sxemasi: 1 - quvur; 2 - 3-9 mm diametrli suv chiqargich; 3 - sug’orish egati. (0’lchovlar sm hisobida).

Yopiq quvurlardan foydalanib egatlarga suv taqsimlashda ulami loyqa va xas-cho'p bosishi, egatlar boshida chuqr voronkalaming paydo bo'lishi tizimning asosiy kamchiliklari hisobalanadi. Shu sababdan suvni maxsus tindirgichlarda loyqaaan tozalash va ularga xas-cho'p tushirmaslik uchun suv olish joylariga panjaralar o'matish lozim. Quvrurda loyqa cho'kmasligi uchun suvning oqish tezligi 0,7- 0,8 m/sek. dan katta bo'lishi kerak. Sug'orishlardan keyin quvurlami yuvib tozalab turish maqsadida uning quyi qismida suv tashlagich zatvor (qulfak) lar o'rnatiladi.

Egatlarga suv taqsimlashda **avtomatashtirilgan sug'orish novi** (АПЛ) dan foydalanish yuqori samaraga erishishni ta'minlaydi. Bunday novlar suv o'tkazuvchanligi kuchsiz va o'rtacha bo'lgan tuproqlarda chopiq talab ekinlами uzun egatlар orqali o'zgarmas oqim bilan sug'orishda qo'llaniladi. J1P-80 novlarining tubida ekinlar qator oralig'iga teng masofalarda teshikchalar bo'lib, ularga suv chiqargich sifon yoki naylar o'matilgan, ulardan suv polietilen shlanglar yordamida egat boshiga uzatiladi. Suv chiqargichlaming eng ko'p suv sarfi 0,6 l/sek. ga teng.


**Yarim ko'chma tizimlarda** suv taqsimlash tarmoqlari (kanal, lotok, quvurlar), nasos stansiyalari va suv olish inshootlari doimiy bo'lib, sug'orish mashinalari va agregatlari hamda qurilmalari sug'orish jarayonida bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chirib yuriladi.

**Ko'chma** tizimlarda suv taqsimlash jihozlari va qurilmalari bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yuriladi. Ko'chma sug'orish agregatlari, qismlarga ajratiladigan qattiq quvurlar, egiluvchan shlanglar va boshqalar bunday tizimlar sirasiga kiradi.

**O'z-o'zidan bosim hosil qiluvchi aralash tarmoqlar** nishobligi 0,005 dan katta bo'lgan joylarda ekinlami sug'orishda qo'llaniladi. Bunda suv xo'jaliklararo taqsimlash kanalidan suv tashuvchi yopiq quvurga uzatiladi. Sug'orish uchastkaning kanalga yaqin eng baland qismida egiluvchan shlanglar yordamida amalga oshirilsa, boshqa maydonlarda esa suv chiqargich teshikchalar bilan ta'minlangan yopiq sug'orish quvurlari yordamida o'tkaziladi.

Nishobligi 0,01-0,04 bo'lgan yerlarda quyidagi tizim yaxshi samara beradi: o'qariq o'miga tuproqning haydov osti qatlami (40- 45 sm chuqurlik)ga o'z-o'zidan bosim hosil qiluvchi asbestsement yoki plastmassa quvur yotqiziladi va unga egiluvchan shlanglar uzunligiga teng masofalarda suv chiqargich gidrantlar o'matiladi

(19- rasm). Gidrantlarga ekinlar qator oralig‘iga teng (60-90 sm) masofalarda rostlanuvchi suv chiqargich klapanlar bilan ta’minlan- gan egiluvchan shlanglar ulanadi va egatlaming suv sarfi shu klapanlar yordamida o‘zgartirib turiladi.



19- rasm. Yopiq quvur- dan gidrantlar yordamida suv chiqarish (Salnikov M.L. bo‘yicha): 1 - surma klapan; 2 - mufta; 3 - egiluvchan shlang; 4 - tuproq osti quvuri.


Nishobligi 0,015-0,020 dan katta joylarda rostlanmaydigan suv chiqargichli, diametri 150-200 mm bo‘lgan polietelen shlanglardan, 0,015-0,005 bo‘lgan yerdarda diametri 250-300 mm bo‘lgan kapron va 0,005 dan kichik yerdarda esa 350-420 mm diametriga ega rostlanuvchi suv chiqargichli kapron shlanglardan foydalanish maq- sadga muvofiqdir (20- rasm).

Bunday tizimlarda suv gidrantlardan ochiq muvaqqat sug‘orish tarmog‘iga uzatilishi va undan nay hamda sifonlar yordamida egatlarga taqsimlanishi mumkin.

### 3.7. SUG‘ORISH MASHINALARI VA AGREGATLARI

Tuproq ustidan sug‘orishda ish unumdorligini oshirish, suvdan tejamli foydalanish, tuproqni sifatli namiqtirish sug‘orishni mexani- zatsiyalashga imkon beruvchi quyidagi mashina va agregatlardan foydalanish evaziga erishiladi.

**ППА-165У ко‘чма sug‘orish agregati** qator oralari 60, 70 va 90 sm bo‘lgan ekinlami egatlab sug‘orishda keng qo‘llaniladi (21- rasm). Agregat nasos stansiyasi, rostlanuvchi suv chiqargichlar bilan




20- rasm. Sarfi rostlab turiladigan suv chiqargichli egiluvchan shlanglar bilan g‘o‘zani egatlab sug‘orish.

ta’minlangan egiluvchan shlanglar, ulami tarqatish va yig‘ib olish moslamasidan iborat bo‘lib, T-28-X4, T-40M, MTZ-80 traktorlariga o‘matilgan holda ishlataladi. Suv ochiq kanallar yoki novlardan olib uzatiladi. Kapron matodan tayyorlangan sug‘orish shlanglari har biri 100 m. li uchta bo‘lakdan iborat. Suv sarfi 165 l/sek. Agregat bir joyda turib 8-10 ga maydonga, mavsumda esa 120 ga maydonga xizmat ko‘rsatadi. Sug‘orish me’yori 1200 m<sup>3</sup>/ga bo‘lganda ish unumdorligi 0,6 ga/ soat (12-jadval).

**IIIА-300** ko‘chma sug‘orish agregati sholichilik almashlab ekish dalasidagi ekinlami bostirib sug‘orish, sug‘orish yo‘laklariga suv taqsimlash, sho‘r yuvish va nam to‘plash maqsadlarida qo’llaniladi. Agregat nasos stansiyasi, egiluvchan shlang, ulami tarqatish va yig‘ib olish moslamalaridan iborat bo‘lib, MT3-80, IOM3-6 traktorlariga o‘matiladi. Agregat har biri 120 m uzunlikdagi rezina-

lashtirilgan kapron matodan tayyorlangan shlanglar bilan ta'minlan-gan. Har bir shlangda 20 m oralatib o'matilgan 6 ta suv chiqargich mavjud. Soatiga ish unumdoorligi 0,53 ga, mavsumda 115-315 ga maydonga xizmat ko'rsatadi.



**21 -paem. ППА-165У universal ko'chma sug'orish agregati:**

- 1 - sug'orish quvurlarini masofadan yig'ishtirib olish uchun arqon; 2 - ramka; 3 - rolik;
- 4 - lebyodka; 5 - gidromotr; 6 - baraban-konteyner; 7 - sug'orish quvuri; 8 - gaz oqimli vakum apparat; 9 - kojux; 10 - shlang; 11 - reduktor, 12 - ko'tarish mexanizmi; 13 - suv so'ruvchiquvur; 14- tayanch; 15-burilishmuftasi; 16-tirsak; 17 -nasos; 18-rama tayanchi; 19 - teskarri klapan; 20 - teskarri klapanni ochish uchun arqon; 21 - bosimli patrubok; 22 - uzish muftasi; 23 - lonjeron; 24 - kronshteyn; 25 - mahkamlash taxtachasi;
- 26 - gidrotsilindr; 27- suriluvchan rama; 28 - arqon yiqgich.

**АПШ-1 g'ildirakli shleyfli sug'orish agregati** ekinlami egatlاب va yo'laklab bostirib sug'orishda qo'llilaniladi. Suvni ochiq kanallar yoki yopiq tarmoqlardan gidrantlar orqali olib ishlaydi. U juft g'ildi- raklarga o'matilgan ikkita 220 mm diametrli suv tashuvchi alyumin quvur va 100 mm diametrli sug'orish shleyfidan iborat bir nechta sekxiyalardan tarkib topgan. Sug'orish shleyfida har 60, 70 yoki 90 sm masofada suv chiqargich surma klapan o'matilgan. Agregatda bir nechta shleyfli sekxiyalar egiluvchan shlanglar bilan o'zaro birlash- tililib ishlataladi, Suv СНП-150/5A nasos stansiyasi yordamida uzatiladi. Ish unumdoorligi 0,6 ga/soat.

**ТКП-90 g'ildirakli sug'orish quvuri** egatlаб sug'orishda ishlataladi. U ДКШ-64 quvuri asosida tayyorlangan bo'lib, 16 ta erkin aylanuvchi mufta bilan jihozlangan 2 qanotdan iborat. Mufta- larga ekinlar qator oralig'i kengligida suv chiqargichlar bilan ta'min-

12-jadval

Sug'orish agregatlarining texnik tavsifi

Ko'rsatkichlar	Agregat nisumi			
	ППА-165Y	ППА-300	KII-160	KII-160A
Suv sarfi, l/sek.	150-200	245-312	60	60
Bir vaqtida sug'oriladigan maydon, ga	8-10	7	16	16
Ish unumdotligi (sug'orish me'yori 1200 m <sup>3</sup> /ga), ga/soat	0,6	0,63	0,18	0,18
Quruturi	Meliorativ kapronidan egilluvenan sug'onuvehi		Polymer-metall	Polytilen
Diametri, mm	300	350, 420	300, 160	250
Uzunligi, m	100 (3 ta)	120 (4 ta)	400	5,4 (74 ta)
Suv chiqqarich klapanlari oralig'i dagi masofa, m	0,6; 0,7; 0,9	20	0,9	0,9
Suv chiqqarich klapanlarning suv sarfi, l/sek	0-2	0-20,0	0,1-1,0	0,1-1,0
Og'itiligi, kg	1240	1212	905	33668
				120

langan kichik bosimli shlang shleyf ulanadi. Suv yopiq tarmoqdan giderantlar yordamida uzatiladi. Bir joy da turib ishlaganda 1,44 ga yerga xizmat ko'rsatadi. Ish unumdorligi 0,45 ga/soat.


**TAP-150 alyumin sug'orish quvuri** nov yoki yopiq tarmoqdan suv oladi va egatlaba sug'orishda qo'llaniladi. U 150 mm diametr va 5,1-11,7 m uzunlikdagi alyumin quvurlardan iborat bo'lib, ular o'zaro xomutlar yordamida biriktiriladi. Bir joyda turib 40 ga maydonga xizmat ko'rsatadi. Ish unumdorligi 0,15 ga/soat.

**KOPI-200 sug'orish qurilmasi komplekti** novlardan surma klapanli suv chiqargich yoki sifonlar yordamida suv olib ishlaydi. U har biri 50 m uzunlikdagi suv tashuvchi polietilen shlangdan iborat. Komplekt bir vaqtida 5 ga maydonni sug'orish imkonini beradi. Ish unumdorligi 0,15 ga/soat.

**KPI-160A sug'orish komplekti** egatlaba sug'orishda, sho'r yuvish va nam toplash maqsadidagi sug'orishlarda ishlatiladi. Suv chiqargichlar bilan ta'minlangan suv tashuvchi polimer-metall quvur 250 mm diametrda va 5,4 m uzunlikda bo'lib, ular xomutlar yordamida ulanadi. Suv novdan sifonlar yordamida olinadi. Ish unumdorligi 0,18 ga/soat, bir vaqtida 16 ga maydonga xizmat ko'rsatadi.

O'zbekistonning yangi o'zlashtirilgan yerlarida sug'orish mashinalari va agregatlaridan foydalanish sug'orishda ish unumdorligini

2- 3 marta oshirishga va suvni filtratsiyaga sarfmi 10-12 foizga kam bo'lishi evaziga mavsumiy sug'orish me'yorini kamaytirishni ta'minlangan (Veysmanov V.M., Tolchinskiy M.A., 1970).



22- rasm. ASHU-32 shlangli sug'orish qurilmasi: 1 - rama; 2 - baraban; 3 - sug'oruvchi shlang; 4 - quloq boshi teshiklari; 5 - giderotsilindr.

Surxondaryo viloyatida ingichka tolali g'o'zani sug'orish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatadiki, suv egatlarga oddiy usulda

taqsimlanganda suvchining smenadagi ish unumdorligi 0,4-0,5 ga. ni tashkil etgan bo'lsa, ППА-165 agregati yordamida sug'orilganda 4-5 gektarga yetib borgan, sug'orish me'yori 1800-2000 m<sup>3</sup>/ga. dan 1400-1500 m<sup>3</sup>/ga. gacha kamaygan (13-jadval).

13-jadval

**Suv taqsimlash usullarini ingichka tolali g'o'zani o'sib rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri**  
(Lev V.T, QurbonovX. ma'lumotlari)

Suv taqsimlash usuli	Sug'orish me'yori, m <sup>3</sup> /ga	Mavsumiy sug'orish me'yori, m <sup>3</sup> /ga	O'simlik bo'yisi, sm	Bir tupdag'i ko'saklar soni, dona	Hosil, s/ga	Qo'shimcha hosil, s/ga
Qog'oz-salfetkalar yordamida	1840	7360	80,3	16,3	28,7	-
ППА-165 agregati yordamida	1370	6490	86,1	19,0	34,3	5,6

**3.8. TOG\* OLDI RAYONLARIDA TUPROQ USTIDAN SUG'OMSH XU SU SIYATLARI**

Tog'oldi rayonlarida nishoblik katta bo'lganligidan tuproqni ero- ziyadan muhofazalovchi sug'orish usullari qo'llaniladi. Nishobligi 0,1 dan 0,2 gacha bo'lgan yerlarda qator oralari ishlanadigan ekin- lami sug'orish uchun egatlar balandlik gorizontallariga yaqin yo'nalish bo'yicha olinadi: katta nishoblik bo'yicha egatlar olish sug'orish vaqtida tuproqning yuvilishini kuchaytiradi. Bunday sharoitlarda egat uzunligi va egatga suv sarfi odatdagagi sharoitdagiga ko'ra ancha kamaytiriladi (14 va 15- jadvallar).

14-jadval

**Nishobligi 0,05-0,1 bo'lgan yerlarda chopiqtalab ekinlarni egatlab sug'orish texnikasi elementlari**

Egat uzunligi, m	Egatga suv sarfi ( $q, lq_2$ ), 1/sek	Sug'orish davomiyligi, soat	Sug'orish me'yori (brutto), m <sup>3</sup> /ga	Sug'orish texnikasining ФИК
Yuqori suv o'tkazuvchan tuproqlar				
60	0,075/0,035	19,4	1000	0,75
O'rtaча suv o'tkazuvchan tuproqlar				
100	0,075/0,035	38,5	1000	0,80
Kam suv o'tkazuvchan tuproqlar				
125	0,05/0,025	70	1080	0,74

Katta qiyalikka ega joylarda o'zgaruvchan oqim bilan egatlab sug'orish orqali tuproq yuvilishini 3-5 t/ga. gacha kamaytirish mumkin. Tog' oldi rayonlarida sug'orishda dastlab egatning bosh qismi (umumiyligidan 1/3—1/2 bo'lagi) ni kichik sarfda namiqtirib, so'ngra suv sarfmi ikki barobar oshirish, suvni egat oxiriga yetishi arafasida esa yana ikki marotaba kamaytirish yaxshi natija beradi. Bu bilan suvni oqovaga chiqishini va tuproq yuvilishini kamaytirish, hisobiy qatlamni deyarli bir xil namiqtirish imkoniyati. tug'iladi.

*15-jadval*

**Bog' va uzumzorlarni egatlab sug'orish texnikasi elementlari  
(Smin VA., Zuxriddinov S.S. ma'lumotlari)**

Ko'rsatkichlar	Qator yo'nalishidagi nishoblik			
	0,08	0,10	0,13	0,16
Egat uzunligi, m	90	80	65	60
Egatga suv sarfi, l/sek.				
41	0,08	0,07	0,05	0,05
42	0,04	0,03	0,025	0,025

Tuproq eroziyasini kamaytirish va unumdorligini tiklash uchun ekinlami egat oralatib sug'orish (bunda suv traktor g'ildiragi zichlagan egatlarga taraladi), organik va mineral o'g'itlardan to'g'ri foydalanish (ulaming katta qismini egatning bosh tomoniga solish), qator oralariga ishlov berish tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazish talab etiladi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Egatlab sug'orish texnikasini texnikjihatdan tasniflang.
2. Egatlab sug'orish texnikasi elementlarini ko'rsating.
3. Joyning sharoitlariga ko'ra egatlar oichami, uzunligi, sug'orish davomiyligi, egatning suv sarfi qanday?
4. Egatlab sug'orish texnikasi elementlarining hisobi.
5. O'zgaruvchan oqim bilan sug'orish xususiyatlarini bayon eting.
6. Egatlami jihozlash materiallarini ko'rsating.
7. Egatlarga suv taqsimlashni mexanizatsiyalash vositalarini ko'rsating.
8. Yer yuzasidan sug'orishda qanday sug'orish mashinalari va agregatlar qo'llaniladi. Ulami tavsiflang.
9. Yo'laklab bostirib sug'orish texnikasi va uning afcallik hamda kamchiliklarini ko'rsating.
10. Chek olib bostirib sug'orish texnikasi elementlarini bayon eting.
11. Suv taqsimlashni mexanizatsiyalash vositalarini ko'rsating.
12. Yer sathidan sug'orish texnikasiga texnik-iqtisodiy baho bering.

#### **4. SUBIRRIGATSIYA**

Subirrigatsiya sizot suvlar sathini sun'iy ko'tarish orqali tuproqni namlash, ya'ni sug'orish bo'lib, bunda tuproqning faol qatlamiga sizot suvlar tuproq kapillyarlari orqali ko'tarilib keladi va o'sim- liklaming suv ta'minotini yaxshilaydi. Sizot suvlar sathini sun'iy ravishda boshqarish evaziga ushbu jarayon amalga oshiriladi, tuproqning havo va oziq rejimlariga ta'sir etiladi. Ushbu sug'orish usuli Markaziy Osiyo regionining sizot suvlari yer yuzasiga tabiiy holda ko'tariladigan yerlarda qadimdan qo'llanilib kelingan. Buning uchun ikki tomonlama ishlaydigan sug'orish-zax qochirish tarmoqli meliorativ tizimlar barpo etilgan. Tarmoqqa to'siqlar o'matish, shuningdek, ularni sug'orish suvi bilan qo'shimcha ta'minlash orqali ulardagi suv sathi ko'tariladi va o'simlikning turi, yeming holati va tuproq sharoitlariga bog'liq holda sizot suvlar 0,7-1,5 m chuqurlikda tutib turiladi. Xorazm vohasida subirrigatsiya may oyining o'rtala- rida, ya'ni ekinlaming dastlabki rivojlanish fazalarida - sug'orish egatlari olish qiyin bo'lган davrda qo'llaniladi. Farg'ona viloyatida sug'orish tarmoqlarining quyi qismida joylashgan xo'jaliklarda avgust oyining oxirida suv tanqisligi kuchayganda, shuningdek, yer yuzasidan sug'orish sonini kamaytirish maqsadida o'tkaziladi. Noo'suv davrida to'siqlar olib tashlanadi va ushbu tarmoqlar zovur vazifasini bajaradi va dalalardagi sizot suvlar sathi pasayadi. Subirrigatsiyani sizot suvlarining minerallashganlik darajasi 4-5 g/l. gacha bo'lgan yerdarda qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **5. IRRIGATSIYA EROZIYASI VA UNI OLDINI OLISH TADBIRLARI**

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida tuproqni sug'orish suvlarini bilan yuvilib ketishi *irrigatsiya eroziyasi* deb yuritiladi. Irrigatsiya eroziyasi tufayli tuproqning ustki, eng unumdon qatlamani yuvilib ketadi, tuprog'da gumus, oziq moddalar miqdori kamayib, uning suv-fizik xususiyatlari yomonlashadi, mikrobiologik jarayonlar susa- yadi.

X. X. Xamdamov (1976) olib borgan tadqiqotlar ko'rsatadiki, irrigatsiya eroziyasi tufayli faqatgina Samarqand vohasida yiliga 30 ming t. gacha unumdar tuproq yo'qotiladi. Yuvilgan tuproq oqova suvlari bilan sug'oriladigan uchastkalardan olib chiqib ketiladi. Buning oqibatida tuproqning mahsuldarligi (ishlab chiqarish qobiliyati) pasayib ketadi. Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani xo'jaliklaridagi kuchsiz yuvilgan tuproqlarda g'o'za hosildorligi 8- 12 foizga, o'rtacha yuvilgan yerlarda - 22-40 va kuchli yuvilgan. yerlarda 34-53 foizga kamayishi o'z tasdig'ini topgan (Kochebey M.I., Suchkov S.P., 1960).

Irrigatsiya eroziyasini yuzaga kelishi va jadal kechishida qator omillar muhim rol o'yinaydi. Tipik bo'z tuproqlar sharoitida irrigatsiya eroziyasi ko'Mamiga joyning mezorelyefi, qiyaligi, tuproqning mikroagregat tarkibi, ulaming suvga chidamliligi, tuproq paydo boiuvchi jinslaming turi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bunday eroziya, ayniqsa, qo'riq yerlami o'zlashtirib, sug'orish qo'llashning dastlabki yillari jadal kechadi. Sug'oriladigan yerlaming qiyaligi qanchalik katta, tuproqning suv o'tkazuvchanligi yomon, tuproq agregatla- rining suvga chidamliligi past va tuproq qanchalik quruq bo'lsa eroziya shunchalik kuchli sodir bo'ladi.

Kuchli irrigatsiya eroziyasi nishobligi 0,03-0,05 (qiyaligi 2-3°) bo'lgan yerlarda ham kuzatiladi. Turli sharoitlarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, nishoblik 0,008 dan ortishi bilan irrigatsiya eroziyasini yuzaga keltirmasdan sug'orish imkoniyati yo'q: qiyalik qanchalik katta bo'lsa, tuproqning yuvilishi shunchalik kuchayadi, oziq moddalari ko'plab yo'qotiladi (16-jadval).

#### **16-jadval**

**Joyning nishobligiga bog'liq holda tuproq va oziq moddalarning yuvilishi  
(Xamdamov X.X., 1976)**

Dalaning nishobligi	Tuproqning yuvilishi, t/ga	Oziq moddalarning yuvilishi, kg/ga		
		gumus	azot	fosfor
0,001	1,5	21,2	1,1	2,4
0,005	5,0	70,7	4,6	8,0
0,010	8,0	113,0	7,4	12,8
0,025	19,0	268,3	17,5	30,3
0,050	61,0	831,3	56,3	96,3

Irrigatsiya eroziyasi sug'orish texnikasi elementlari (egatning chuqurligi, uzunligi, suv sarfi va oqim tezligi, tuproqning nurashga bardoshliligi) ga ham bevosita bog'liq.

Egatning suv sarfi va oqim tezligi qanchalik katta bo'lsa, tuproq eroziyasi shunchalik jadal kechadi. Qishloq xo'jaligi uchun noqulay bo'lgan ushbu hodisani oldini olish maqsadida quyidagi tadbirlami qo'llamoq zarur: eroziyaga moyil yerlami yaxshilab tekislash; muvaqqat sug'orish tarmoqlarini ko'ndalang joylashtirish sxemasini qo'llash (qiyaliklarda egatlar joyning kichik nishobligi yo'nalihsida olinadi); sug'orish texnikasi elementlarini to'g'ri tanlash va boshqa- lar. Joyning qiyaligi ortishi bilan egatlar chuqurligi kamaytiriladi: nisbatan katta nishobli joylarda 14-15 sm. dan, suv o'tkazuvchanligi yomon yerlarda 10-12 sm. dan chuqur bo'lmasligi lozim. Kichik nishobli yerlarda egatlar 60-100 m va nisbatan katta nishobli yerlarda esa 200-300 m. gacha uzunlikda olinadi.

Egatga beriladigan suv miqdori ham nishoblikka qarab turlicha bo'ladi: qiyaligi  $2-3^\circ$  va egat uzunligi 150 m bo'lgan yerlarda egatning suv sarfi dastlab 0,07 1/sek. qilib olinadi va 0,1 1/sek. gacha yetkaziladi;  $1-4^\circ$  qiyalikka ega yerlarda egat uzunligi 100 m bo'lganda egatning suv sarfi 0,15-0,10 1/sek., qiyaligi  $3-6^\circ$  bo'lgan yerlarda esa 0,10-0,05 1/sek. miqdorida belgilanadi. Sizot suvlari chuqurda yotgan yerlarda sug'orish o'zgaruvchan oqim bilan amalga oshiriladi.

Bo'z tuproqlar sharoitida egatga suv berish miqdorining yo'l qo'yiladigan qiyamati ( $q_{max}$ ) ni tuproqning yuvilishini keltirib chiqar- maydigan oqim tezligi ( $v_{max}$ ) va egatning nishobligi (/) bo'yicha aniqlash mumkin (23- rasm).

0'zPITI ning Markaziy tajriba xo'jaligidagi qiyaligi  $1,5^\circ$  bo'lgan yerlarda G. N. Abdalova (2002) tomonidan olib borilgan tadtiqotlar irrigatsiya eroziyasi jadalligi qator oralariga ishlov berish usuli va sug'orish texnologiyasiga bevosita bog'liq ekanligini tasdiqladi (17- jadval).

Demak, irrigatsiya eroziyasiga moyil bo'lgan tipik bo'z tuproq- larda irrigatsiya eroziyasini kamaytirish va hosildorlikni oshirishda sug'orishni navbatma-navbat qator almashtirib amalga oshirish, 1- kultivatsiyani 17-18 sm va keyingilarini 12-14 sm chuqurlikda o'tkazish yaxshi natijalar beradi.

Yomg'irlatib sug'orish jarayonida irrigatsiya eroziyasini oldini olish maqsadida yomg'irlatish jadalligiga to'g'ri riosa qilmoq zarur. Bunda asosiy e'tibor tuproq ustida ko'lkob va suv oqimi paydo bo'l- masligiga qaratiladi. ДДА-100МА mashinasining harakat tezligini o'zgartirish, ДДН-70 va КИ-50 «Радуга»ш suv otish, hamda «Фрерат» mashinasida esa yomg'irlatgich apparatlarini almashtirish orqali yomg'irlatish jadalligi o'zgartiriladi.

#### 17-jadval


Qator oralariga ishlov berish usuli va sug'orish texnologiyasiga bog'i iq holda tuproqning yuvilishi va g'o'za hosildorligi (*Abdalova G.N.*, 2002)

Qator oralariga ishlov berish usuli	Egatlarga suv tarash usuli	Uch yilda o'rtacha	
		yuvilgan tuproq, t/ga	hosil, s/ga
1- kultivatsiya 6-8 sm, keyingilari 12-14 sm chuqurlikda	Har qatordan	4,4	28,2
	Qator oralatib	3,5	29,4
	Qator almashtirib	3,2	30,1
Har doim chisel-Kulti-vator bilan 17-18 sm chuqurlikda	Har qatordan	3,7	29,8
	Qator oralatib	2,9	31,5
	Qator almashtirib	2,7	32,4
1- kultivatsiya 17-18 sm, keyingilari 12-14 sm chuqurlikda	Har qatordan	3,3	30,3
	Qator oralatib	2,7	32,7
	Qator almashtirib	2,5	33,5

Irrigatsiya eroziyasiga duchor bo'lgan yerlarda mineral o'g'itlar- dan tabaqalashtirilgan me'yorlarda foydalanish maqsadga muvofiq- dir. Qiyalikning yuvilgan yuqorigi qismida yillik o'g'itlash me'yori 25-30 foizga oshiriladi, quyi qismida esa kamaytiriladi. Bunday yerlarda organik va guminli o'g'itlardan keng foydalanish yuqori samara beradi.

Irrigatsiya eroziyasiga moyil yerlarda ekinlar rivojlanishining boshlarida egat tubiga kimyoviy meliorantlar bilan ishlov berish yaxshi natija beradi. Bunda K-4 va K-6 polimerlari gektariga 30-40 kg (sof modda hisobida), o'tlar ekilishi bilan lateks va ionomer-BO - 200 kg (sof modda hisobida), ionomer-BO - 270 kg (tuproqning hajmiy og'irligiga nisbatan 0,05 foiz), ionomer-JI - 160 kg (tuproqning hajmiy og'irligiga nisbatan 0,03 foiz) me'yorlarda

ishlatiladi. Ionomer-BO va ionomer-JI sabzavotchilikda ko'chatlar eklilishi bilan sepiladi. Ushbu meliorantlar tuproq strukturasini yaxshilaydi, agregatlamining suvga chidamliligini oshiradi.



23-*paem*. Egatning nishobligi ( $t$ ) va egatdag'i suv oqimining yo'l qo'yiladigan tezligi ( $v_{max}$ ) ga bog'liq holda suv sarfini yo'l qo'yiladigan qiymati ( $CJ_{max}$ ) ni hisoblash sxemasi.

**1-AMALIY TAJRIBA MASHG‘ULOTI**  
**EGATLAB SUG‘ORISH TEXNIKASI ELEMENTLARINI HISOBBLASH**


Sug‘oriladigan dalaning maydoni uning relyefi, tuproq va xo‘jalikning mayjud sharoitlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qishloq xo‘jalik texnikasidan samarali va suvdan tejamli foydalanish uchun sug‘oriladigan uchastkalaming uzunligi 400 m. dan 1200 m. gacha va eni 400-500 m. qilib olinishi maqsadga muvofiq. Bunda muvaqqat sug‘orish tarmoqlari bo‘ylama sxemada joylashtirilganda eng ko‘pi bilan 1200 m, ko‘ndalanggiga joylashtirilganda 800 m qilib olinadi.

Sug‘oriladigan uchastkalarga suv taqsimlashda muvaqqat sug‘o- rish tarmoqlaridan foydalaniladi. Muvaqqat sug‘orish tarmoqlari bo‘lib o‘qariqlar, beshamaklar, egatlari, jo‘yaklar hisoblanadi.

Muvaqqat sug‘orish tarmoqlari sug‘oriladigan uchastkada bo‘y- lamasiga yoki ko‘ndalanggiga joylashtirilishi mumkin. Agar sug‘o- rish egatlaringning yo‘nalishi muvaqqat ariq yo‘nalishi bo‘yicha olinsa muvaqqat sug‘orish tarmoqlari bo‘ylama (24 *a-* rasm) va ko‘ndalanggiga olinsa ko‘ndlalang sxemada joylashtirilgan bo‘ladi (24*b-* rasm).

Muvaqqat sug‘orish tarmoqlarini bo‘ylama yoki ko‘ndanag sxemada joylashtirishda uchastkaning nishobligi e’tiborga olinadi: kichik nishobli (/<0,002) yerlarda sug‘orish tarmoqlari bo‘ylama sxemada, katta nishobli yerlarda (/>0,008) esa ko‘ndalang sxemada joylashtiriladi, o‘rtacha nishobli yerlarda (/=0,002-0,008) muvaqqat sug‘orish tarmoqlarini bo‘ylama yoki ko‘ndalang joylashtirish sxemalaridan foydalanish mumkin. Bunday hollarda muvaqqat sug‘orish tarmoqlari o‘mida yopiq sug‘orish tarmoqlaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

Sug‘orish tarmoqlari bo‘ylama sxemada joylashtirilganda sug‘orish suvi muvaqqat ariqdan o‘qariqlarga va undan egatlarga taqsimlanadi, ko‘ndalang sxemada joylashtirilganda esa o‘qariqdan beshamaklarga yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri egatlarga taqsimlanadi.



**24- rasm. Muvaqqat sug'orish tarmoqlarini joylashtirish sxemalari:**

**a** - bo'ylama va **b** - ko'ndalang. 1 - xo'jaliklararo taqsimlagich; 2 - xo'jalik taqsimlagichi; **3** - uchastka taqsimlagichi; **4** - Muvaqqat ariq; **5** - beshamak; **6** - sug'orish egati;  $Z_{ma}$  - muvaqqat ariq uzunligi; /,, - egat uzunligi; **B** - muvaqqat ariqlar orasidagi masofa.

Sug'orish tarmoqlari bo'ylama sxemada joylashtirilganda muvaqqat ariqlar orasidagi masofa 70-200 m qilib olinadi va uning suv sarfi 40-60 1/sek. atrofida boiishi (har bir o'qariqqa 15-20 1/sek. dan suv taqsimlanadi), ko'ndalang sxemada joylashtirilganda esa suv sarfi 40 1/sek. bo'lishi lozim.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishning sifati (sug'orish suvining dala bo'yicha bir tekisda taqsimlanishi, tuproqning hisobiy (faol) qatlamini bir xilda namiqtirish, suv isrofgarchiligini kamaytirish, sug'orishda ish unumdorligini oshirish va b.) sug'orish texnikasi elementlarini qay darajada to'g'ri tanlanganligi va tatbiq etilganligiga bevosita bog'liqdir.

Sug'oriladigan dehqonchilik amaliyotida tuproq yuzasi (usti) dan (egatlab, yo'laklab (pol olib) va chek olib bostirib) sug'orish usuli juda keng qo'llanilib kelinayotgan bo'lib, sug'oriladigan dalalarning shakli va o'lchamlari ekinlami parvarishlash va, shuningdek, sug'orishni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sug'ori-ladigan dalaning o'lchami dalaning nishobligi va mayjud ob'ektiv sharoitlarga bog'liqdir. Joyning nishobligiga ko'ra muvaqqat sug'orish tarmoqlari sug'oriladigan uchastkada ko'ndalang yoki bo'ylama sxemalarda joylashtirilishi mumkin. Shunga ko'ra daladagi o'qariqlar va muvaqqat tarmoqlar soni, ular orasidagi masofalar, ulaming suv sarfi turlichal bo'ladi.

Egatlab sug'orish texnikasi elementlari bo'lib egatning uzunligi (4), egatga suv berish davomiyligi (4) va beriladigan suv miqdori ( $q_e$ ), egatni jihozlash materiallari, qator orasining kengligi ( $a$ ), egatning chuqurligi (#) kabilar hisoblanadi. Ushbu elementlarni noto'g'ri tanlanishi tuproqni ortiqcha namiqishi yoki yetarli darajada namiqmasligiga, nurashiga, qo'llanilgan o'g'itlaming yuvilib ketishi- ga va oqova suv miqdonini ko'payishiga olib keladi. Shuningdek, suvdan foydalanish koeffitsienti va suvchining ish unumdorligi. pasayib ketadi. Shu sababdan sug'orish texnikasi elementlarini to'g'ri tanlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmog'i talab etiladi.

Egat uzunligi ( $/_e$ , m) muayyan sharoit uchun quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$/_e = 3600 - (q_r \cdot t_{jm} \cdot a),$$

bu yerda  $m$  - sug'orish me'yori, m<sup>2</sup>ga;

$q_e$  - egatga suv taqsimlash miqdori, 1/sek.;  $t_e$  - egatga suv taqsimlash davomiyligi, soat;

3600 - doimiy son (1 soatdagি sekundlar soni);  $a$  - qator orasining kengligi, m.

Egat uzunligini yo'l qo'yiladigan eng katta miqdori ( $/_{lim}$ , m) suvni egat oxirigacha yetib borishi (/) va eng katta suv sarfi ( $qn_m$ ) ni singish ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lib, u quyidagicha hisoblanadi:

*him qiuuJ^O \* u'ksri*

bu yerda  $X_\theta$  - egatning bosh qismidagi namiqish perimetri  
 $t(1 \wedge; 1/6 \backslash)$ .

(0,1  $q \mid im i_e$ ), m,

$\pi$  - egat uzunligi bo'yicha namiqish peremetrimi  
kamayishini hisobga oluvchi koeffitsient (0,75-0,85);

$f_{st}$  - suvni muqarrar singish tezligi koeffitsienti, mm/sek.

Egatga suv taqsimlash miqdori ( $q_e$ , 1/sek.) esa quyidagicha hisoblanadi:

$$q_e = 1,28 \cdot h \cdot J_i$$

bu yerda  $i$  - egatning bo'ylama nishobligi;

$h$  - egatga /r=0,6-Я-2A ifodasi yordamida aniqlanadi,

bu yerda 0,6 - qator orasining kengligi, m;

$H$ - egatning umumiy chuqurligi, sm;

A - dala yuzasining tekislanganlik darajasi (loyihaga nisbatan qancha sm farq qilishi).

Odatda dalaning tekislanganlik darajasi  $\pm 2-3$  sm. dan ortiq farq qilmasligi lozim. Dalani tekislashdagi farq bo'yicha egatning suv to'lish chuqurligi turlicha bo'ladi (18-jadval).

**18-jadval**  
**Dalaning tekislanganlik darajasiga bog'liq holda egatga berilishi mumkin bo'lgan suv chuqurligi (Rijov S. N. bo'yicha)**

Qator orasining kengligi, m	Egatning umumiyl chuchuqurligi, sm	Dalaning tekislanganlik darajasiga ko'ra egatga berilishi mumkin bo'lgan suv chuqurligi, sm		
		$\pm 3$ sm	$\pm 4$ sm	$\pm 5$ sm
80	18	8	7	6
90	27	7	12	11

Egatga eng ko'p suv berish miqdori ( $q_{vim}$ , 1/sek.) egatning suv o'tkazuvchanlik qobiliyatiga bog'liq bo'lib, egat tubining nishobligi 0,003 dan kichik bo'lgan yerlar uchun S. M. Krivovyaz taklif etgan quyidagi bog'liqlik orqali aniqlanadi:

$$9_{im}=l,28-7v(0,6-d_e2A^2,$$

bu yerda  $i_e$  - egat tubining nishobligi;  $d_e$  - egatning chuqurligi, m;

A - dalaning tekislanganlik aniqligi, sm.

Yuvilishga bardoshliligi turlicha bo'lgan tuproqlar uchun suvni egatga yo'l qo'yiladigan sarfi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$q|m qUL$$

bu yerda  $q_{bm}$  - eng katta suv sarfi (yuvilishga o'rtacha va kuchsiz qarshilik ko'rsatuvchi tuproqlar uchun 0,004 1/sek. va katta qarshilik ko'rsatuvchi tuproqlar uchun 0,005 1/sek.);

$q_{kss}$  - egatning kamaytirilgan suv sarfi, 1/sek.

**1- masala.** Agar g'o'za qator orasining kengligi 60 sm, sug'oriladigan dalaning bo'ylama nishobligi 0,001 ga teng bo'lsa va tekislanganlik darajdasi loyihadan  $\pm 3$  sm. ga farq qilsa, egatga suv taqsimlash miqdorini hisoblang.

**Yechish.** 17- jadval ma'lumotlariga ko'ra ushbu sharoitda

egatga berilishi mumkin bo‘lgan suv chuqurligi 8 sm. ga teng. Shunga ko‘ra egatga suv taqsimlash miqdori

$$q_e = l_{28-h} \cdot V7 = 1,28-8 \cdot 1/0,001 = 1,28-8-0,0316 = 0,32 \text{ 1/sek. ni tashkil etadi.}$$

Egatga taqsimlanadigan suv miqdori ( $q_e$ ) o‘qariqqa berilgan suv miqdori ( $Q_0^{nt}$ , 1/sek.) va bir vaqtida suv taqsimlanadigan egatlar soni ( $n_e$ ) ga ko‘ra ham hisoblanadi:

$$q_e = Q_0^{nt} / w_e, \text{ 1/sek.}$$

**2- masala.** O‘qariqning suv sarfi 38 1/sek. va bir vaqtida suv taqsimlanadigan egatlar soni 90 ta bo‘Isa, har bir egatga taqsimlanadigan suv miqdorini aniqlang.

$$\text{Yechish. } q_e = g_{0-q}^{nt} / n_e = 38 / 90 = 0,42 \text{ 1/sek.}$$

Bu yerda  $q_e$  ning miqdorini 1-jadvaldagagi ma’lumotlarga to‘g‘ri kelishi inobatga olinishi kerak.

Egatga suv berish davomiyligi ( $t_e$ ) sug‘orish me’yori ( $m$ ), egat uzunligi (4), qator orasining kengligi ( $a$ ) va egatga suv taqsimlash miqdori ( $q_e$ ) ga bog‘liq bo‘lib u quyidagi ifoda yordamida hisoblanishi mumkin:

$$4 = (00001 \cdot m - l_e \cdot a) / (3600 \cdot q_e), \text{ soat.}$$

Dalada bir o‘qariqqa biriktirilgan maydonda olinishi lozim bo‘lgan egatlar soni quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$n_e = B_{0-q} / a,$$

bu yerda  $B_{0-q}$  - o‘qariqning uzunligi, m;  
 $a$  - qator orasining kengligi, m.

Muvaqqat sug‘orish tarmoqlarini sug‘oriladigan uchastkada bo‘ylama joylashtirish sxemasi qo‘llanilayotgan sharoitda o‘qariq- ning uzunligi ( $S_{0-q}$ ) dalaning eni ( $S_{dala}$ ) ni shu dalada bo‘ylama olingan muvaqqat ariqlar soni ( $n_{m3}$ ) ga bo‘lish orqali aniqlanadi, ya’ni:

$$-^{\wedge}o‘q -^{\wedge}dala / ^{\wedge}ma? \text{ m.}$$

Bu yerda tuproq ish hajmini kamaytirish maqsadida o‘qariqning uzunligi 70 m. dan qisqa bo‘lmasligi lozim.

**3- masala.** Dalaning eni 288 m, g‘o‘za qator orasining kengligi 90 sm bo‘Isa, o‘qariqning uzunligini va har bir o‘qariqdan suv taqsimlanadigan egatlar sonini aniqlang.

**Yechish.** O‘qariqning uzunligi quyidagicha aniqlanadi:

$$50'q=8dala/ma=288/3=96 \text{ Ш.}$$

Demak, dalaning eni bo‘yicha har biri 96 m. dan bo‘lgan uchta o‘qariq olinadi. Har bir o‘qariq doirasida olinadigan egatlar soni esa quyidagiga teng:

$$N_e=B_{\&q}/a=96/0,9=106.$$

Muvaqqat ariqqa biriktirilgan maydonni sug‘orish davomiyligi 2 kundan ko‘p bo‘lmasligi lozim, ya’ni quyidagi tenglikni qanoatlan- tirishi kerak:

$$\hat{m}_a=\hat{m}_a-w/86,4-g_{ma}^{nt}<48 \text{ soat},$$

bu yerda  $W_{ma}$  - muvaqqat ariqqa biriktirilgan maydon, ga;  $m$  -

sug‘orish me‘yori,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;

$\hat{m}_a^n$  - muvaqqat ariqqa taqsimlanadigan suv miqdori, 1/sek.

Muvaqqat sug‘orish tarmoqlarini ko‘ndalang joylashtirish sxemasida muvaqqat ariqning suv sarfi 40 1/sek. dan va bo‘ylama sxemasida 60 1/sek. dan ko‘p bo‘lmasligi kerak, aks holda suvchi undan unumli foydalana olmaydi.

**4- masala.** Sug‘oriladigan dalaning uzunligi 480 m, eni 240 m, g‘o‘zani sug‘orish me‘yori 1000  $\text{m}^3/\text{ga}$  va har bir egatga taqsimlanadigan suv miqdori 0,75 1/sek., qator orasining kengligi 90 sm. ni tashkil etsa va sug‘orish 2 kundan ortiq davom ettirilmasligi lozim bo‘lsa, muvaqqat ariqqa taqsimlanadigan suv miqdori, sug‘orish takroriyligi va davomiyligi hisoblansin.

**Yechish.** Birinchi navbatda sug‘oriladigan dalaning yuzasi aniqlanadi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$\hat{m}_a=480-270=115 \text{ } 200 \text{ m}^2=11,52 \text{ ga}.$$

Demak, muvaqqat ariqqa biriktirilgan maydon 11,52 ga. ga teng. Mazkur dalani sug‘orish 2 kundan ( $7_{ma}$ ) ortiq davom ettirilmasligini

hisobga oladigan bo'lsak, muvaqqat ariqning talab etilayotgan suv sarfini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$0ma^{nt} = \dot{V}ta-w/86,4 = 11,52 \text{ 1000/86,4-2=66,7 1/sek.}$$

Har bir egatga taqsimlanadigan suv miqdori ( $q_e$ ) ni 0,75 1/sek. deb olsak, bir vaqtda suv taqsimlanadigan egatlar soni ( $>?_e$ ) quyida- giga teng bo'ladi:

$$n'e = Q_ma^n/q_e = 66,7/0,756 = 89 \text{ ta egat.}$$

Dalaning eni bo'yicha bitta o'qariq olingan, ya'ni  $B_{\&nb} = B_0 c_l$  bo'l- sa, dalada olinadigan egatlaming umumiy soni

$$n_e = B_{0-q} / a = 240/0,9 = 266 \text{ tani tashkil etadi.}$$

0'qariqdagagi suv miqdori bilan bir vaqtda 89 ta egatga suv taqsimlash imkonii bo'lganligidan egatlarga suv taqsimlash takroriy- ligi  
 $x = n_e/n'_e = 266/89 = 3$  ga teng bo'ladi.

Muvaqqat ariqqa biriktirilgan maydonni sug'orish davomiyligi esa

$$\begin{aligned} t_{ma} &= W_{ma-w} / 86,4 - g_{ma}^{nt} = 1,52 - 1000 / 86,4 - 66,7 = \\ &= 11520 / 5762,9 = 2 \text{ kunga teng.} \end{aligned}$$

Topshiriq. G'o'za dalasining eni 150 m, uzunligi 400 m, sug'orish me'yori 900  $m^3/ga$ , har bir egatga taqsimlanadigan suv miqdori 0,60 1/sek. va qator orasining kengligi 90 sm. ga teng bo'lib, sug'orishni 2 kundan ortiq davom ettirilishi mumkin boimasa, talab etilayotgan suv miqdori ( $0_{ma}^{nl}$ ), bir vaqtda suv taqsimlanadigan egatlar soni ( $n'_e$ ), egatlarga suv taqsimlash takroriyligi (x) va sug'orish davomiyligi ( $7_{ma}$ ) ni hisoblang.

## 2-AMALIY TAJRIBA MASHG'ULOTI

### YO'LAKLAB (POL OLIB) BOSTIRIB SUG'ORISH ME'YORI VA DAVOMIYLIGINI HISOBLASH

Yo'laklab (pol olib) bostirib sug'orish yoppasiga ekilgan (g'alla, bir va ko'p yillik o't) ekinlami sug'orishda, shuningdek, ekishdan oldin sug'orish va yaxob berishda keng q'llanilib kelinmoqda. Yo'laklab sug'orishda suvchining ish unumdorligi egatlab sug'orish- dagiga qaraganda birmuncha ortadi. Lekin dala yuzasi suv bilan to'liq bostirilganligi sababli uchastka bo'yicha tuproqning ustki qismi to'liq zichlashib, qatqaloq paydo bo'ladi. Yo'laklab sug'o- rishning sifati, asosan, yo'lakning uzunligi, eni, yo'lakka suv taqsimlash miqdori va davomiyligiga bog'liq bo'lib, bu ko'rsatkichlar tuproqning suv o'tkazuvchanligi va joyning nishobligiga bog'liq holda tanlab olinishi lozim (19-jadval).

19-jadval

#### Yo'laklarning tavsiya etilgan uzunligi va ularga suv taqsimlash miqdori

Tuproqning suv o'tkazuv- chanligi	Dalaning nishobligi	Yo'lakning uzunligi, m	Suv sarfi, l/sek.
Kuchsiz	0,002-0,004	250-300	8-6
	0,004-0,007	300-350	6-5
	0,007-0,010	350-400	5-4
0'rtacha	0,002-0,004	200-250	10-8
	0,004-0,007	250-300	8-6
	0,007-0,010	300-350	6-4
Yuqori	0,002-0,004	150-200	12-10
	0,004-0,007	200-250	10-8
	0,007-0,010	250-300	8-6

Agar dalaning yuzasi notejis bo'lsa, yo'lakning uzunligi tavsiya etilganidan 2-3 marta qisqa qilib olinadi va nishoblik 0,002 dan kichik bo'lgan yerlarda 300-400 m qilib olinishi va yo'lakka berila- digan suv sarfi 20-25 l/sek. gacha yetkazilishi mumkin. Yo'laklab

sug'orishda dalaning ko'ndalang nishobligi 0,002 va bo'ylama nishobligi esa 0,004 dan katta bo'Imagani ma'qul.

Yo'lakning eni ekish seyalkasining qamrash kengligiga barobar yoki undan bir necha marta keng qilib olinadi. Yo'lak olishda marza (pushta) lar dalaning bo'ylama nishobligi yo'nalishida 12-20 sm balandlikda (marzaning tubi 40-60 sm), ko'ndalang nishobligi nisbatan katta joylarda 25 sm qilib olinadi. Yo'lak olib bo'lingandan keyin uning yuqori qismida ko'ndalanggiga o'qariq olinadi, sug'orish tarmoqlarini bo'ylama joylashtirish sxemasida esa muvaqqat ariqdan o'qariq tortiladi va ulardan suv yo'laklarga bevosita taqsimlanadi.

Yo'laklarga suv berish qalinligi 3-10 sm bo'lib, yo'lakning 80- 90 % suv bilan bostirib bo'lingandan so'ng unga suv berish to'xta- tiladi. Sug'orishda yo'lakning eni bo'yicha suvning tekis taqsimla- nishi va uning oqish tezligi 10-20 sm/sek. dan katta bo'imasligi lozim.

Yoiaklab bostirib sug'orishda ekinlami sug'orish me'yori (netto) ta'minlanadigan suv qatlami ko'rinishida A. N. Kostyakov (1951) taklif etgan quyidagi ifoda yordamida hisoblanishi mumkin:

$$m = K_{\theta} \cdot r \cdot t,$$

bu yerda  $m$  - sug'orish me'yori, sm;

$A'$ -r, - suvni vaqt davomida o'rtacha singish tezligi, m/sek;  $t$  - yo'lakka suv berish davomiyligi, soat.

Suvni tuproqqa o'rtacha singish tezligi A. N. Kostyakov (1951) taklif etgan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$K_{\theta-a} = K_{\theta} / (\cdot - a)$ ;  $K_o = K_i / (l - CL)$ ,  
bu yerda  $K_{\theta}$  - tuproqning suv-fizik xususiyatini belgilovchi koeffitsient:  
 $a = 0,3-0,8$  ( $a_0 = 0,5$ );

- sug'orishning dastlabki birinchi soatida suvni tuproqqa singish tezligi (yuqori suv o'tkazuvchan tuproqlarda 0,12-0,08 m/soat, o'rtacha suv o'tkazuvchan - 0,08-0,04 va kuchsiz suv o'tkazuvchan tuproqlarda 0,01-0,04 m/soat).

Sug'orishning davomiyligi esa quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$t = m/K_0 \cdot \Delta = (m/K_0)^v$$

**1- masala.** Tuproqning suv o'tkazuvchanligi dastlabki birinchi soatda (/G) 0,06 ga va uning suv-fizik xossasini belgilovchi ko'rsatkich ( $a_{01}$ ) 0,5 ga teng bo'lsa, 4,5 soatda yo'lak yuzasida qancha suv qatlami hosil qilish mumkin?

**Yechish.** Dastlabki 1- soat uchun  $K_0$  ni aniqlaymiz:

$$K_0 = / (1-a) = 0,06 / (1-0,5) = 0,06 / 0,5 = 0,012 \text{ m/soat.}$$

Suvning o'ttacha singish tezligi ( $K_0^v$ ,,) esa quyidagiga teng:

$$A^v \cdot r^v \cdot K_0 / (1-a) = 0,012 / (1-0,5) = 0,012 / 0,5 = 0,024 \text{ m/soat.}$$

So'ngra sug'orish me'yori aniqlanadi:

$$m = K_0 \cdot v \cdot t = 0,024 \cdot 4,5 = 0,108 \text{ m} = 10,8 \text{ sm.}$$

1 sm qalinlikdagi suv qatlami 1 ga maydonda  $100 \text{ m}^3/\text{ga. ga}$  tengligini inobatga olsak, u holda yo'lakka  $10,8-100=1080 \text{ m}^3/\text{ga}$  suv berilar ekan.

**2- masala.** Suvning tuproqqa singish tezligi ( $K_a >_{rt}$ ) 0,018 m/soatga teng bo'lgan tuproqlarda 8,5 sm qalinlikdagi suv qatlamini hosil qilish uchun yo'lakka qancha vaqt davomida suv berish lozim?

**Yechish.** 8,5 sm qalinlikdagi suv qatlami 0,085 m. ga teng ekanligini inobatga olsak, u holda yo'lakka suv berish davomiyligi

$$t = m/K_0 \cdot v = 0,085 / 0,018 = 4,7 \text{ soatga teng.}$$

**Topshiriq.** Suv o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan tuproqlarda ( $\Delta = 0,12-0,08 \text{ m/soat}$  va  $a_{01} = 0,3$ ) 3,8 soat mobaynida berilishi mumkin bo'lgan suv miqdorini hisoblang.

3- AMALIY TAJRIBA MASHG'ULOTI SUV UZATISH VA  
**TAQSIMI ASH SHT ANGI A'RINT HISORI ASH**

Yer yuzasi (tuproq usti)dan sug'orish respublikamizda keng tarqalgan sug'orish usuli bo'lib, u bir qancha kamchiliklarga ega: suvdan va yerdan foydalanish koefitsientlari past, sug'orish yetarli darajada sifatli o'tkazilmaydi, suvchining ish unumdoorligi kam va boshqalar. Egatlarga suv taqsimlashda mexanizatsiya vositalaridan foydalanish qator afzalliklarga ega. Sug'oriladigan dalalarga suv uzatish va egatlarga suv taqsimlash uchun meliorativ matohdan tayyorlangan shlanglar (КОП-200, ППА-300, ППА-165У agregat- lari) dan keng foydalanilmoqda. Suv taqsimlash shlanglaridan foydalanish barcha egatlarga bir xil miqdorda suv taqsimlashga, yerdan foydalanish koefitsientini 6-7 % ga oshirishga olib keladi, shuningdek, o'qariq va beshamaklar olishga zaruriyat qolmaydi. Har bir agregat sug'orish mavsumida 80-100 ga maydonga xizmat ko'rsatadi.

Suv uzatuvchi shlanglardan foydalanish sharoitida unga bo'lган ehtiyojni aniqlash uchun uning suv o'tkazish qobiliyati, diametri, dalaning nishobligi kabi omillar hisobga olinishi kerak. Egiluvchan shlanglami hisoblashda sug'oriladigan dalaning suvga bo'lган ehtiyoji quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{ae} \sim a^* M$$

bu yerda  $Q_{ae}$  - sug'oriladigan dalaning suvga bo'lган ehtiyoji (netto), 1/sek;

a - sug'orish texnikasidan foydalanish xatosi (1,15-1,30);

$W_{ae}$  - sug'oriladigan dalaning maydoni, ga;

$q$  - hisobiy sug'orish gidromoduli, l/sek.-ga.

Suv uzatuvchi shlanglaming hisobiy suv sarfi ( $Q_n$ ) esa quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_n = \frac{W_{sm} m_m J \% 6}{W_{sut}} | -t, 1/sek, bu$$

yerda  $w_{sut}$  - bir sutkada sug'oriladigan maydon, ga:

$$W_{sut} = W_{lt},$$

bu yerda  $W$  - al mashlab ekishdagi asosiy ekinning maydoni, ga;

*t* - sug'orish davomiyligi, sut.

- sug'orish me'yoring eng katta qiymati, m<sup>3</sup>/ga.

Sug'orishlaming bir kunlik ko'lami esa sug'orish texnikasidan foydalanish xatosini hisobga olgan holda aniqlanadi:

$$iut \hat{t}r'86,4/ct^{*?7_{\max}}, ga.$$

Suv uzatuvchi shlangning suv sarfi qator oralariga ishlov beruv- chi traktoming smenalik unumdorligiga teng bo'lgan maydonni bir kunda sug'orishga imkon beradigan darajada bo'lishi lozim.

Dalaga bir vaqtda suv uzatuvchi shlanglar soni (*n*) almashlab ekish dasliga talab etilayotgan suv miqdori (g<sub>ae</sub>) ni suv uzatuvchi shlangning suv sarfi (*Q<sub>IT</sub>*) ga bo'lisch orqali hisoblanadi:

$$n=QJQa, dona.$$

Suv taqsimlash shlanggining suv sarfi (*Q<sub>A</sub>*) esa quyidagicha aniqlanadi:

$$g_st=(/_{sh}/a)-?e, 1/sek,$$

bu yerda *Z<sub>sh</sub>* - egiluvchan shlangning uzunligi, m; *a* - qator orasining kengligi, m; *q<sub>e</sub>* - egatga o'rtacha suv berish miqdori, m<sup>3</sup>/sek.

Suv uzatuvchi shlangdan bir vaqtda suv oldigan taqsimlash shlanglarining soni (TV) ulaming suv sarflari nisbati orqali aniqlanadi:

$$N=QJ Q_{st}, dona.$$

Suv taqsimlash shlanggining zaruriy diametri (*d*, m) esa quyidagicha aniqlanadi:

$$*=U3 \blacksquare j Q ./ v.,$$

bu yerda *v<sub>r</sub>* - shlangdagi suvning yo'l qo'yiladigan oqish tezligi (shlangning uzunligi 150 m bo'lsa 1 m/sek., 200 m - 1,5 m/sek. Suvning loyqaligi 1-1,5 g/1 bo'lsa v<sub>max</sub>= 2 1/sek.)

**1- masala.** Suv taqsimlash shlanggi meliorativ matohdan tayyorlangan bo'lib, uning uzunligi 200 m, egatning suv sarfi o'zgaruvchan (0,1 dan 0,2 1/sek. gacha), qator orasining kengligi 0,60

m. ga teng va suv har bir egatga taqsimlanayotgan bo'lsa, kerakli miqdordagi suvni yetkazib beruvchi shlangning talab etilayotgan diametrini aniqlang.

**Yechish.** Egatning suv sarfi  $q_e = 0,20 \text{ l/sek.}$  yoki  $0,0002 \text{ m}^3/\text{sek.}$  Suv taqsimlash shlanggining bosh qismidagi suv sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{shh} / a > tfe = (200/0,6) > 0,0002 = 0,070 \text{ m}^3/\text{sek.} = 70 \text{ l/sek.}$$

70 l/sek. miqdordagi suvni o'tkaza oluvchi taqsimlash shlanggining diametri suvning yo'l qo'yiladigan oqish tezligi ( $v_r = 1,5 \text{ m/sek.}$ ) ni hisobga oлган holda aniqlanadi:

$$\begin{aligned} d = l \cdot n^{-\frac{1}{2}} Q_s / v_r &= 1,13 \cdot V_0 \cdot 0,070 / 1,5 = 1,13 \cdot 0,216 = \\ &= 0,244 \text{ m} = 244 \text{ mm} \sim 250 \text{ mm.} \end{aligned}$$

Demak, suv taqsimlash shlanggining talab etilayotgan diametri 250 mm. ga teng qilib olinadi.

Suv taqsimlash shlanggida suvning oqish tezligini mo'tadil bo'lishi uchun uning zaruriy nishobligi ( $i$ ) ni ta'minlash lozim. U quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$i = |I2 - d| \cdot T J(A/3 - d - a_0/l),$$

bu yerda  $X$  - shlangning uzunligi bo'yicha ishqalanish qarshiligi koeffitsienti;

$d w a l$  - shlangning diametri va uzunligi, m;  
do- suvning tezlik bosimiga tuzatish koeffitsienti (1);

$V$  - shlangning bosh qismidagi suvning oqish tezligi (m/sek.):

$$v_x = QJ0,7 \cdot S \cdot d^2.$$

$X$  koeffitsient F. A. Sheveliev ifodasi yordamida hisoblanadi:

?i=0,25/i?\_s=0,226, bu yerda  $R_s$ - Reynolds soni:

$$R_s = v_0 \cdot r \cdot d / y,$$

bu yerda  $y$  - suvning kinematik yopishqoqlik koeffitsienti;

$v_0$ , - suv taqsimlash shlanggining o'rta qismida suvning oqish tezligi:

$$v_0 = \frac{V}{A} = \frac{Q}{\pi d^2} = \frac{0,050}{\pi \cdot 0,25^2} = 0,050 \text{ m/sec.}$$

**2- masala.** Agar suv taqsimlash shlanggining bosh qismidagi suv sarfi ( $Q_{st}$ )  $0,050 \text{ m}^3/\text{sek.}$ , diametri ( $d$ )  $0,25 \text{ m}$  va kinematik yopish- qoqlik koeffitsienti ( $y$ )  $0,000\ 001$  ga teng bo'lsa, shlangning qulay nishobligini aniqlang.

**Yechish.** Dastlab shlangning bosh qismidagi suvning oqish tezligi aniqlanadi:

$$V_i = Q_{st}/(A \cdot y) = 0,050 / (0,25 \cdot 0,000\ 001) = 0,02 \text{ m/sec.}$$

So'ngra shlangning o'rta qismidagi suvning oqish tezligi ( $v_{o_r}$ ) aniqlanadi:

$$v_{o_r} = V_i / 2 = 0,02 / 2 = 0,01 \text{ m/sec.}$$

Ushbu ma'lumotlar asosida Reynolds soni aniqlanadi:  $R_s$ :

$$R_s = \frac{d v_{o_r}}{\nu} = \frac{0,25 \cdot 0,01}{15 \cdot 10^{-6}} = 12\ 500.$$

Silliq quvur uchun ishqalanish qarshilik koeffitsienti quyidagiga teng:

$$A_s = \frac{d^2}{4} = \frac{0,25^2}{4} = 0,03125 \text{ m}^2.$$

Shlanglar uchun bu koeffitsient 3 marotaba ko'p bo'lganligidan  $X_s = 3 \cdot A_s = 3 \cdot 0,03125 = 0,09375 \text{ m}^2$

$$0,09375 / 0,02 = 4,6875 \text{ ga teng.}$$

Ushbu ma'lumotlar bo'yicha shlanglarning bo'yamasi bo'yicha zaruriy nishobligi hisoblanadi:

$$\frac{A_s}{d} = \frac{0,09375}{0,25} = 0,375 \text{ ga teng.}$$

Demak, shlangda suvning kerakli oqish tezligini ta'minlash uchun uning nishobligi  $0,0034 \text{ ga teng}$  bo'lishi kerak.

Suv taqsimlash shlanggidan egatlarga beriladigan suv miqdori undagi suv chiqargich klapan (teshikcha) laming diametriga bog'liq bo'lib, uning zaruriy diametri ( $d_0$ ) quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$d = I \cdot \frac{\dots}{\dots}^m >$$

bu yerda  $q_a$  - egatning suv sarfi,  $m^3/\text{sek}$ ;  $p$  - suv sarfi koeffitsienti;  $h$  - egatning suv sarfi o'rtacha bo'lganda shlangdagi suvning teshikchalar markazi bo'yicha p'yezometrik bosimi ( $h=2,8-d$ ), m;  
3,48-doimiy son.

**3- masala.** Egatning o'rtacha suv sarfi 1,5 1/sek. ga, suv sarfi koeffitsienti ( $|_i$ ) 0,60 ga va suvning shlangdagi p'yezometrik bosimi ( $h$ ) 0,7 (2,8-d=2,8-0,25) m. ga teng bo'lsa, suv chiqargich teshikcha- ning diametrini aniqlang.

**Yechish.** Suv chiqargich teshikchaning zaruriy diametri

$$d_0 = \sqrt{\frac{0,00015}{3,48 \cdot 0,6 \sqrt{0,7}}} = 0,0093 \text{ m yoki } 9,3 \text{ mm. ga teng.}$$

**1- topshiriq.** Suv taqsimlash shlanggining uzunligi 250 m, egatga suv taqsimlash miqdori 0,2-0,3 1/sek. va qator orasining kengligi 0,9 m bo'lsa, shlangning uzunligi bo'yicha barcha egatlarga suv taqsimlash uchun zarur bo'lgan miqdordagi suvni o'tkazish imkoniga ega bo'lgan uning diametrini aniqlang.

**2- topshiriq.** Egiluvchan shlangning suv sarfi  $0,070 \text{ m}^3/\text{sek.}$ , diametri 0,30 m, kinematik yopishqoqlik koeffitsienti 0,000 001 ga teng bo'lsa, shlangni loyqa bosmasligi uchun undagi suvning mo'tadil oqish tezligini ta'minlovchi nishoblikni aniqlang.

**3- topshiriq.** Egatning suv sarfi ( $q_e$ ) 1,2 1/sek., suv sarfi koeffitsienti ( $\mu$ ) 0,60 ga va suvning p'yezometrik bosimi ( $h$ ) 0,65 ga teng bo'lsa, suv chiqargich teshikchalaming zaruriy diametrini aniqlang.

Takrorlash uchun savollar:

1. Egartlab sug'orish texnikasining texnik jihatdan tasniflang.
2. Yo'laklab bostirib sug'orish texnikasi va uning afzallik hamda kamchiliklarini ko'rsating.
3. Chek olib bostirib sug'orish texnikasi elementlarini bayon eting.
4. Suv taxsimlashni mexanizatsiyalash vositalarini ko'rsating.
5. Yer sathidan sug'orish texnikasiga texnik-ixtisodiy baho bering.

## 6. EKINLARNI YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMI


**Yomg'irlatib sug'orish** deyilganda maxsus mashina, qurilma va agregatlar yordamida suvni tuproq sathi va o'simlikka sun'iy yomg'ir shaklida yetkazib berish tushuniladi. Bunday sug'orish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Insoniyatning sug'orib dehqonchilik qilishni rivojlantirish va sug'orishni takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlari yomg'irlatib sug'orish usulini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Dastlabki yomg'irlatib sug'orish Rossiyada 1875 yil A. I. Aristov tomonidan qo'llanil-di. Keyinchalik, ya'ni XIX asming oxirlarida Amerika, Germaniya, Angliya, Fransiya va boshqa davlatlarda qo'llanila boshlandi.

Yomg<sup>1</sup> irlatib sug'orish usulini ilmiy o'rganish bo'yicha dastlabki tadqiqot ishlari sobiq Butunitifoq gidrotexnika va melioratsiya ITI tomonidan 1935 yildan boshlab amalga oshirila boshlandi. Markaziy Osiyoda (Qozog'istondagi Paxtaorol xo'jaligi) 1932-1934 yillarda ushbu sug'orish usulini qo'llashga doir birinchi tajribalar o'tkazildi. 1937-1940 yillarda injener M. S. Yanshin konstruksiyasidagi uzoqqa otar yomg'irlatish agregati (ДДА - hozirgi ДДА-100МА ning o'tmishdoshi), yaqinga otar yomg'irlatish qurilmasi (КДУ), ikkinchi jahon urushidan keyin esa elektralashhtirilgan yomg'irlatish agregati - ЭДДА (Moshanskiy, Stepanov va b.) yaratildi.

Yomg'irlatib sug'orish boshqa sug'orish usullariga qaraganda quyidagi afzallikkarga ega: sug'orish me'yorini keraklicha kamaytirish yoki ko'paytirish orqali tuproqning namiqish chuqurligini o'zgartirish, havoning yerga yaqin qatlaming nisbiy namligini oshirish va haroratini pasaytirish, suvni dala bo'ylab bir tekisda taqsimlash mumkinchiligi, yerlami juda tekis bo'lishiga qat'iy talab qo'yilmasligi,sovuv urishiga qarshi samarali tadbir va suv resurslari taqchil rayonlarda tejamli usul ekanligi, sug'orish egatlari va muvaqqat ariqlar qurishga hojat yo'qligi, mineral o'g'itlami ham erigan holda suv bilan birga uzatish imkoniyatining mavjudligi va boshqalar. Yomg<sup>1</sup> irlatib sug'orishda yer yuzasidan sugarishga nisbatan suvdan foydalanish koeffitsienti 25-30 foizga, yerdan foydalanish koeffitsienti 3-5 foizga ortadi. Shuningdek, ayrim yomg'irlatib sug'orish mashinalarini qo'shimcha jihozlash yo'li bilan

ekinlami egatlab sug'orishga moslashtirish mumkinchiligi mavjud (25- rasm).



25- rasm. G'o'zani egatlab sug'orishda «Кубань» yomg'irlatib sug'orish mashinasidan foydalanish.

Yomg'irlatib sug'orishning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- a) mevali bog'lami tanasi tepasidan yomg'irlatish daraxtlaming o'sishini yaxshilab, hosildorlikni ortishini ta'minlaydi, ammo barg-lardagi pestitsidlami yuvilishiga olib keladi;
- b) mevali bog'lami tanasi tagini yomg'irlatish hosildorlikni ortishi va suvning bug'lanishga sarfini kamayishiga olib keladi;
- v) sovuq urishiga qarshi yomg'irlatish o'simliklami to'satdan bo'ladigan sovuq urishidan muhofaza qilishda qo'llaniladi. Bevosita to'g'ridan-to'g'ri, oldini olish va bevosita sovuq urishiga qarshi kurashlar qo'llaniladi;
- g) impulsli yomg'irlatish tez-tez sug'orishlar o'tkazish evaziga mikroiqlimni yaxshilash tadbiri bo'Mib, yerga yaqin havoning nisbiy namligini 70-80% atrofida tutib turishga va haroratini 2-3 °C ga kamaytirishga imkon beradi.
- e) dala ekinlari ekinzor uzra yomg'irlatib sug'oriladi.

0'zbekiston PITI ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ДДА-100М agregat bilan yomg'irlatib sug'orish usulida paxta hosili 2-3 s/ga oshgan va suv sarfi 50-60 foizga qisqargan, ish unumdorligi 4—5 ga. ni tashkil etgan (Sattorov M. F., 1967). 20-jadvalda g'o'zani egatlab va yomg'irlatib sug'orish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari umumlashtirilgan bo'lib, unda yomg'irlatib sug'orish bir qancha afzalliklarga ega ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi.

20- *jadval*

**G'o'zani yomg'irlatib va egatlab sug'orishlarning samaradorligi  
(Kigay S. ma'lumoti)**

Sug'orish usuli	Mavsumiy sug'orish me'yori, m <sup>3</sup> /ga	Sug'orish me'yori, m <sup>3</sup> /ga	Hosil, s/ga	Suvga ehtiyoj koeffitsienti, m <sup>3</sup> /ga
Egatlab	3317	829	26,5	125,2
Yomg'irlatib	1370	342	29,5	58,6

Mashina va qurilmalar uchun metalining ko'p talab etilishi, katta sug'orish me'yorlarida ish unumdorligining pastligi, kuchli shamol sharoitida suvni tekis taqsimlanmay, bug'lanishga ko'p isrof bo'lishi, sug'orish texnologiyasining murakkabligi, sho'rangan yerlarda ular- dan foydalananishning cheklanganligi yomg'irlatib sug'orish usulining asosiy kamchiliklari bo'lib hisoblanadi. Yomg'irlatish jadalligi kuchli bo'lganda tuproq yuza qatlaming strukturasi buzilib, tuproq zichlanib ketadi, qatqaloq paydo bo'ladi.

#### 6.1. YOMG'IRLATIB SUG'ORISHNING SIFAT TAVSIFI

Yomg'irlatib sug'orish sifatini *yomg'irlatish jadalligi, yomg'ir tomchisining o'Ichami, sug'oriladigan dala bo'yichayomg'irning bir tekisda taqsimlanishi* kabi ko'rsatkichlar - sun'iy hosil qilinadigan yomg'ir tavsiyi belgilaydi. Yomg'irlatib sug'orish jarayonida tuproqning qulay suv rejimini ta'minlanishi tuproq strukturasining buzil- masligi, o'simlik organlarining shikastlanmasligi, tuproq ustida ko'lkob va suv oqimi vujudga kelmasligi sug'orishni sifatlari o'tkazilganligini ko'rsatadi.

O'rtacha va yo'l qo'yiladigan yomg'irlatish jadalliklari o'zaro farqlanadi. *O'rtacha yomg'irlatish jadalligi* ma'lum bir maydonga tushgan yog'in miqdorini (mm) uning tushish vaqtiga nisbatli orqali aniqlanadi. Ushbu parametr tuproqning suv o'tkazish qobiliyatiga

ko'ra yomg'irlatish mashina yoki agregatini tanlashda inobatga olinadi. Tuproq ustida ko'lkob yoki suv oqimi paydo bo'la boshlashi yomg'irlatish davomiyligini cheklaydi. ***Yo'l qo'yiladigan yomg'irlatish jadalligi*** tuproq ustida ko'lkob yoki suv oqimi paydo qilmas- dan, belgilangan sug'orish me'yorinidan minlanadigan jadallik bo'lib, u tuproq sharoitlari, joyning nishobligi va ekinlar qoplamiga bog'liq holda turlicha miqdorlarda bo'ladi (21-jadval).

21- *jadvaj*

**Ekinlarni yomg'irlatib sug'orishning yo'l qo'yiladigan jadalligi, mm/min.**

Tuproqlar	Nishoblik			
	0-0,05	0,05-0,08	0,08-0,12	>0,12
Qumloq	0,85	0,85	0,64	0,42
Yengil qumoq	0,74	0,53	0,42	0,32
O'rtacha qumoq	0,42	0,34	0,25	0,17
Og'ir qumoq va soz	0,09	0,07	0,05	0,04

***Yomg'ir tomchisining o'lchami*** yo'l qo'yiladigan yomg'irlatish jadalligi, suvning bug'lanishga isrof bo'lishi, tuproqning zichlanishi, sug'orish me'yorining tuproq usti oqimi paydo bo'lgunicha yo'l qo'yarli miqdoriga ta'sir etuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Masalan, suv tomchisining diametri 1,0-1,5 mm va yomg'irlatish jadalligi 0,5 mm/min. bo'lganda sug'orish me'yorining yo'l qo'yiladigan miqdori 130-700 m<sup>3</sup>/ga, 2,0 mm bo'lganda esa 50-190 m<sup>3</sup>/ga. ga teng bo'ladi. Yomg'irlatish apparatidan suv erkin oqimda tushganda turli o'lchamdagagi tomchilar hosil bo'ladi, oqim tezligi qanchalik katta bo'lsa, suv shunchalik ko'p mayda tomchilar hosil qiladi. O'simlik va tuproqqa qulay hisoblangan suv tomchisining diametri 0,4-0,9 mm. ni tashkil etadi.

Sun'iy yomg'irlatish sifatining asosiy ko'rsatkichi bu sug'oriladigan dala bo'ylab ***yomg'irning bir tekisda taqsimlanishi*** bo'lib, u samarali sug'orish va yetaricha sug'orilmaganlik koeffitsientlari orqali aniqlanadi. ***Samarali sug'orish koeffitsienti*** sug'orilgan may- donning qancha qismi yo'l qo'yarli jadallikda sug'orilganligini ko'rsatadi. Yomg'irlatib sug'orish mashinalari va qurilmalariga qo'yilgan agrotexnik talablarga ko'ra bu ko'rsatkich 0,7 dan kam bo'lmasligi lozim. Yetaricha sug'orilmaganlik koeffitsienti esa

dalaning qanday qismi yo'l qo'yiladigan me'yordan kichik miqdorda sug'orilganligini ko'rsatadi. Uni 0,15 dan kichik bo'lishi talab eti- ladi.

#### **6.2. YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TURLARI**

Yomg'irlatish muddati va tavsifiga hamda tuproq va o'simliklar- ga ta'sir etishiga ko'ra odatdag'i va impulsli yomg'irlatib sug'orishlar farqlanadi.

Odatdag'i yomg'irlatib sug'orishda tuproqning 0,5-0,6 m. li hisobiy qatlamida qulay suv zaxirasi hosil qilish va yerga yaqin havo qatlami mikroiqlimini yaxshilash maqsadida ekinlar 6-12 kun oralatib sug'orib turiladi. Ispulslı yomg'irlatib sug'orishda havo namligi taqchilligini kamaytirish maqsadida ekinlar har kuni harorat eng yuqori bo'lgan vaqtida (soat 12 dan 15 gacha) sug'orib turiladi.

#### **6.3. YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMLARI**

Hozirgi kunda tabiiy va tashkiliy-xo'jalik sharoitlarga bog'liq holda *ko'chmas, yarim ko 'chma* va *ko 'chma yomg 'irlatib sug 'orish tizimlari* qo'llanilib kelinmoqda.

**Ko'chmas yomg'irlatib sug'orish tizimlari** magistral, taqsimlash va sug'orish quvurlari, suv taqsimlash quduqlari, yomg'irlatish apparatlari o'matilgan gidrantlar va nasos stansiyalaridan iborat.

Yomg'irlatish apparatlarining suv sarfi sekundiga 1-80 l. ni tashkil etadi. Ushbu tizimni barpo etish uchun asosiy xarajatlar ko'p talab etiladi.

**Yarim ko'chma yomg'irlatib sug'orish tizimlari** keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda. U ko'chmas sug'orish quvurlari yoki kanallar va nasos stansiyalaridan, ko'chma yomg'irlatib sug'orish mashinalari, agregatlar va qurilmalaridan iborat. Bunday tizimlarda ko'p tayanchli aylanma va ko'ndalang harakat qiluvchi mashinalar, ikki qanotli mashinalar, yomg'irlatgich shleyflar, o'rtacha otar yomg'irlatgich qurilmalaridan foydalaniladi.

**Ko'chma yomg'irlatib sug'orish tizimlari** nisbatan kichik uchastkalarni sug'orishda qo'llaniladi.

Bunda tizim elementlarining barchasi bir joydan ikinchi joyga to'liq ko'chirilib yuriladi. Oson qismlarga ajraladigan alyumin quvur va o'rtacha otar yomg'irlatgich apparatli qurilmalardan foydalaniladi.

#### **6.4. YOMG'IRLATGICH APPARATLARNING TURLARI**

Zamonaviy yomg'irlatgich apparatlari yomg'ir tomchisini uchib borish uzoqligiga ko'ra **yaqinga otar, o'rtacha otar va uzoqqa otar turlariga** bo'lindi. Yaqinga otar turlariga 0,05-0,2 mPa bosimda ishlaydigan va suvni 4-8 m masofaga otadigan uchlik (nasadka) lar kiradi. O'rtacha otar apparatlar 0,1-0,4 mPa bosimda ishlaydi, ulaming suv sarfi 5 l/sek. va faoliyat radiusi 15-35 m. ga teng. Uzoqqa otar apparatlar esa 0,4 mPa dan ortiq bosimda ishlaydi, suv sarfi 5 l/sek. va undan ko'p, suvni otish masofasi 35-100 m va undan ortiq (22- jadval).

22- *jadval*

##### **Yomg'irlatgich apparatlarining texnik tasnifi**

Apparatlar	Suv sarfi, l/sek.	Yomg'irlatish jadalligi, mm/min.	Sug'orish maydoni, m <sup>2</sup>	Ta'sir radiusi, m	Og'irligi, kg
ДЦ-80	55-85	0,3-0,64	10540-11310	57-60	28
ДЦ-50	38-55	0,39-0,43	6082-9852	44-70	27
ДЦ-30	16-30	0,15-0,25	5027-11310	40-60	16
Poca-1	0,5-1,25	0,112-0,284	531-1385	13-21	0,6
Poca-2	1-3,4	0,183-0,243	707-2463	15-28	1,4
Poca-3	2,5-9,5	0,157-0,292	1662-3848	23-35	1,6

#### **6.5. YOMG'IRLATIB SUG'ORISH MASHINALARI VA AGREGATLARI**


**Yaqinga otar yomg'ir!atib sug'orish apparatlari** sirasiga ДТ- 75М, Т-4, Т-150 traktorlariga o'matilib ishlatiladigan ikki konsolli yomg'irlatish aggregatlari ДДА-100М ва ДДА-100МА kiradi (26- rasm). Har bir qanotida 34 tadan metal g'ildiraklar, suv sarfi 0,9-1 l/sek. dan bo'lgan 32 tadan o'rtacha otar yomg'irlatgich apparatlar o'matilgan, qanotlarining o'ttasida «Дружба-96» dvigateli bilan ta'minlangan telejka bo'lib, mashina ulaming yordamida 9 m/min. tezlikda harakatga keladi.

Ular joyning nishobligi 0,003 dan katta bo'limgan yerlarda texnik, sabzavot, poliz, yem-xashak va donli ekinlami sug'orishda keng qo'llaniladi. ДДА-100М aggregatining suv sarfi 100 l/sek. ДДА- 100МА aggregatiniki esa 130 l/sek. ga teng (23- jadval). Agregat suvni ochiq tarmoqdan 8K-12 nasosi yordamida oladi. Ochiq tarmoqlar aggregatning qamrash kengligi - 120 m masofada quriladi.

Ayrim yong'irlatish sug'orish mashina va agregatlarining texnik tafsifi


Mashina va agregatlar nusumi	Suv sarfi, l/sek.	Yong'irlatish jadalligi, mm/min.	Bir o'tishda yong'ir qatlami qalinligi, mm	Qamrash kengligi, m	Ish umum-dorligi, ga/soat	Xizmat ko'stish maydoni, ga
Кубань-М	180	1,1	5,5	800	1,02	170-190
Кубань-Л	200	1,3	7,9	800	1,2	190-210
Волжанка (ДКИЛ-64)	64	0,27	—	800	0,385	60-70
Фрегат (ДМУ-Б42-90)	90	0,25	19,4	556	—	102,2
Днепр (ДФ-120)	120	0,3	—	460	0,71	110-130
ДЦА-100/МА	130	—	5	120	0,78	120-140
ДЦН-100 (ДТ-75М)	85	0,3	—	75	0,51	80-90
ДЦН-70	65	0,22	—	69,5	0,39	60-70
ДЦ-25/300	25	0,13	—	60	0,12	25
КМ-50А	47,2	0,28	—	576	0,29	50
ДЦ-10	12,8	—	39-93	50	0,11	10

Sug'orish me'yori aggregatning dalada bir necha marotaba oldinga va orqaga yurishi orqali ta'minlanadi. Yomg'irlatib sug'orishda ish vaqtidan foydalanish koefitsienti 0,7-0,8 ga teng. Agregatga 1-2 ishchi xizmat ko'rsatadi.



26- rasm. DDA-100MA yomg'irlatib sug'orish mashinasi.

**0'rtacha otar yomg'irlatib sug'orish mashina va qurilmalari.** ДКШ-64 «Волжанка» g'ildirakli yomg'irlatish quvurlarining uzunligi 395,6 m va diametri 130 mm. ga teng bo'lib, mustaqil ishlovchi ikki qanotdan iborat (27- rasm).




21-rasm. ДКШ-64 «Волжанка» yomg'irlatib sug'orish mashinasi.

Mashina yopiq tarmoqdan gidrantlar yordamida suv oladi. Dalada ko'ndalang harakat qiladi. Ish pozitsiyalari oralig'i 18 m, suv ot- ish uzoqligi 17-18 m. Nishobligi 0,02 dan katta bo'limgan yerlarda qo'llaniladi.

**ДМУ «Фрегат»** mashinasi «A» shaklidagi ko'p tayanchga ega bo'lib, yopiq tarmoqqa ulangan qo'zg'almas gidrant atrofida aylanma harakat qilib, asosan, yoppasiga ekilgan yem-xashak ekinlarini sug'orishda qo'llaniladi. Suv uzatish quvuriga 38-50 ta o'rtacha otar yomg'irlatish apparatlari o'rnatilgan. Yomg'irlatish jadalligi 0,2-0,32 mm/min. Mashinaning ish unumdorligi quvuming uzunligi va sug'orish me'yori miqdoriga bog'liq bo'lib, belgilangan sug'orish me'yori mashinaning harakat tezligini o'zgartirish orqali ta'minlanadi. Mashina mineral o'g'itlami aralashtirish va uzatish qurilmasi bilan jihozlangan. Mashinaning smenadagi ish unumdorligi

4,5- 5,0 ga, mavsumda 84-144 ga maydonga xizmat qiladi(28- rasm).



28- rasm. Ko'p tayanchli yomg'irlatib sug'orish mashinasi.

**ДФ-120 «Днепр» ko'p tayanchli o'rtacha otar yomg'irlatib sug'orish mashinasi** yopiq tarmoqqa o'matilgan gidrantga telesko-pik shamir yordamida ulanadigan quvur orqali suv olib, nishobligi 0,02 dan katta bo'limgan yerlarda texnik, donli, sabzavot, yem-xashak va poliz ekinlarini sug'orishda qo'llaniladi. Suv uzatuvchi

quvur 24 ta tayanch telejkalarga o‘matilgan. Quvur 34 ta «Poca-3» yomg‘irlatgich apparatlari va 35 ta giderant bilan ta‘minlangan. 0,47 km/soat tezlikdagi harakat ko‘chma DP-11000 elektr stansiyasidan ishlovchi motor-reduktor yordamida amalga oshiriladi. Mashinaning ish faoliyati «Волжанка» niki kabitdir. Yomg‘irlatish qamrovi 460 m va kengligi 27 m. Mashinaga bir ishchi xizmat ko‘rsatadi.

**«Радуга» (КИ-50) irrigatsiya komplekti** murakkab relyefli yerlarda texnik, sabzavot va yem-xashak ekinlarini sug‘orish uchun moijallangan; ko‘chma nasos stansiyasi, ko‘chma yomg‘irlatish qurilmasi va ГФП-50 o‘g‘it aralashtirgich moslamasi bilan ta‘minlangan. Yomg‘irlatish qurilmasi uchta giderantga ega. Magistral quvur, ikkita taqsimlash quvuri va «Poca-3» o‘rtacha otar yomg‘irlatgich o‘matilgan to‘rtta qanotdan iborat. Qurilmaga 2-3 kishi xizmat ko‘rsatadi.


**Z-50JS, «Zigma» yomg‘irlatish jihozlari** nishobligi 0,1 gacha boigan yerlarda bo‘yi 90 sm. gacha bo‘lgan ekinlami sug‘orish uchun mo‘ljallangan. Ko‘chma nasos stansiyasi, magistral quvur va avtomat holda ishlovchi yomg‘irlatgich apparatlari o‘matilgan yettita quvurdan iborat. Magistral quvur 120 va 150 mm diametrdagi 6 m. li alyumin quvurlardan iborat bo‘lgan 942 m umumiy uzunlikka ega. 12° gacha bo‘lgan qiyaliklarda ishlashi ko‘zda tutilgan. Suv sarfi 39,2 l/sek., yomg‘irlatish jadalligi 0,12-0,28 mm/min., yomg‘irlatish apparatinining qamrov radiusi 18 m. Smenadagi ish unumдорлиги 4 ga, mavsumda 50 ga maydonga xizmat ko‘rsatadi.

**ДШ-25/300** yomg‘irlatish shleyfi ko‘ndalang va bo‘ylama nishobliklari tegishlichcha 0,07 va 0,05 gacha bo‘lgan yerlarda dala ekinlari va bog‘lami sug‘orish uchun mo‘ljallangan. U 102 mm diametrli va 150 m uzunlikdagi poiat quvur hamda unga bir-biridan 50 m masofada o‘matilgan uchta КД-10 yomg‘irlatgich apparatidan iborat.

Suv shleyfga 300 m oraliqda joylashtirilgan quvurlar yordamida 50 m bosimda uzatiladi. Shleyf bir joydan ikkinchi joyga traktorlar yordamida ko‘chiriladi. 5-10 ta shleyfga bir traktorchi va bir ishchi xizmat ko‘rsatadi.

Uzoqqa otar yomg‘irlatib sug‘orish apparatlari sirasiga ДДН- 70, ДДН- 100 mashinalari kiradi (29- rasm). Ular texnik, donli va sabzavot ekinlarini, shuningdek, bog‘ va yaylovlami sug‘orish uchun mo‘ljallangan. Dalada bir-biridan 100-120 m oraliqda qurilgan ochiq

tarmoqdan suv olib ishlaydi. Mashinalar osma rama, kardan vali, bir bosqichli silindrik reduktor, konsolli nasos, uzoqqa otar yomg'ir- latgich apparatlari va uni sektor bo'yicha yoki to'liq aylantirish qurilmasi, o'g'it aralashtirgich baki bilan ta'minlangan bo'lib, ДТ-75М, Т-4А, Т-150 traktorlariga o'matilgan holda ishlatiladi. Ish holati bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yurish orqali ta'minlanadi. Suv bosimi ДНН-70 uchun 52 m va ДНИ-100 uchun 65 m, suv sarfi tegishli ravishda 65 va 100 l/sek.



**29- rasm. ДНН-100 uzoqqa otar yomg'irlatib sug'orish mashinasি:**

- 1 - traktoming osma tizimi tortqisi; 2 - rama; 3 - suvni so'ruchchi liniya; 4 - yomg'irlatgich apparatini harakatlantruvchi mexanizm; 5 - yomg'irlatgich apparat;
- 6 - o'g'it aralashtirgich; 7 - ejektorli qurilma.

ДНН-70 mashinasi suvni 70 m va ДНН-100 esa 80-85 m uzoqlikka otdadi. Ulaming foydali ish koeffitsientlari 0,8 ga teng. Mashinalarga bir ishchi xizmat ko'rsatadi.


#### **6.6. IMPULSLI YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMI**

**Impulsliyomg'irlatib sug'orish** tizimi yomg'irlatib sug'orishning istiqbolli yo'nalishi bo'lib, bunda suv turli konstruksiyadagi maxsus yomg'irlatgichlar yordamida bo'lib-bo'lib, kichik miqdorlarda taqsimlanadi. Bu usul bilan nishobligi 0,05 dan 0,3 gacha bo'lgan murakkab relyefli yerlarda rezavor mevali bog'lar, texnik, sabzavot va yem-xashak ekinlari sug'oriladi. Markaziy Osiyoning qurg'oqchil sharoitida undan yuqori samarada foydalanish imkoniyatlari katta.

Sinxron impulsli yomg'irlatish tizimi suv olish inshooti, nasos stansiyasi, aloqa liniyalar, sug'orish tarmog'i, impulsli yomg'irlatich apparatlari, sug'orishni avtomatlashtirilgan holda boshqarish tizimi, nazorat o'lchov asboblari bilan ta'minlangan. Mazkur sug'orish usulida quvurlar diametri kichiklashtirilganligi sababli odatdagi yomg'irlatib sug'orish mashinalari va agregatlariga qaraganda kam metall talab etiladi, tuproqni ustki va havoni yerga yaqin qatlaming mikroiqlimi doimiy qulay holda ta'minlanib turiladi.

Ushbu tizim sirasiga КСИД-10А **sinxron-impulslı yomg'irlatib sug'orish komplekti** kiradi (30- rasm). Komplekt 10 ga. li modul uchastkalarga moslab loyihalashtiriladi. Uning tarkibiga 20, 25, 32, 50, 70, 80 va 100 mm diametrдagi po'lat quvurlar, ДИ-15 impulsli yomg'irlatgich, buyruq signallari generatori, CHC nasoslari, rostlash armaturalari, nazorat-o'lchov jihozlari, boshqarish pulti, ГПД-50 o'g'it aralashtirgich, avariyanadan himoya qilish tizimi kiradi.

КСИД-10А komplektining suv sarfi 12 1/sek., yomg'irlatish jadalligi 0,007 mm/min., 600 m<sup>3</sup>/ga me'yorida ish unumdorligi 0,008 ga/soat, yomg'irlatgich apparatlarining soni 59 ta, umumiy og'irligi 121. ni tashkil etadi.



30- rasm. Bedani sinxron-impulslı yomg'irlatib sug'orish komplekti (КСИД-10А) bilan sug'orish.

Aerozol sug'orish (ayrim adabiyotlarda *mayda dispers yomg'irlatish* yoki *tuman holida sug'orish* deb yuritiladi) sug'orishning nisbatan yangi usuli bo'lib, qishloq xo'jaligi ekinlari uchun qulay mikroiqlimni vujudga keltiradi. Aerozol sug'orishda havoning yerga yaqin qatlamining nisbiy namligi oshiriladi, o'simlik yer ustki organlarining harorati 6-12 gradusga pasaytiriladi. Bunday sug'orish kunning eng issiq vaqtida har bir-ikki soatda qayta-qayta o'tkazilib turiladi. Bir marta sug'orishda gektar hisobiga  $0,8\text{-}1 \text{ m}^3$  suv beriladi. Aerozol sug'orishda maxsus qurilmalar yordamida suv diametri 400- 600 mmk bo'lgan juda mayda tomchilarga aylantiriladi. Quruq havo va issiq shamollar bo'lib turadigan rayonlar, tupoq namligi ortiqcha bo'lgan sharoitlarda bog', rezavor mevalar va sabzavot, yem-xashak, texnik ekinlami sug'orishda bu usuldan tez-tez yoki uzlusiz foydalanish yuqori samara beradi.

Suv gidrodinamik, gidromexanik va pnevmogidrodinamik usul- larda tuman holiga keltiriladi. Aerozol sug'orishda ko'chmas va ko'chma tizimlardan foydalilanildi. Ulaming ishchi organlari yomg'irlatgich yoki uchlik (nasadka) tipida bo'ladi. «Радуга» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan ishlab chiqarilgan mayda dispers yomg'irlatgich ko'chmas tizinr sekundiga 0,08—0,11 1 suvni tumanga aylantirib, 1 ga maydonga 0,48-0,66 1/sek. jadallikda uzatadi. Shamol tezligi 3-6 m/sek. bo'lganda yomg'irlatish jadalligi o'rtacha 0,06 mm/sek. ni tashkil etadi. Bitta suvchi-operator 100 ga maydonga xizmat ko'rsatadi. Tizim quvurlarining diametri 42 mm, umumiy uzunligi gektariga 300 m.

Shuningdek, sobiq Butunitifoq gidrotexnika va melioratsiya ITI konstruksiyasidagi МДД-ТОУ-7, ДДА-100МА agregatiga o'matila- digan qurilmalardan foydalanimoqda.

Tuman hosil qiluvchi forsunkalar sifatida havo purkagich, rostla- nuvchi deflektorli purkagich, aylanuvchi diskli purkagich, vixr kamerali markazdan ochirma forsunkalar ishlatalidi.

Aerozol sug'orish o'simliklar fotosintezining yaxshilanishini, hosildorlikning ko'payishini, yetishtirilayotgan mahsulot sifatini ortishi hamda suv sarflni 40-50 foizgacha kamaytirishni ta'minlaydi.

**4- AMALIY TAJRIBA MASHG'ULOTI**  
**YOMG 'IRLATIB SUG'ORISH TEXNIKASI ELEMENTLARINI HISOBBLASH**

Yomg'irlatib sug'orish qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishning istiqbolli usuli hisoblanib, sug'orish jarayonini to'liq mexanizatsi- yalashga va suvdan tejamlı foydalanishga imkon beradi.

Yomg'irlatib sug'orishda havo harorati 3-4 °C pasayib, nisbiy namligi 15% dan 40% gacha ortadi hamda uning ta'siri 3-4 kunga- cha saqlanadi. Har gektar maydonga suv sarfi egatlab sug'orishga qaraganda 2,0-2,5 marta kamayadi, yerdan foydalanish koeffitsienti

3- 5% ga va hosildorlik esa o'rtacha 15-20% ga ortadi.

Yomg'irlatib sug'orishning sifatli o'tkazilishi sug'orish texnikasi elementlarini qay darajada to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Bu yerda asosiy omillardan bo'lib yomg'irlatish jadalligi, yomg'ir tomchisining o'lchami va uni dala bo'yicha bir tekisda taqsimplanishi hisoblanadi.

Yomg'irlatish jadalligi o'rtacha ( $P_{o-n}$ ) 0,004-0,1 mm/min. ni tashkil qiladi, kuchli bo'lganda esa 2-10 mm/min. va ba'zan undan ham ko'proq bo'ladi. Har qaysi sharoitda sun'iy yomg'imining tushish jadalligi uni tuproqqa singish jadalligidan kam bo'lishi lozim va bu esa tuproqni sifatli namiqishini ta'minlaydi. Yomg'irlatish jadalligini og'ir tuproqlar sharoitida 0,1-0,2 mm/min., o'rtacha tuproqlarda - 0,2-0,3 mm/min. va yengil tuproqlar sharoitida 0,5-0,8 mm/min. dan ko'p bo'lmasligi talab etiladi.

Yomg'irlatish jadalligi ( $P_{o-n}$  mm/min.) quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$P_o n = 60 \cdot Q / F,$$

bu yerda  $Q$  - yomg'irlatish mashinasining suv sarfi, 1/sek.;  
 $F$  - yomg'irlatilayotgan maydon,  $m^2$ .

«Ферат» yomg'irlatib sug'orish mashinasi bo'yicha yomg'ir- ning o'rtacha tushish jadalligi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$P_{o-n} = 60 \cdot Q / t^{1/2},$$

bu yerda  $P_{o-n}$  - yomg'imining o'rtacha tushish jadalligi, mm/min.;  
 $Q$  - bitta yomg'irlatish apparatining suv sarfi, 1/sek.;

*n* - doimiy son (3,14);

*I*- oqimning yetib borish masofasi, m.

**1- masala.** Agar bitta apparatning suv sarfi 1 l/sek., suv oqimi- ning yetib borish masofasi 17 m bo'lsa, yomg'irlatish jadalligini aniqlang.

$$\text{Yechish. } P_{\&rt} = 60 \cdot Q/n \cdot I^2 = 60 \cdot 1,0 \cdot 3,14 \cdot 17^2 = 0,202 \text{ mm/min.}$$

**Topshiriq.** 24- jadval ma'lumotlari asosida «Ферат» yomg'ir- latib sug'orish mashinasi ishlatalayotganda yomg'irlatish jadalligini hisoblang.

*24-jadval*

#### Yomg'irlatish jadalligini aniqlashga doir ma'lumotlar

T. p-	Ko'satkichlar	Masala nomeri		
		1	2	3
1.	Bitta apparatning suv sarfi (0, 1/sek.)	1Д	1,0	0,85
2.	Suv oqimining yetib borish masofasi (/), m.	16	15	14
3.	0'rtacha yomg'irlatish jadalligi ( $P_{0-n}$ ), mm/min.			

Agrotexnik talablarga ko'ra 90% yomg'ir tomchisining diametri 2 mm. dan katta bo'lmasligi kerak. 0'simlik va tuproqqa qulay hisoblangan suv tomchisining diametri 0,4-0,9 mm. ni tashkil etadi. Suv tomchisining tushish tezligi esa 4-4,5 m/sek. ga, ayrim hollarda 8 m/sek. ga yetishi mumkin.

Yomg'irlatib sug'orishda yomg'iming sug'oriladigan dala bo'y- lab bir tekisda taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. Yomg'iming bir tekisda taqsimlanishi sug'orishni sifatlari o'tkazilishni ta'minlaydi. U yomg'imi maydon bo'ylab bir tekisda taqsimlanish koeffitsienti orqali aniqlanadi.

Yomg'imi bir tekisda taqsimlanish koeffitsienti ma'lum maydonga tushgan yomg'iming o'rtacha qatlamini ana shu maydonga tushgan maksimal miqdoriga nisbatli bo'lib, u quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$\hat{\sigma}_{\text{tek.taq}} = \sigma_{\text{max}} / \sqrt{n}$

bu yerda AT<sub>tek.taq</sub> - yomg'iming bir tekisda taqsimlanish koeffitsienti;

йо-г, - ма'lum maydonga tushgan yomg'iming o'rtacha qatlam qalinligi, mm;

$h_{max}$  - shu maydonga tushgan yomg'iming eng ko'p (maksimal) miqdori, mm.

Yomg'iming bir tekisda taqsimlanish koeffitsienti 0,7-0,8 atro-fida bo'lishi zarur.

Yomg'irlatib sug'orish sifatiga meteorologik omillar kuchli ta'sir etadi. Bu yerda meteorologik omillami keskinlik yoki kuchayish koeffitsientlari e'tiborga olinadi. Meteorologik omillami keskinla-shuvi bilan suvning bug'lanishi va shamol ta'sirida bo'ladigan isrofi ham ortib boradi (25-jadval).

25- *jadval*

**Suvning buo'lanishi va shamol ta'sirida isrof bo'lish miqdori**  
(sug'orish me'yoriga nisbatan %)

Yomo'irlatish mashinalari	Meteorologik omillami kuchayish koeffitsienti						
	20	40	60	80	100	120	140
ДМ-454-100 «Фрегат»	2,4	4,1	5,7	7,2	8,7	10,1	11,4
ДМ-454-70 «Фрегат»	3,6	5,7	7,4	8,0	10,3	11,6	12,9
ДКП-64 «Волжанка»	11,4	16,6	20,6	24,1	27,2	30,0	32,6
ДЦА-100 МА	4,1	7,2	10,6	12,7	15,9	17,7	20,1
Uzoqqa suv otar mashinalar	16,9	19,7	21,5	22,9	24,1	25,1	26,0

Meteorologik omillami kuchayish koeffitsienti quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$F = t - (1 - 0,01a) - (v + 1)$ , bu yerda  $F$  - meteorologik omillami kuchayish koeffitsienti;  $t$  - havo harorati, °C;  $a$  - havoning nisbiy namligi, %;  $v$  - shamol tezligi, m/sek.

**2- masala.** Quyidagi sharoit uchun ДКП-64 «Волжанка» mashinasi bilan yomg'irlatib sug'orishda bug'langan va shamol ta'sirida isrof bo'lgan suv miqdorini hisoblang:  $\hat{=} 25$  °C;  $a = 40\%$ ;  $v = 5$  m/sek.

**Yechish:**  $F = t - (1 - 0,01 - a) - (v + 1) = 25 - (1 - 0,01 - 40) - (5 + 1) = 100$ .

25- jadval ma'lumotlaridan foydalanib, meteorologik omillar- ning kuchayish koeffitsienti 100 ga teng bo'lgan sharoit uchun suv isrofarchiligi miqdori aniqlanadi. Ushbu sharoitda ДКШ-64 «Волжанка» mashinasi uzatgan suv (sug'orish me'yori) ning 27,2 % isrof bo'ladi.

**Topshiriq.** 26- jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda «Фрегат» va ДДА-100 МА mashinalari bilan yomg'irlatib sug'orishda bug'lanish va shamol ta'sirida bo'ladijan suv isrof! miqdorini aniqlang.

*26-jadval*

#### Suv isrofarchiligi miqdorini aniqlashga doir ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Masala nomeri		
	1	2	3
Havo marorati ( <i>t</i> ), °C	30	36	25
Havoning nisbiy namligi (a), %	35	30	40
Shamol tezligi (v), m/sek.	7	9	10
Suv isrofarchiligi miqdori, %			

Qishloq xo'jalik ekinlarini yomg'irlatib sug'orish sifatini oshirishda mashina va agregatlamning bir joyda turib yomg'irlatish davomiyligi alohida ahamiyatga ega. «Фрегат», «Днепр» va ДДА- 100 МА yomg'irlatish mashinalarining bir joyda turib ishlash davomiyligi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$T=0,67-m \cdot F/QiLOO-E,$$

bu yerda **T**- bir joyda turib ishlash davomiyligi, min; **m** - sug'orish me'yori, 1/ga;

**F**-bir joyda turib ishlaganda sug'oriladigan maydon, ga;

**Q**-yomg'irlatib sug'orish mashinasining suv sarfi, 1/sek;

**E** - bugiangan va shamol ta'sirida yo'qotilgan suv miqdori, %.

**3- masala.** Quyidagi ma'lumotlar asosida ДЦА-100 МА mashinasining bir joyda turib ishlash davomiyligini hisoblang: от =300 м<sup>3</sup>/ga; **F**= 14 ga; **Q**= 115 1/sek.; **E**=27%.

$$\text{Yechish. } T=0,67-mF/QiLOO-E=0,67-300\ 000-114/115\ x$$

$$x (100-27)=236 \text{ min.} = 3 \text{ soat } 56 \text{ min.}$$

Yomg'irlatib sug'orish mashinasidan mavsumda unumli foydalanish maqsadida bitta mashina xizmat ko'rsatadigan mo'tadil maydon aniqlanmog'i lozim. ДДА-100 МА mashinasi uchun bu ko'rsatkich quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$F =$$

bu yerda  $F$  - bitta mashina xizmat ko'rsatadigan maydon, ga;  $\kappa$  - mashinadan foydalanish koeffitsienti;  $k_1$  - sutka davomida ish vaqtidan foydalanish koeffitsienti;  $Q$  - mashinaning suv sarfi, 1/sek;  $t$ , - sug'orish davomiyligi, sutka;  $m$  - sug'orish me'yori,  $m^3/ga$ .

**4- masala.** G'o'zani sug'orish me'yori  $300 \text{ m}^3/\text{ga}$ , sug'orish davomiyligi 6 sutka, mashinadan foydalanish koeffitsienti  $0,65 \text{ ga}$ , ish vaqtidan foydalanish koeffitsienti  $0,84 \text{ ga}$  va mashinaning suv sarfi  $100 \text{ 1/sek. ga}$  teng bo'lsa, bitta ДДА-100 МА mashinasi xizmat ko'rsatadigan maydonni aniqlang.

$$\text{Yechish. } F = \%6, |-k-k| - Q \cdot t \cdot J_m = 86,4 - 0,65 - 0,84 - 100 \cdot 6 / 300 = = 47 -$$

$$600 / 300 = 47 - 2 = 94,0 \text{ ga.}$$

Demak, ДДА-100 МА mashinasi mavsumda 94 ga maydonga xizmat ko'rsatadi.

**Topshiriq.** 27-jadval ma'lumotlari asosida «Фрегат» va ДДА- 100 МА mashinalarining bir joyda turib ishlash davomiyligi va bitta mashina xizmat ko'rsatadigan maydonni aniqlang.

Yomg'irlatib sug'orishda asosiy maqsad har bir mashina yoki aggregatdan mavsumda yoki smenada unumli foydalanishga qaratil- mog'i lozim. Mashina yoki aggregatning bir smenadagi ish unumдорлиги (P.sh.un, ga) quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$\Pi_{51, \text{ип}} = 3,6 \text{ } k \cdot Q \cdot t / m,$$

bu yerda  $\kappa$  - mashinadan foydalanish koeffitsienti;  
 $Q$  - mashinaning suv sarfi, 1/sek.;

*t* - smenadagi sug'orish davomiyligi, soat; *m* -  
sug'orish me'yori, m<sup>3</sup>/ga.

27-jadval

**Mashinalarning bir joyda turib ishlash davomiyligi va ular xizmat  
ko'rsatadigan maydonni aniqlashga doir ma'lumotlar**

T.r.	Ko'satkichlar	Masala nomeri		
		I	2	3
1.	Sug'orish me'yori ( <i>in</i> ), m <sup>3</sup> /ga	300	350	400
2.	Mashina bir joyda turib ishlaganda sug'oriladigan maydon ( <i>F</i> ), ga	78	82	76
3.	Yomg'irlatib sug'orish mashinasining suv sarfi ( <i>Q</i> ), l/sek.	115	125	130
4.	Bug'lanish va shamol ta'sirida bo'ladigan suv isrofgarchiligi ( <i>E</i> ), %	27	18	28
5.	Mashinadan foydalanish koeffitsienti ( <i>K</i> )	0,75	0,80	0,90
6.	Ish vaqtidan foydalanish koeffitsienti ( <i>k</i> )	0,84	0,90	0,76
7.	Sug'orish davomiyligi (/,,), sut.	6	5	8

**5- masala.** Agar ДДА-100 МА mashinasining suv sarfi 100 l/sek., sug'orish me'yori 300 m<sup>3</sup>/ga, smena davomiyligi 7 soat va mashinadan smenada foydalanish koeffitsienti 0,95 ga teng bo'lsa, uning smenadagi ish unumdorligini aniqlang.

$$\text{Yechish. } P_{ish \cdot m} = 3,6 \cdot k \cdot Q \cdot t/m = 3,6 \cdot 0,95 \cdot 100 \cdot 7 / 300 = 9,5 \text{ ga.}$$

Demak, ДДА-100 МА mashinasi bilan bir smenada 9,5 ga maydonni sug'orish mumkin.

**Topshiriq.** 28- jadval ma'lumotlari asosida yomg'irlatib sug'orish mashinasining smenadagi ish unumdorligini aniqlang.

Yomg'irlatib sug'orish mashinasining bir o'tishida yomn'irlatish jadalligi sug'orishni sifatli o'tkazishda katta ahamiyatga ega. U quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$n' = 3600 \cdot Q/l \cdot \nu_0,$$

bu yerda *ri* - mashinaning bir o'tishida hosil qilinadigan yomg'ir qatlami qalinligi, mm;

*Q* - mashinaning suv sarfi, l/sek.;

/ - mashinaning qamrash kengligi, м;  $v_0$  - mashinaning ishchi tezligi, м/с.

28-*jadval*

**Yomg'irlatib sug'orish mashinasining ish unumdorligini aniqlashga doir ma'lumotlar**

T. r.	Ko'satkichlar	Masala nomeri		
		1	2	3
1	Mashinadan foydalanish koefitsienti ( $k$ )	0,85	0,70	0,90
2	Mashinaning suv sarfi ( $Q$ ), л/сек.	100	110	120
3	Sug'orish davomiyligi (л/с), соат	7,0	6,0	7,5
4	Sug'orish me'yori ( $m$ ), м <sup>3</sup> /с	400	360	300
5	Mashinaning ish unumdorligi (^ish un )> ga			

**6- masala.** ДДА-100 МА mashinasining suv sarfi 100 л/сек., ishchi tezligi 410 м/с и суг'ориш тармоqlari orasidagi masofa 120 м bo'lsa, uning bir o'tishida hosil qilinadigan yomg'ir qatlami qalinligini aniqlang.

$$\text{Yechish. } ri = \frac{3600 \cdot 0}{120} = 30 \text{ м} = 7,3 \text{ mm/соат.}$$

Bitta almashlab ekish uchastkasi yoki fermer xo'jaligi uchun talab etilayotgan yomg'irlatib sug'orish mashinalari soni quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$n_0 = a \cdot m / 3600 \cdot Q \cdot k_0 \cdot t_0 \cdot T, n_n - r |,$   
 bu yerda  $ri$  - talab etilayotgan yomg'irlatib sug'orish mashinalari- ning soni;  
 $a$  - sug'orish maydoni, м<sup>2</sup>;  $m$  - sug'orish me'yori, м<sup>3</sup>/с;  $k_0$  -  
 mashinadan foydalanish koefitsienti;  $t_0$  - mashinaning sutkada  
 ishlash davomiyligi, соат;  $r_{min}$  - sug'orish davomiyligi, sutka;  $|$  -  
 yomg'irlatib sug'orish mashinasining foydali ish koefitsienti.

**7- masala.** Agar sug'oriladigan maydon 90 ga, o'rtacha sug'orish me'yori 500 m<sup>3</sup>/ga, mashinaning suv sarfi 62,7 l/sek. (0,062 m<sup>3</sup>/sek.), mashinadan foydalanish koeffitsienti 0,80, sutkadagi ish vaqtı 12 soat, sug'orish davomiyligi 10 sutka va mashinaning foydali ish koeffitsienti 0,60 ga teng bo'lsa, talab etilayotgan mashinalar sonini aniqlang.

**Topshiriq.** 29- jadval ma'lumotlari asosida almashlab ekish uchastkasi uchun talab etilayotgan yomg'irlatib sug'orish mashinalarining sonini aniqlang.

29- *jadval*

**Talab etilayotgan mashinalar sonini aniqlashga doir ma'lumotlar**

T.r.	Ko'rsatkichlar	Masala nomeri		
		1	2	3
1	Ekin maydoni ( <i>a</i> ), ga	70	60	80
2	Sug'orish me'yori ( <i>m</i> ), m <sup>3</sup> /ga	400	300	350
3	Mashinaning suv sarfi(0,1/sek.	66,0	75,0	80,0
4	Mashinadan foydalanish koeffitsienti ( <i>k<sub>0</sub></i> )	0,72	0,77	0,85
5	Mashinaning sutkada ishlash vaqtı ( <i>t</i> ), soat	9	8	7
6	Ekinlami sug'orish davomiyligi ( <i>T<sub>mm</sub></i> ), sut.	12	12	8
7	Yomg'irlatib sug'orish mashinasining foydali ish ish koeffitsienti ( <i>r</i> )	0,70	0,76	0,80

**Takrorlash uchun savollar:**


1. Yomg'irlatib sug'orishning afzallik va kamchiliklarini ko'rsating.
2. Yomg'irlatib sug'orishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
3. Yomg'irlatib sug'orishlamning tasnifi va ko'rsatkichlarini bayon eting.
4. Yomg'irlatib sug'orishning sifatini belgilovchi ko'rsatkichlami bayon eting.
5. Yomg'irlatib sug'orish usullarini ta'riflang.
6. Qanday yomg'irlatib sug'orish mashina va agregatlaridan foydalaniadi?
7. Yomg'irlatgich apparatlarini tasniflang.
8. Yomg'irlatib sug'orish mashina va aggregatlaridan foydalananida amal qilinadigan texnika xavfsizligi qoidalari bayon eting.
9. Mashinalardan foydalanish sharoitlarini ta'riflang.
10. Impulslidagi yomg'irlatib sug'orish tizimini bayon eting.
11. Aerozol sug'orish xususiyatlarini bayon eting.

## 8. EKINLARNI TOMCHILATIB SUG'ORISH TIZIMI

Markaziy Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda suv resurs- larining taqchilligi kuchli sezilayotgan hozirgi kunda sug'orishning tejamli texnologiyalarini (masalan, tomchilatib sug'orishni) loyiha- lashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tomchilatib sug'orish qishloq xo'jaligi amaliyotida qo'llanila\* yotgan nisbatan yangi sug'orish usuli bo'lib, bunda maxsus filtrlar yordamida tozalangan suv tomchilatgichlar orqali tomchi shaklida tuproqqa berilib, o'simlikning ildiz tizimi eng ko'p tarqagan tuproq qatlamin lokal namiqtirishga erishiladi.

Tomchilatib sug'orish tuproqning faol qatlamida namlikni deyarli bir xilda ta'minlab, ekinning bir tekisda o'sib rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi. Bunda tuproqning namiqish konturi tuproq sharoitlariga bog'liq holda turlicha boladi (31- rasm). Sug'orish suvi bosim ostida quvurlar tarmog'i orqali har bir o'simlikka yoki o'simliklar qatoriga uzatilib, o'suv davri davomida o'simliklarni suvga ehtiyojiga muvofiq kerakli miqdordagi suv bilan ta'minlab turiladi. Bunday tizimlarda suv bilan birqalikda mineral o'g'itlami eritilgan holda tuproqqa berish imkoniyati mavjud.



31- rasm. Tomchilatib sug'orishda tuproqning namiqish konturi:  
a - og'ir tuproqda; b - yengil tuproqda.

Tomchilatib sug'orish, asosan, quruq va issiq iqlimga ega Avs- traliya, AQSh, Yangi Zelandiya, Meksika, Tunis, Isroiil va boshqa ko'pgina davlatlarda keng tarqagan (30- jadval). Ukraina (Qrim) va Moldovada, shuningdek, Shimoliy Kavkazda mevali bog', tokzorlar, sabzovot va dala ekinlarini sug'orishda keng qo'llanilmoqda.

0‘zbekistonda 1975 yildan boshlab tajriba tariqasida bog‘ va tokzorlamasi sug‘orishda tatbiq qilina boshlandi. Shu yili SANIIR1 ning Jizzax viloyati Zomin tumanidagi tajriba xo‘jaligida dastlab 10 ga, so‘ngra 200 ga tokzomi, 1977 yilda Xorazm viloyati Xiva tumanida 1,5 ga mevali bog‘ni, Shryoder nomidagi BU va B ITI da 2 ga bog‘ni sug‘orish uchun O‘zbekistonda ishlab chiqilgan tomchilatib sug‘orish tizimi tashkil etildi. 1993 yilda respublikada tomchilatib sug‘orish tizimlari maydoni 1134 ga. ga yetkazildi. 1991- 1992 yillarda Andijon viloyatidagi «Savoy» xo‘jaligida Isroil texnologiyasi asosidagi tomchilatib sug‘orish tizimi 1 ming ga paxta maydoniga tatbiq qilina boshlab, uning 500 ga ishga tushirildi. O‘tgan asming 90- yillarining ikkinchi yarmida yangi 600 ga maydonda tomchilatib sug‘orish tizimi barpo etildi. 1999-2001 yillarda Toshkent, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining har birida 100 ga. li maydonlarda Isroilning «Netafim» firmasi tomonidan ishlab chiqilgan tomchilatib sug‘orish tizimi ishga tushirildi.

30- *jadval*

**Jahoning ayrim mamlakatlarida tomchilatib sug‘orish maydoni (2000 y.)**

Mamlakatlar	Maydoni, ming ga	Mamlakatlar	Maydoni, ming ga
AQSh	1 050	Isroil	161
Hindiston	260	Fransiya	140
Avstraliya	258	Meksika	105
Ispaniya	230	Misr	104
Janubiy Afrika	220	Yaponiya	100
<b>Jahon boyicha jami:</b>			3 201

1994 va 1995 yillarda Quyi Chirchiq tumanida 196 ga maydon- dagi g‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda quyidagi natijalar olingan: sug‘orish me‘yori  $300 \text{ m}^3/\text{ga}$ ; egatlab sug‘orishda mavsumiy sug‘orish me‘yori  $8225 \text{ m}^3/\text{ga}$ , ya‘ni tomchilatib sug‘orishdagiga nisbatan 3 marta ko‘p. Hosildorlik egatlab sug‘orishda 26,4 s/ga bo‘lsa, tomchilatib sug‘orishda 40 s/ga. ni tashkil etdi, ya‘ni qo‘s himcha hosil gektariga 11,6 s. ni tashkil etdi. Har gektar maydonni tomchilatib sug‘orishga o‘tkazish 2000-5000 AQSh dollarari hajmida kapital xarajat qilishni talab etadi.

So'nggi yillarda ushbu sug'orish usuli g'o'zani sug'orishga keng tatbiq etila boshladi: faqatgina 2008 yilda 3500 gektardan ortiq maydonda tomchilatib sug'orish tizimi barpo etildi. 2009 yilda 1539 va 2010 yilda 141,9 ga maydonga tatbiq etildi. Shuningdek, eomchilatib sug'orishni himoyalangan yerlarda keng ko'lama qo'llash imkoniyatlari aniqlandi.

Tomchilatib sug'orish yer yuzasidan va yomg'irlatib sug'orish- larga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega: o'simliklaming ildiz tizimi tarqalgan tuproq qatlamigina namlantirilishi tufayli sug'orish texnikasining foydali ish koeffitsienti 90-95% ni tashkil etadi (egatlab va yomg'irlatib sug'orishlarda bu ko'satkich 70-75% dan ortmaydi); suvdan tejamli foydalanish (odatdagi sug'orishga nisbatan

1,5- 2 marta kam); svuning filtratsiya va bug'lanishga eng kam miqdorda bo'lishi; oqova chiqarilmasligi; irrigatsiya eroziyasining yuzaga kelmasligi; qator oralarini zichlanmasdan, doim yumshoq holda bo'lishi; tuproqning qulay namligini ta'minlanishi; o'g'itlami tuproqqa lokal kiritish imkoniyatining mavjudligi; murakkab relyefli joylarda qo'llash mumkinchiligi; hosildorlikning o'rtacha 20-50 % ga ortishi va boshqalar (31 - jadval).

### **31-jadval**

**Tomchilatib sug'orishni qo'llashning samaradorligi (SANIIRI, 2009-2011 y.y.)**

Tadqiqotlar bolib borilgan joylar	Ekin turi	Sugorish suvining tejalishi, %	Mehnat resurslarinig kamayishi, %	Hosildorlikning ortishi, %
Namangan viloyati Uychi tumani	bog'	60	25	-
	paxta	65	60	90-156
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani	bog' (shaftoli)	32	25	108
Qashqadaryo viloyati Kitob va Nishon turn.	uzum	30	30	25
	paxta	35	50	59
Qoraqalpog'iston res.	pomidor	54	60	65

Surxon-Sherobod dashtidagi taqirli-o'tloqi tuproqlarda B. Jo'raqulov va Sh. Mirzayev (2001) tomonidan g'o'zani har xil sug'orish texnikalari samaradorligini oshirish bo'yicha 1997-1999 yillar davomida maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib,

bunda egatlab (har bir egatdan va egat oralatib), tomchilatib (namlagichlar har bir egatga va egat oralatib joylashtirilgan), pylonka to'shama ustidan (to'shama har bir egat va egat oralatib yotqizilgan) va yomg'irlatib sug'orish texnikalari o'rganilgan. Ushbu sharoit uchun maqbul bo'lgan 0-50 sm. li hisobiy qatlamda sug'orishlardan oldingi tuproq namligini ChDNS ga nisbatan 70-75-65 foizdan yuqori darajada tutib turish uchun g'o'za odatdag'i egatlab sug'orish variantlarida 5 marta 5545-5585 m<sup>3</sup>/ga umumiyligini me'yorda sug'o- rilgan bo'lsa, tomchilatib sug'orishda 10 marta 2945-3050, pylonka ustidan sug'orish variantlarida 10 marta 2140-1840 m<sup>3</sup>/ga umumiyligini me'yorda sug'orilgan. G'o'za tomchilatib va pylonka to'shama ustidan sug'orilganda suvni oqovaga sarfi va chuqur qatlamlarga filtratsiyaga bo'ladigan isrofini kamayishi evaziga mavsumiy sug'orish me'yori egatlab sug'orishdagiga nisbatan 50-60 foizga kamaygan. Shuningdek, egat uzunligi bo'ylab tuproqning bir xil chuqurlikda namiqtirishga erishilgan, o'simlikning o'sib rivojlanishi yaxshilangan va gektaridan qo'shimcha 8-12 s. dan hosil olingan (32- jadval).

### **32-jadval**


**Sug'orish texnikasiga bog'liq holda paxta hosildorligi**  
(*Jo'raqulov B., Mirzaev Sh., 2001*)

Sug'orish texnikasi	Hosil, s/ga	Qo'shimcha hosil	
		s/ga	foiz
Egatlab sug'orish	32,0	-	-
Egat oralatib sug'orish	33,2	-	-
Tomchilatib sug'orish: - har bir egatdan - egat oralatib	42,2 38,0	10,2 4,8	31,8 14,5
Pylonka to'shama ustidan sug'orish: -har bir egatdan -egat oralatib	44,0 41,1	12,0 8,2	37,5 24,7
Yomg'irlatib sug'orish	30,5	-1,5	-4,7

Avstralaliyada mineral o'g'itlami sug'orish suvi bilan erigan holda qo'llash azotli o'g'itlarni 44-57 foiz tejash imkoniyatini berishligi aniqlangan. Tizimning joriy xarajatlari yer yuzasidan sug'orishga qaraganda 90-92 foizga, yomg'irlatib sug'orishga nisbatan esa 64-

71 foizga kamayishi AQSh va Avstraliya qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'z tasdiqini topgan.

Tomchilatib sug'orishning o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, ushbu tizimda tuproqning namligi va unga berilayotgan suv to'liq boshqariladi. Sug'orish suvi o'sib rivojlanish davrlari bo'yicha ekinning ehtiyojiga muvofiq dala bo'ylab bir tekisda yetkazib beriladi va tuproqning namiqishini ta'minlaydi (32- rasm).



**32- rasm. Egatlаб va tomchilatib sug'orishlarda tuproq namligining boshqarilishi.**


Tomchilatib sug'orish usuli qator afzalliklar bilan bir qatorda quyidagi kamchiliklardan holi emas: tizimni barpo etishga asosiy xarajatlaming nisbatan ko'pligi; quvur va tomchilatgichlami suvdagi yirik qo'shilmalar, kimyoiy birikmalar bilan ifloslanishi va suv o'tkazmay qo'yishi; sunvi dala bo'ylab bir tekisda taqsimlanmasligi; sug'oriladigan dala mikroiqlimini boshqarish mumkinchiligining yo'qligi; bog' va tokzorlarni qayta barpo etishda tizimni yangidan qurish lozimligi va boshqalar.

Tomchilatib sug'orishni suv resurslari bilan kam ta'minlangan qurg'oqchil mintaqalarda, boshqa sug'orish usullarini qo'llash mumkin bo'lman murakkab relyefli yerlarda, sug'orish suvi chuchuk yoki kam minerallashgan va suv o'tkazuvchanligi yuqori

bo'lgan yengil qumoq, qumli sho'rланмаган тупроqlar sharoitlarida qo'llash tavsiya etiladi. Bunday sug'orish tizimini chuchuk sizot suvlari 2 m. dan, minerallashgan sizot suvlari 4 m. dan chuqruda bo'lgan sho'rланмаган va nishobligi 0,05 dan katta yerlarda barpo etish maqsadga muvofiqdir.

### 8.1. TOMCHILATIB SUG'ORISH TIZIMINING TARKIBIY QISMLARI

Tizim quyidagi asosiy tarkibiy elementlardan tashkil topgan: *suv olish va tozalash inshootlari; nasos stansiyasi, o'g'itlarni aralash- tirish qurilmasi, sug'orish tarmog'i, aloqa liniyalari, avtomatlash- tirish tizimi, ihota daraxtlari, dala yo'llari* va boshqalar. Sug'orish tarmog'i polietilen yoki asbestsementdan tayyorlangan suv uzatish magistral quvuri, taqsimlash quvurlari, polietilendan tayyorlangan egiluvchan sug'orish quvuri va tomchilatgichlardan iborat bo'ladi (33- rasm).



**33- rasm. Tomchilatib sug'orish tizimining sxe-masi:** 1 - suv olish uzeli; 2 - bosim hosil qiluvchi uzel; 3 - bosh surma klapan; 4 - filtr; 5 - suv o'chash qurilmasi; 6 - manometr; 7 - aloqa liniyalari; 8 - o'git-lami aralashfirgichuzatgich; 9 - magistral quvuri; 10 - taqsimlash quvuri; 11 - masofadan turib boshqariluvchi surma klapan; 12 - sug'orish quvurlari; 13 - suv chiqargich-tomchilatgich; 14 - sug'orish muqarrarligini aniqlovchi datchik; 15 - boshqarish pulti.

**Nasos stansiyasi** (qurilmasi) sifatida, odatda, ichki yonuv dvigatellari yordamida ishlovchi (motopompalar) va elektr nasoslardan keng foydalaniladi. Tomchilatib sug'orish tizimida elektr nasoslami qo'llash imkoniyati bo'lмаган yoki ulardan foydalanish iqtisodiy

jihatdan samarasiz bo'lgan hollarda motopompalardan foydalaniladi. Nasos stansiyasining quvvati ( $m^3/\text{soat}$ ) sug'oriladigan maydon- ning suvgi bo'lgan ehtiyojini to'liq qondira va tomchilatib sug'orish tizimining mo'tadil ishlashi uchun zarur bo'lgan bosimni (m) vujudga keltira oladigan holda tanlanadi. Aksariyat tomchilatib sug'orish tiziminlari uchun suvning filrlash inshootiga kiradigan qismida 2-3 atm (20-30 m) bosim hosil qiladigan nasos qurilmalari turi qo'llaniladi. Tanlangan nasos qurilmasi sug'orish tizimining eng uzoqda joylashgan qismida zarur bosimni hosil qila olishi lozim. Tizimda kamida 2 ta nasos qurilmasi (asosiy va zaxira) bo'lishi ko'zda tutiladi.

Agar suv manbai ekinzordan ancha balandda joylashgan bo'lsa nasos qurilmasidan foydalanmaslik imkoniyati mavjud.

**Suvni filrllovchi stansiya** (qurilma) tomchilatib sug'orish tizimi faoliyatining samaradorligi va uzoq muddat ishlashi- ni ta'minlaydi. Suvni tozalashda turli filrlardan (sug'orish suvini qisman yoki to'liq tozalovchi) foydalaniladi.

Qo'llaniladigan filrning turi manbadagi suvning sifatiga bog'liq holda tanlanadi (33- jadval). Suvni qisman tozalovchi filrlar, asosan, qumli filrlar (diametri 1,2-2,4 mm bo'lgan qum) ko'rinishida bo'lib, ular suvdagi yirik zarrachalami tutib qoladi (34- rasm). Suvni to'liq tozalovchi filrlar to'qli yoki diskli filrlar ko'rinishida bo'lib, ular suvdagi mayda zarrachalami tutib qolish uchun xizmat qiladi.

*33-jadval*

#### Filtr tipini suv manbaiga bog'liq ravishda aniqlash

Suv turi	Suv manbai	Ifloslantiruvchi moddalar	Filtrash turi
Yerostisuv manbalari	Quduq	Qum, kalsiy karbonati	To'qli yoki diskli filrlar
	Chuqur quduq	Qum, kalsiy karbonati, temir	To'qli filtr yoki qum separatori (zarur holda)
Yerustisuv manbalari	Daiyo, soy	Organik modda, suv o'tlari	Qum-shag'alli va nazorat filrlar
	Kanal	Organik modda, suv o'tlari	Qum-shag'alli va nazorat filrlar
	Suv ombori, ko'l, hovuz	Organik modda, suv o'tlari	Qum-shag'alli va nazorat filrlar



Filtrlar ham qo'lda, ham avtomatik yuviladi-gan bo'ladi. To'rsimon filtrlar suvdagi qum va yirik dispers zarrachalar-ni, donador filtrlar esa organik va mineral mayda va yirik dispers zarracha-larni tutib qoladi. Sug'o-rish uchun yer osti sув-lari ishlatalganda to'rli


**34-** rasm. Sug'orish suvini tozaloovchi yoki diskli fltrlardan foy-qumli filtrlash qurilmasi.

Har bir alohida sharoit uchun tozalach inshooti tegishli texnik-iqtisodiy hisoblar va variantlami taqqoslash orqali tanlanadi.

Filtming shag'al qatlami suvni teskari oqizish bilan yuvilib turiladi. Filtmi yuvish muddatlari oralig'i suvning tozaligi va qancha ko'p oqib o'tayotganligiga bog'liq. Suv qanchalik loyqa bo'lsa filtmi tez-tez yuvib turish talab qiladi. Odatda filtrlar sutkasiga kamida ikki marotaba yuviladi.

**0'g'itlarni tayyorlash va suvgaga aralashtirish moslamasi** tomchilatib sug'orish tizimining ajralmas qismi hisoblanib, hozirgi kunda «Venturi» tipidagi injektor, o'g'itlovchi idish va dozatron (miksrayt, agrorayt va b.) moslamalar keng qo'llaniladi (35- rasm).

«Venturi» moslamasi bosim o'zgarishi hisobiga ishlaydi va, odatda, polimer materialdan tayyorlanadi. Injektor tizimning o'g'it beruvchi moslama-siga o'rnatiladi. U o'g'it eritmasini sug'orish suvi-ga bir tekisda qo'shilishini ta'minlaydi.



**35- rasm. «Venturi» tipidagi injektor o'g'it eritmasini sug'orish suviga bir tekisda qo'shilishini ta'minlaydi.**

O‘g‘itlovchi idish yopiq tipdagi idish bo‘lib, uning kiruvchi va chiquvchi jo‘mraklari idishga suv kirish va undan o‘g‘it aralashmasini chiqarilishi uchun xizmat qiladi.

Tomchilatib sug‘orish tizimining quvurlari magistral (bosh) va tarqatuvchi quvurlarga bo‘linadi.

**Magistral quvur** sug‘orishga beriladigan suvni nasos stansiyasidan taqsimlash quvurlarigacha yetkazib berish uchun xizmat qiladi.




36-rasm. Magistral quvur va uni

**Bosim** ~~maʼnusda qoʻshish~~ ~~tizishda~~ bosim ortib ketiishi va gidravlik zarba yuzaga kelishini oldini olish uchun bosimni kamaytirish va bir xilda tutib turishga xizmat qiladi. Ular gidravlik ko‘rinishda yoki prujina tipida bo‘lishi mumkin. Bosim rostlagichlar taqsimlash quvuridan oldin o‘rnataladi va ular avtomatik tarzda ishlaydi. Bosim manometr yordamida nazorat qilib turiladi.


**Taqsimlash** (tarqatuvchi) **quvurlari** suvni magistral quvur- dan tomizgichli shlanglarga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Ular, odatda, polilenden tayyorlanadi va ichki diametri (32 mm dan 75 mm. gacha) zarur miqdordagi suvni o‘tkaza oladigan holda tanlanadi. Taqsimlash quvurlari 0,7-1 m chuqrilikka, sug‘orish quvurlari esa yer usti yoki tuproq ostiga joylash- tililadi. So‘nggi vaqtarda Leyflet (*Layflat*) tipidagi egiluvchan quvurlardan keng foydalanilmoqda (37 va 38- rasmlar). Ular issiq va sovuqqa chidamli, 5 yildan ortiq xizmat qiladi va 4 atm. bosimga bardosh beradi. Mazkur quvurlar mavsum boshida ekin

U zanglamaydigan turli xil materiallardan tayyorlanadi. Magistral quvur zarur miqdordagi suvni o‘tkaza olish va yuqori bosimda ishlash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Odatda, diametri 110 va 75 mm bo‘lgan quvurlardan foydalilanadi. Quvurlar, aksariyat hollarda, tuproq ostiga (0,5 m. gacha churlikda) yotqiziladi (36-rasm).

dalasida yer ustiga yotqiziladi va mavsum tugallanishi bilan yig'ishtirib olinadi.



37- rasm. Layflat tipidagi egiluvchan quvur.



38- rasm. Magistral quvurga taqsimlash quvurini ulash.

**Havo chiqaruvchi klapan** tizimdagи havoni chiqarib yubo-rish va unga havo kiritish uchun xizmat qiladi. Bunda bosimni kamaytiruvchi klapan, odatda, tizimning eng baland nuqtasiga yoki magistral va taqsimlash quvurlarning oxiriga o'matiladi.


Tomchilatib sug'orish elementlarini bir-biri bilan birlashtirish (ulash) uchun turli ko'rinishdagi **birlashtiruvchi qismlar** (burchak, uchlik, birlashtirgich, jo'mrak, tiqin, qopqoq va b.)dan foydalaniлади. Ular polimer materiallardan tayyorlanadi. Odатда 6-10 atm. bosimga bardosh bera oladigan va rezbalari konus tipida bo'lgan ulagichlar ishlataladi (39- rasm).

**Tomizgichli shlanglar** suvni taqsimlash quvuridan ekin ildizigacha yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Tomizgichli shlanglar polietilen materialdan tayyorlanadi va uning diametri suv sarfiga qarab tanlandi. Amaliyotda diametri 20, 16 va 12 mm bo'lgan shlanglar va tomizgichli lentalaridan keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda quyidagi turdagи tomizgichli shlanglardan foydalilmоqda: tomizgich shlangning tashqarisiga yoki shlangni qirqib o'matiladigan; tomizgich shlangning ichiga o'matiladigan va tomizgichli lentalar (40, 41, 42 va 43- rasmlar).

Tomizgichli shlanglar yer ustiga joylashtirilganda bog<sup>1</sup> va tokzordagi qatorlar yo'nalishi bo'y lab 0,5-0,7 m balandlikda shpaleraga o'matiladi yoki daraxtga osib qo'yiladi. Ikkinchи holatda qator yo'nalishi bo'y lab yer ustiga yotqizib chiqiladi: yangidan barpo

etilayotgan bog‘ va tokzorlarda 0,5 m. dan kam bo‘limgan chuqurlikka yotqiziladi va taqsimlash quvuriga ulanadi.




39- rasm. Birlashtiruvchi va rostlovchi qismlar.



40- rasm. Kartoshkani tomchilatib 41-  
rasm. Sabzavot ekinlarini tomchi- sug'orish tizimining ko‘rinishi. latib




44- rasm. Makkjo'xorini tomchilatib sug'orish.




45- rasm. Pomidorni tomchilatib sug'orish.


Tomchilatib sug'orish tizimlari ularda qo'llanilayotgan **tomizgichlarning** turi bo'yicha farqlanadi. Quyidagi turdag'i tomizgichlar qo'llanilib kelinmoqda: *suv bosimini kamaytiruvchi labirintli* va *spiral kanalli* hamda *membranali-kompensatorli tomizgichlar*. shlangga *ornatilishiga kora* shlangni qirqib omatiluvchi, shlangni teshib omatiluvchi va shlangning ichiga omatiluvchi tomizgichlar farqlanadi (44, 45 va 46-rasmlar).



42- rasm. Shlangni qirqib o'rnatiluvchi tomizgichlar.



43- rasm. Shlangni teshib o'rnatiluvchi  
Moldavnia-IA mikro-suvchiqargich-  
tomchilatgichi: 1 - korpusi; 2 - drossel; 3 -  
shayba-qistirma; 4 - qopqog'i.



**46- rasm. Shlangning ichiga o'rnatiluvchi tomizgichlar.**

Membranali-kompensatorli tomizgichlar ko‘p maqsadlarda, po‘kak-suzgich (poplavok) li tomizgichlar asosan loyqa suvdan foydalani layotgan sharoitlarda ishlataladi. Yengil tuproqli yerlarda 1-4 m radiusda dispers sug‘orish uchun mikrouchlik-purkagichlar, keng qator oralikka ega bogMarda 4-5 m radiusda sug‘orish uchun mikroyomg‘irlatgichlar qoMlaniladi. Moldaviya-IA (suv sarfi 4-8 1/sek.), Vodpolimer-3 (5 1/sek.), Tavriya-1 (7-10 1/sek.), Gornaya (1,5-2,5 1/sek.), KU-1 (4 1/sek.), K-383 (5 1/sek.), Uzgiprovodxoz-2, Bo‘ston-1, Bo‘ston-2, Bo‘ston-3 kabi konstruksiyadagi tomizgichlar qo‘llanilib keligan.


Tomizgichlar 1,5-2,0 kg/sm<sup>2</sup> bosim ostida ishlaydi, 2,0-24 1/soat suv sarfiga ega. Ular diametri 16 mm bo‘lgan tomizgichli shlanglarga biri-biridan ma’lum masofada (20, 25, 30, 50 sm. dan 6 m. gacha) o‘matiladi. BogMarni sug‘orish uchun sarfi 2,0 1/soatga teng tomizgichlar shlangning daraxt tanasi atrofida 2-3 tadan bir-biridan 25-50 sm masofada o‘rnatiladi, shlangning qatordagi darxtlar orasidagi qismiga o‘rnatilmaydi. Suv sarfi katta bo‘lgan tomizgichlardan foydalani layotganda har bir daraxt tanasi yoniga 1-2 dona tomizgich o‘matiladi.

**Shlang devorining tashqi qismiga yoki shlangni qirqib o‘rnatiladigan tomizgichlar** ko‘p yillik daraxtlarni sug‘orishda qoMlaniladi.


**Shlangning ichiga o‘rnatiladigan tomizgichlar** mevali daraxt- lami va bir yillik ekinlarni sug‘orishda foydalani layotganda. Bunday tomizgichli shlanglar zavod sharoitida tayyorlanadi. Ulardan ko‘p yillik ekinlarni sug‘orishda foydalani layotganda ma’lum qiyin- chiliklar yuzaga keladi

**Tomizgichli lentalardan** bir yillik ekinlarni sug‘orishda foydalani layotganda. Bunday shlanglarda tomizgichlar orasidagi masofa

10-50 sm. ni tashkil etadi, tomizgichlar tizimdagи bosim 0,3 atm. bo‘lgandayoq mo‘tadil ishlay boshlaydi. Tomizgich tirqishli ko‘rinishda hosil qilingan va shu bois uni tuproq orasida ham ishlatish mumkin. Ularning suv sarfi 0,5; 0,75; 1,0 va 2 l/soat miqdorida bo‘ladi (47- rasm).



*Tomizgichli lenta va suv chiqish tirqishlari*



*suvning chiqish tirqishi Lentada suvning*


*harakatlanish sxemasi*

#### **47- rasm. Tomizgichli lenta va unda suvning harakati.**

Tomizgichli lentalarning **kvin gil** (0,6-0,7 atm. bosimda ishlovchi), **gidrolayt** (0,5 atm.), **akovagol** (0,1 atm. bosimdayoq ishlovchi) turlari mavjud.

#### **8.2. TOMCHILATIB SUG‘ORISH TIZIMLARINI QURISH, ISHGA TUSHIRISH VA UNDAN FOYDALANISH**

Tomchilatib sug‘orish tizimlari tuzilgan loyiha asosida quriladi (montaj qilinadi). Quvurlar tomchilatib sug‘orish tizimi sxemasiga mos ravishda uchastkaga yoyilib, yerga yotqizib qo‘yiladi. Quvurlar shunday holatda toiiq to‘g‘rilangunga qadar (20-25 s yoki 1 sut.) yotishi lozim. So‘ngra magistral quvurlarning taqsimlash quvurlari ulanadigan nuqtalarida taqsimlash tuguni uchun teshik ochilib, u yerga uchlik, shtutser va suvni ochib- yopuvchi mexanizmlar (ventil, soqqali kran va boshqalar) ulanadi (48- rasm).



Loyihalashtirilgan tomchilik tizimi.

Taqsimlash tugunining chiqish joyiga taqsimlash quvurlari ulanadi. Taqsimlash quvurining tomizgichli shlanglar ulanadigan nuqtalarida quvurning yon tomonidan qirindi hosil qilmaydigan maxsus teshikochqichlar yordamida diametri 12 mm bo'lgan teshiklar ochiladi va ularga shtutser-drossellar ulanadi. Teshik- ochqich ichki diametri 12 mm bo'lgan po'lat quvurdan tayyorlab olinishi mumkin.

Magistral quvur va taqsimlash tugunlari yer yuzasidan 0,25 m chuqurlikka joylashtiriladi. Shlangdagi suvni boshqarish vaqtida qiyinchilik tug'dirmasligi uchun taqsimlash tugunlari yog'ochdan tayyorlanadigan 0,5x0,5 m o'lchamdagи qopqoqli qutiga joylashtirilishi lozim. Tomizgichli shlanglar taqsimlash quvuriga doim perpendikulyar holatda yotqiziladi. Shlanglar taqsimlash quvurining bir yoki ikkala tomoniga ham yotqizilishi mumkin. Bir yillik ekinlar yetishtiriladigan dalalarda tomizgichli shlanglar egatning tubiga yotqiziladi, tokzorlarda esa shpaleralardagi eng pastki simga ilib qo'yiladi. Taqsimlash quvuriga shtutser- drossel o'rnatilgandan so'ng unga egat bo'ylab yotqizilgan tomizgichli shlang ulanadi va shtutserning gaykasi bilan qotirib qo'yiladi. Bunda tomizgichli shlang tarang tortilib qolmasligi kerak.

Taqsimlash quvuri va tomizgichli shlanglaming oxiri tiqinlar bilan berkitib qo'yiladi yoki quvur yohud shlang buklanib, bog'lab qo'yiladi.

Tomchilatib sug'orish tizimlari ishga tushirilishidan oldin yaxshilab yuviladi. Buning uchun tizimga suv berilishidan avval quvur va shlanglaming oxiridagi tiqinlar olinib, ular ochib qo'yiladi. Birinchi modulning taqsimlash tuguni ochilib, taqsimlash quvuri bosim ostida yuvilgandan so'ng uning oxiri tiqin (zaglush- ka) bilan yopiladi. Bunda suv tomizgichli shlanglarga qarab oqadi va ulardan oqib chiqqa boshlaydi. Suv shlanglardan 3-5 min. oqqanidan so'ng, ishlab turgan holatida ularning oxiri birma-bir yopib chiqiladi. Shundan so'ng suv oqib chiqayotgan hamma joylar berkitib chiqiladi.

Modul to'liq yuvilib, undan suv oqib chiqib ketmayotganligi tekshirib chiqilgandan so'ng tizimdagi bosim o'lchab ko'riladi: Har bir tomizgichli shlangning oxiridagi tiqin olinib, uning o'rniga shkalasi oralig'i  $0,05 \text{ kg/sm}^2$  bo'lgan manometr qo'yib ko'riladi. Manometrning ko'rsatkichi daftarga qayd qilib borila-

di. Bunda modul shlanglaridagi bosimlar 5% dan ortiq farq qilmasligi kerak. Zarur hollarda tomchilatib sug'orish tizimining har bir shlangidagi bosim drossellarning diametrini o'zgartirish orqali rostlanadi. Bosimini rostlash, odatda, eng uzoqdagi shlang- dan boshlanadi. Tomchilatib sug'orish tizimining boshqa modul - larida ham huddi shunday tekshirish va rostlash ishlari o'tkazi- ladi.

Tomchilatib sugarish tizimlarini ishlatishda uning germib- ligiga asosiy e'tibor qaratiladi va u doimiy ravishda tekshirib turiladi. Agar tizimning biron bir joyidan suv oqib chiqayotgan bo'lsa u darhol bartaraf etilishi lozim. Aks holda suv va o'g'itlar dalaning barcha nuqtalariga bir xilda yetkazib berilmaydi.

Tomchilatib sug'orish tizimlari har oyda 2 marta yuvib, tozalanib turilishi lozim. Buning uchun shlanglaming oxiridagi tiqinlar navbatli bilan 3-4 sek. davomida ochib qo'yiladi.

Tizim shlanglarida qotib qolgan tuzlarni eritish va yopishgan suv o'tlarini chiqarib yuborish uchun mavsum davomida quvur va shlanglarga 1-2 marta nitrat kislotasining 0,5% li eritmasi yuboriladi va 15-20 s. dan keyin har bir modul toza suv bilan yuvib tashlanadi. Mavsum oxirida esa tizimga nitrat kislotasining 2-3% li eritmasi bilan ishlov beriladi va tomizgichli shlanglar shtutser- drossellardan ajratiladi hamda ularning o'rniga qopqoqlar kiydi- riladi. Tomizgichli shlanglar daladan yig'ib olinib, omborlarga saqlash uchun qo'yilishidan oldin ularga xlorid kislotasining 1-3% li eritmasi bilan ishlov beriladi.

Tizimning barcha soqqali kranlari mavsum oralig'ida ochiq holda qoldiriladi va mavsum oldidan ular yaxshilab yuviladi.

#### **5- AMALIY TAJRIBA MASHG'ULOTI TOMCHILATIB SUG'ORISH TIZIMINING**

##### **HISOBI**

Tomchilatib sug'orish texnologiyasi oz ichiga ekinni ehti- yojiga muvofiq suvni uzatish rejimi va sug'orish texnikasini oladi. Suv uzatish tizimi mavsumda sug'orish meyori muddati va davomiyligiga bog'liq bo'lib, namiqish zonasi, tomchilatgichlar

soni va ulaming suv sarfi hamda joylashtirish sxemasi, tuproqning suv-fizik xususiyatlariga bog'liq.

Tomchilatib sug'orish tizimini tashkil etish uchun dastlab uning loyihasi tuzib chiqiladi. Loyihalashda eng avval tizimda qo'llaniladigan tomizgich turini yetishtirilayotgan ekin turini sug'orish davomiyligini hisobga olgan holda tanlash talab etiladi. Bunda dalaga bir marta sug'orishda beriladigan suvning miqdori asosiy omil boiib hisoblanadi. Shuningdek, zarur miqdordagi suvni yetkazib berish uchun sarflanadigan vaqt - sug'orish davomiyligini 10-12 soat qilib belgilanishi ma'qbul hisoblanadi. Tomizgich turini tanlashda tuproqning suv o'tkazuvchanlik xususiyati va ekinning suvgaga bo'lgan ehtiyoji e'tiborga olinadi.

Bog<sup>1</sup> va tokzorlarni sug'orish me'yori quyidagi ifoda yorda-mida hisoblanadi:

$$n = 100 \cdot j \cdot h \cdot S \quad (H_9 \text{ o} - H_{10}),$$

bu yerda ***h*** - hisobiy qatlam qalinligi, m;

***j*** - tuproqning hajmiy massasi, t/m<sup>3</sup>;

***S*** - dalaqning namlanadigan qismi (ulushi), m<sup>2</sup>;

***H*<sub>90</sub>** - tuproqning sug'orishdan keyin ta'minlanadigan namligi (chegaraviy nam sig'imining 90 %);

***H*<sub>70</sub>** — tuproqning sug'orish arafasidagi namligi (chegaraviy nam sig'imining 70 %).

Dalaqning namlanadigan qismi (***S***) quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$S = n \cdot w / a \cdot b,$$

bu yerda ***m*** - bitta daraxt atrofidagi tomizgichlar soni, dona;

***w*** - bitta tomizgich bilan namlanadigan maydon, m<sup>2</sup>; ***a*** - daraxt

tuplari orasidagi masofa, m; ***b*** - daraxt qatorlari orasidagi masofa, m;

Bitta tomizgich bilan namlanadigan maydon (***w***) 34- jadval ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Masalan  $J=1,37 \text{ t/m}^3$ ;  $A=1,0 \text{ m}$ ;  $H_{90}=19,26 \%$ ;  $\varUpsilon_{70}=14,98 \%$  va daraxt 2x4 sxemada ekilgan hamda har bir daraxt atrofiga sarfi 4 1/soat bo'lgan tomizgich qo'yilgan bo'lsa, bog'ni bir marta sug'orish me'yori quyidagiga teng bo'ladi:

**34-jadval**

Tuproq sharoitlari va tomizgichning sarfiga ko‘ra bitta tomizgich bilan namlanadigan maydon

Tuproq turi	Shifri (turi)	Tomizgichning suv sarfi, 1/soat				
		2	4	6	8	10
Qum	1	0,2	0,4	0,6	0,8	4
Qumli	2	0,6	0,8	1,0	1,4	1,9
Yengil qumoq	3	0,8	1,2	1,6	2,0	2,4
0‘rtacha qumoq	4	1,0	1,5	2,0	2,4	3,2
Og‘ir qumoq	5	1,2	1,8	2,4	3,2	4,0

$$m_{nt} = 100 \cdot 1,37 \cdot 1,0 - 0,15 \cdot (19,26 - 14,98) = 88 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Dala ekinlarini me‘yori quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$w_{nt} = 100 \cdot j \cdot h'(\mathbf{H}_{90} - \mathbf{H}_{70}), \text{ m}^3 / \text{ga},$$

bu yerda  $\mathbf{H}_{90}$  - tuproqning sug‘orishdan keyin ta’milnanadigan namligi (cheгаравиј нам sig‘imining 90 %);

$H_{90}$  - tuproqning sug‘orish arafasidagi namligi (cheгаравиј нам sig‘imining 70%).

Masalan,  $j=1,37$  t/m<sup>3</sup>;  $h=0,8$  m;  $\mathbf{H}_{90}=19,26\%$ ;  $\mathbf{H}_{70}=14,98\%$  bo‘lsa, bir marta sug‘orish me‘yori quyidagiga teng bo‘ladi:

$$m_{nt} = 100 \cdot 1,37 \cdot 0,8 \cdot (19,26 - 14,98) = 469 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Sug‘orish davomiyligi ( $t$ ) esa quyidagicha aniqlanadi:

$$t = m_{nt}/E_d - Q_{dt} \cdot n,$$

bu yerda  $E_d$  - suvdan foydalanish koeffitsienti (0,96-0,98);

$Q_{dt}$  - tomchilatgichning suv sarfi, 1/sek;  $n$

- 1 gektardagi tomchilatgichlar soni.

Sug‘orish gidromodului (1/sek) quyidagicha aniqlanadi:

$$q = m_{nt}/(86,4 \cdot \eta_{adm}).$$

bu yerda  $\eta_{adm}$  - sugorishlar davomiyligi, s.

- Bir vaqtida sug'oriladigan minimal maydon ( $A_{m'c}$ , ga) esa sug'o- rishlar orasidagi davrga ko'ra aniqlanadi:

$-'^m_e = A/A_{min}$ , bu yerda **A** - modul

uchastka maydoni, ga;  
 $A_{min}$  - minimal sug'orishlar orasidagi davr, sut.

469 m<sup>3</sup>/ga miqdordagi suvni dalaga 10 soatgacha vaqt davomida yetkazib berish rejalashtirilgan va tomizgichlar orasidagi masofa 0,3 m qilib olingan bo'lsa, bunday sharoitda suv sarfi 2,0 l/s bo'lgan tomizgichlar talabni qanoatlantira oladi. Mazkur tomizgichlar bilan qator oralig'i 0,6 m bo'lgan ekin dalasiga 15 l/sek. suv berish mumkin. Sug'orish davomiyligi 8,5 s (10 s. dan kam) vaqt kifoya qiladi, ya'ni ushbu vaqt davomida dalaga 472 m<sup>3</sup> suv beriladi.

Tomchilatib sug'orish tizimining bekamu-ko'st loyihalash uchun quyidagi ma'lumotlar bo'lishi talab etiladi: uchastkaning o'lchami, suv manbaining joylashgan o'rni, ekin qator orasining kengligi, egatlaming yo'nalihi; suv manbai turi (ochiq havza, burg'u qudug'i, magistral quvur); tuproqning tavsifi (turi, kimyoviy xossasi); yetishtiriladigan ekin turi va uning uchastkada joylash- tirish tartibi.

Tomchilatib sug'orish tizimini loyihalashda quyidagi tadbir- lar navbati bilan bajariladi: 1) Uchastkaning konturlari aniqlanib, uning sxemasi chiziladi. Bunda dalaning nishobligi, o'tkaziladi- gan yo'llar, suv manbaining (ariq, burg'u qudug'i va b.) o'rni belgilanadi; 2) Tomchilatib sug'orish tizimi inshootlari (hovuz, nasos, filtr, o'g'it eritmasi tayyorlash)ni mumkin qadar uchastkaning o'rtasi yoki uning eng baland qismida bo'lishi ko'z- da utiladi; 3) Tomchilatib sug'orish tizimi magistral quvurlari uzunligining minimal bo'lish sxemasi tanlanadi; 4) Ekinzorning to'liq maydonida bir vaqtida sug'orish o'tkazib bo'lmaydigan bo'lsa, u holda dala **modul** (sektor)larga bo'lib chiqiladi. Modullar manbaning suv yetkazib bera olish imkoniyatini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Dalani modullarga bo'lib chiqish loyihaviy suv sarfini va bosim isrofmi kamaytirishga imkoniyat yaratadi hamda suv nasosining tejamlı rusumini tanlashda muhim ahami- yatga ega.

Masalan, bog'lami sug'orishda har bir daraxtga kerakli miqdordagi suvni yetkazib berish tegishli suv sarfli tomizgich turi tanlanadi. Agar suv sarfi 8 l/s bo'lgan tomizgich qo'llani- ladigan bo'lsa, har bir daraxt tanasining ikki tarafida shlangga 30- 50 sm masofada tomizgich o'matiladi. Agar daraxtlar qatorining uzunligi 200 m va daraxtlar orasidagi masofa 4 m bo'lsa, bir qatordagi 200:4=50 ta daraxtga 100 dona tomizgich zarur bo'ladi. Ushbu qatorga soatiga 50- 8=800 l suv talab etiladi. 5 ga bog' uchun (eni 250 m va qatorlar oralig'i 6 m) 250:6-42 qator tomchilatib sug'orish shlanggi uchun  $42 \cdot 8 = 33600 \text{ l/s} = 33,6 \text{ m}^3/\text{s} = 9,3 \text{ l/sek.}$  suv zarur bo'ladi. Bunday sarfdagi suvni 100 m. gacha diametri 63 mm bo'lgan quvur o'tkaza oladi. 9,3 l/sek. suv sarfi va  $2,5 \text{ kg/sm}^2$  (25 m) bosimga mos nasos agregati, filtr va suv manbai (zarur holda hovuz o'lchamlari) tanlanadi. Sug'oriladigan maydonni modullarga bo'lib sug'orish bir vaqtda uzatiladigan suv sarfi va bosim isrofini kamatirishga olib keladi. Bu esa nasos stansiyasi uchun va undan foydalanish harajat- larini kamayishini ta'minlaydi.

Bir vaqtida sug'oriladigan modullar maydonini aniqlashda quyidagilarga e'tibor qilinishi talab etiladi: modul maydoni qanchalik kichik bo'lsa sug'orish uchun energiya sarfi shunchalik kichik bo'lishligi; bir turdag'i ekinlar bilan band modullarning maydonlarini deyarli bir xil bo'lishiga erishmoq lozimligi; turli modullarda har xil ekinlar yetishtirish va tomchilatib sug'orishning turlicha tiplaridan foydalanish mumkinligi. Bunday sharoitda sug'orish me'yorlari va muddatlari o'zaro muvofiq-lashtiriladi.

Tomchilatib sug'orish shlanggining uzunligi sug'oriladigan dala sharoitlariga muvofiq quyidagi qoidalarga amal qilingan holda tanlanadi: haddan uzun shlanglarni mavsum boshida dalaga yoyish va oxirida yig'ishtirib olishning sermehnatligi; bitta taqsimlash quvuriga ulanadigan tomizgichli shlanglaming uzunliklari va ularagini tomizgichlar sonini deyarli bir xil bo'lishligi; yuqori bosim ( $1,5-2,5 \text{ kg/sm}^2$ )da ishlovchi tomchilatib sug'orish shlanglar soatiga ko'pi bilan 600 l. gacha suv o'tkaza olishi bois ularning uzunliklarini 400 m. dan ortiq bo'lmasligi; tizimdag'i bosim qancha yuqori bo'lsa tomizgichli shlang uzunligining ham shunchalik uzun va bir vaqtda sug'oriladigan maydon ham tegishlicha katta

bo‘lishining mumkirtchiligi; tomizgichli shlang qanchalik uzun bo‘lsa suvning taqsimlanish notejisligini ham shunchalik katta bo‘lishligi (bunday sharoitda shlangning quyi qismidagi tomiz- gichlarga kerakli miqdordagi suv yetkazib berilmaydi: suv sarfi soatiga 1,5 l bo‘lgan tomizgichlar orasidagi masofa 30 sm bo‘lgan shlangda (ishchi bosimi 1,4 kg/sm<sup>2</sup>) suv sarfi notejis- ligi 80 m masofada 95% ga, 100 m - 93%, 120 m - 90% va 140 m masofada 80% ga teng bo‘ladi, ya’ni shlang oxiridagi tomizgich suvni 20 % gacha kam beradi.

Har bir modulda yetishtiriladigan ekinlami joylashtirishda egatlar, daraxtlar qatori belgilab chiqiladi. Ularga ko‘ra suv taqsimlash quvurlari joylashtiriladi: ularni modulning bir chek- kasi yoki o’tasidan o’tkazish mumkin. Tomizgichli shlanglar egatlar bo‘ylab yotqiziladi. Bunda uchastkaning nishobligi 3 m. dan va shlangning uzunligi 100 m. dan oshmasligi maqsadga muvofiq. Tomizgichli shlangni ekinning ikki qatori orasidagi egatga yotqizish mumkin: qatorlar oralig‘ining 0,5-0,6 m atrofida bo‘lishi ma’qbul hisoblanadi.

Nishobligi katta uchastkalarda taqsimlash quvurlarini nishoblik bo‘ylab yotqizish mumkin. Bunda ular magistral quvumming tepe qismiga ulanadi, nishobligi kichik uchastkalarda esa yon qismiga ularash mumkin. Taqsimlash quvurlari tuproq yuzasidan 0,15-0,25 m chuqurlikka yotqiziladi.

Magistral quvurlar suvni filtrlash stansiyasidan modullargacha o’tkaziladigan yo‘lga parallel ravishda 0,3-1,5 m chuqurlikka yotqiziladi. Ularga taqsimlash quvurlari ulanadigan nuqtalarda taqsimlash tugunlari o’rnataladi. Filtrlash stansiyasi nasos stansiyalariga ulanuvchi o‘g’itlash inshootiga ulanadi. Nasoslar esa yordamchi hovuz yoki suv idishiga (bak) ulanadi.

So’ngra modullar va quvurlarning yotqizilish chizig‘i aniqlanib, qurish sxemasiga tushirilgandan so’ng har bir modulga beriladigan suv miqdori ( $Q$ ) aniqlanadi: tomizgichli shlang uzunligi 1 m. dagi tomizgichlar soniga va tomizgichning suv sarfiga ko‘paytiriladi. Ushbu ma’lumot taqsimlash quvurining diametrini aniqlashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Eng katta modulning suv sarfi (0 hisobiy suv sarfi ( $Q_h$ ) sifatida qabul qilinadi va u filtrlash stansiyasi, nasoslar va o‘g’itlash inshootining suv sarfini tanlashda e’tiborga olinadi.



Taqsimlash va magistral quvurlarning diametri har bir modulning hisobiy ( $Q$ ) va loyihaviy suv sarflari ( $Qi$ ) 34-jadval ma'lumotlari asosida tanlanadi. Loyihaviy suv sarfi quvurga kirishdagi bosim isrofmi kamaytirishga imkon yaratatish maqsadida hisobiy suv sarfi (oni 10-30% ga oshirish yo'li bilan aniqlanadi.

#### 34-jadval

Ouvurdagi bosim isrofini aniqlash uchun ko'rsatkichlar

Quvuming diametri va devori qalinligi, mm	Suv sarfi (0, m <sup>3</sup> /s)	Uzunligi 100 mquvurda bosim isrofi (J), m	Suv sarfi ( $\frac{m}{s}$ ), m <sup>3</sup> /s	Uzunligi 100 m quvurdagi bosim ( $h$ ), m	Suv sarfi $m$ m <sup>3</sup> /s	Uzunligi 100 m quvurdagi bosim isrofi (A), m
0 32x3	1,8	0,52	2,34	0,83	2,9	1,2
0 40x3,7	3,24	0,58	4,32	0,87	5,4	1,29
0 50x4,5	6,12	0,55	7,6	0,8	9,36	1,17
0 63x5,7	11,2	0,54	14,4	0,84	16,9	1,1
0 75x6,8	17,6	0,52	22,7	0,86	27,4	1,14

*Izoh:* hisobiy suv sarfi uchun quvuming boshidagi, hisobiy bosim isrofi uchun quvuming oxiridagi ko'rsatkichlar qabul qilinadi.

Quvurlar uzunligining oshgani sayin bosim isrofi ham oshib boradi. Katta nishobli yerlarda suv yuqoriga uzatilayotgan bo'lsa bosim isrofi ortadi, pastga uzatilayotgan bo'lsa esa kamayadi, uning qiymati nisho'blik qiyamatiga teng bo'sladi (m/masofa).

Magistral quvuming hisobiy bosim isrofi ( $h_{mh}$ , kg/sm<sup>2</sup>) quyidagicha aniqlanadi:

$$h_{mb} = (h - L/100) \pm (H/10),$$

bu yerda  $h$  - 100 m uzunlikdagi quvur oxirida bosim isrofi, kg/sm<sup>2</sup>;

$L$  - quvuming uzunligi, m;

$H$  - dalaning nishoobligi, m.

Taqsimlash quvurlarining hisobiy bosim isrofi ( $7z_{th}$ , kg/sm<sup>2</sup>) quyidagicha aniqlanadi:

$$A^* = (7z_{th}/2)/100 \pm (tf/10).$$

Masalan, diametri 63 mm, suv sarfi 23 m<sup>3</sup>/s, uzunligi 150 m bo'lgan magistral quvur 7 m balandga qarab yotqizilgan bo'lsa, uning hisobiy bosim isrofi  $2_{mh} = (0,84T50/100) + (7/10) = 1,96$

$\text{kg/sm}^2$  gateng bo'ladi, ya'ni quvuming cOcirida suv bosimi uning boshidagiga nisbatan  $1,96 \text{ kg/sm}^2$  ( $19,6 \text{ m}$ ) kam bo'ladi. Ushbu sharoitda taqsimlash quvuri  $4 \text{ m}$  pastlikka qarab yotqizilgan bo'lsa, bosim isrofi  $/z_{th}=(0,84T50/2)/100$   $-^{1/10}=0,23 \text{ kg/sm}^2$  ( $2,3 \text{ m}$ )ni tsashkil etadi.

Magistral quvuming bosh qismidagi suv bosimi taqsimlash quvurlarining oxiridagi zarur bosimni ta'minlay olish shartidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda tomizgichli shlanglar- ning mo'tadil ishlashi uchun uning oxirida  $1,6-2,2 \text{ kg/sm}^2$  suv bosimi ta'minlanishi lozim. Buning uchun taqsimlash va magistral quvurlar uchun  $h_{th}$  va  $h_{mh}$  hisoblanadi; nasosdan eng uzoqdagi taqsimlash quvurining oxirgi nuqtasigacha bo'lgan masofa- dagi bosim isroflari bir-biriga qo'shilib, unga tomizgichlami ishlashi uchun zarur bo'ladigan bosim ( $1,6-2,2 \text{ kg/sm}^2$ ) va zarur hollarda o'g'itlash inshootining ishlashi uchun talab etilayotgan bosim ( $1,2-1,7 \text{ kg/sm}^2$ ) qo'shiladi. Aniqlangan bosim loyihibiy bosim (5)) sifatida qabul qilinadi va u nasos agregatlari bosimini tanlash uchun asos bo'ladi.

Tomchilatib sug'orish tizimida 2 ta (asosiy va zaxira) nasos agregati ishlatish ko'zda tutiladi. Nasoslarning quvvati loyihibiy suv sarfi ( $Q$ ) va bosim ( $\Delta$ )ш to'liq ta'minlashi lozim. Kichik ( $0,2$  gagacha bo'lgan) uchastkalarda tizim tabiiy bosim yordamida ishlatilishi mumkin. Buning uchun suv idishini  $2-5 \text{ m}$  balandlikka o'rnatish orqali  $0,2-0,5 \text{ kg/sm}^2$  bosimda ishlovchi tomizgichli lentalardan foydalaniлади.

Suv ochiq havza (kanal, daryo, ko'l)lardan olinadigan sharoitda filtrlovchi qurilma qum-shag'alli va 2- pog'onada o'rnatilishni to'rla yoki diskli filtrlardan iborat bo'ladi, yer osti manbaidan olinadigan bo'lsa to'rla yoki diskli filtr bilan kifoya- laniladi. Bunda suv sifati alohida o'rganiлgan bo'lishi shart. Filtrlovchi qurilmaning quvvati loyihibiy suv sarfi ( $Q$ ) dan  $2,5$  martagacha ortiq qilib olinadi.

Tomizgichli shlanglaming kirish qismlaridagi bosimlar  $3,0-7,0 \text{ mm}$ . li kiruvchi shtutser-drossellar yoki xomutlarga o'rnatiladigan rezbali  $2,0-6,5 \text{ mm}$ . li drossellar yordamida rostlanadi. Bosim rostlash ishlari, odatda, modulning maydoni  $0,5 \text{ ga}$ . dan katta bo'lgan hollarda amalga oshiriladi.

1- modul taqsimlash quvuridagi hisobiy bosim isrofi (/2\*) 0,1- 0,25 ga teng bo Isa 0,045 ga, 0,25-0,45 bo'lsa 0,06 ga va 0,45-0,7 bo'lsa 0,09 ga bo'linadi. Aniqlangan qiymatlar yaxlitlanib, dros- sellanadigan zonalar soni aniqlanadi va taqsimlash qurvining uzunligi unga bo'linadi. Agar drossellananadigan zonalar soni 3 tadan ortiq bo'lsa, taqsimlash nuqtasi yaqinidagi birinchi zonaning uzunligi 20% ga kamaytiriladi, oxirgi zonaning uzunligi esa 20% ga uzaytiriladi. Drossellananadigan zonalar ( $Z_{dr}$ ) tizim sxemasida qayd etiladi. Taqsimlash tugunidan hisoblanganda eng oxirgi dros- sellanuvchi zonada ( $Z_{dr}$ ) tomizgichli shlanglar taqsimlash quvuriga ulanadigan nuqtalarda diametri 6,5 mm. li kiruvchi shtutser- drossellar yoki xomutlardagi rezbali drossellar o'rnatiladi. Eng so'nggi drossellanuvchi zonadan oldingisida esa diametri 6,0 mm. li, ya'ni oxiridan 0,5 mm. ga kichik drossellar o'rnatiladi. Boshqa zonalar uchun ham hisob-kitob ishlari shu tahlita bajariladi. Drossellaming aniqlangan diametrlari ham tizim sxemasida qayd etiladi va ularni o'rnatish jadvali tuziladi.

Tomchilatib sug'orish tizimini bunday uslubda loyihalashda hisob-kitoblarning aniqligi deyarli 95% ni tashkil qiladi.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Tomchilatib sug'orish texnikasini tasniflang.
2. Tizimni tuzilishini bayon eting.
3. Qanday tomchilatgichlardan foydalanimoqda?
4. Isroi texnologiyasi bo'yicha tomchilatib sug'orishni texnik-iqtisodiy jihatdan baholang.
5. Tomchilatib sug'orishning ahamiyati va kamchiliklarini ko'rsating.
6. Tomchilatib sug'orish tizimini qurish, ishga tushirish va undan foydalanish.
7. Tomchilatib sug'orish tizimini loyihalash.
8. Tomchilatib sug'orish me'yori qanday hisoblanadi


## **9. EKINLARNI TUPROQ ORASIDAN SUG'ORISH TIZIMI**

Tuproq orasidan sug'orishda suv 40-60 sm chuqurlikda joylash- tirilgan namiqtiruvchi quvurlar tizimi orqali o'simlik ildizi tarqalgan tuproq qatlamiga bevosita uzatiladi. Tuproq orasidan sug'orish istiqbolli usul hisoblanib, yaxshi kapillyarlik xususiyatiga ega bo'lgan va tuproq osti qatlami kam suv o'tkazuvchan tuproqlarda yuqori samara beradi. Bunday tizim sho'rangan tuproqlarda, qiyaligi katta joylarda samarasiz hisoblanadi, tizimni cho'1 va yarim cho'1, sahro va yarim sahro mintaqalarida, ya'ni suv taqchilligi kuchli sezilayotgan rayonlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tuproq orasidan sug'orish yer yuzasidan sug'orish usuliga qaraganda quyidagi afzalliklarga ega: yerdan foydalanish koeffitsientining yuqoriligi, suvning bug'lanishga isrof bol'shini keskin pasayishi (0,98-0,99), sug'orish me'yorining 15-40 foizga kamayishi, hosil- dorlikning 20-40 foizga ortishi, ochiq sug'orish tarmoqlari qurishga hojat yo'qligi, begona o't urug'larini tarqalmasligi, mineral o'g'it- lami suv bilan aralashtirib, bevosita o'simlik ildizi tarqalgan qatlamga berish mumkinchiligi, suvchining ish unumtdorligini ortishi, sug'orishni avtomatlashtirishga sharoit yaratilishi, tuproqning ustki qatlamini zichlashmasligi, qator oralariga ishlov berishning kamayishi, tuproq aeratsiyasining kuchayishi va boshqalardir (41 - rasm).

Tuproq orasidan sug'orish tizimini barpo etishda asosiy xarakat- laming nisbatan ko'pligi, tuproqning eng ustki 10 sm. li qatlamini yetarlicha namiqmasligi, mikroiqlimni boshqarish mumkinchi- ligining yo'qligi, namiqtiruvchi quvurlarni loyqa bosishi, quvur ichiga suv chiqargich teshikchaldandan o'simlik ildizining o'sib kirishi va quvumi suv o'tkazmaydigan holda berkilib qolishi va boshqalar uning asosiy kamchiliklari bo'lib hisoblanadi.

Namiqtiruvchi quvurlardan suvni tuproqqa o'tijhiga ko'ra *bosimli*, *bosimsiz* va *vakuumli tizimlar* farqlanadi. Birinchi holatda namiqtiruvchi quvurlarga suv ulardan yuqori 0,6-2 m va bosimsiz tizimlarda esa 0,1-0,5 m baland joylashgan taqsimlash tarmoqlaridan uzatiladi. Vakuumli tizimda suv tuproqning so'rish kuchi ta'sirida tuproqqa o'tadi. Tuproqning kapillyar o'tkazuvchanligi qanchalik katta bo'lsa, so'rish kuchi shunchalik yuqori bo'ladi, shuningdek, bu


ko'rsatkich tuproq namligiga ham bog'liq: quruq tuproqlarda so'rish kuchi katta miqdorlami tashkil etadi.



41- rasm. Tuproq orasidan sug'orishda tuproning namiqish konturi.

Yopiq turdag'i sug'orish tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: suv o'shish inshooti, sug'orish tarmog'i, aloqa liniyalari, avto- matlashtirish tizimi, dala yo'llari, ihota daraxtzorlari va boshqalar. Suv uzatish va taqsimlash quvurlari asbestsementdan tayyorlanib, tuproq sathidan 0,5-0,6 m chuqurlikka o'matiladi, polietilen yoki polivinilxloriddan tayyorlangan namiqtiruvchi quvurlar tuproqning mexanik tarkibi va suv o'tkazuvchanligiga bog'liq holda 45-50 sm chuqurlikda bir biridan 1,25-2 m. gacha masofada (yengil tuproqlarda 1 m, o'rtacha - 1,5 m va og'ir tuproqlarda -2 m) yotqiziladi (42 va 43- rasmlar). Suv o'tkazuvchanligi kuchli bo'lgan qumoq tuproqlarda namiqtiruvchi quvurlar ostiga polietilen pylonkalar to'shash yo'li bilan ular orasidagi masofa 2 m. gacha yetkazilishi mumkin.

Namiqtiruvchi quvurlaming diametri 20-50 mm bo'lib, ulami har 20 sm. da 1-2 mm diametrli suv chiqarish teshikchalar spiral holida joylashtirilgan. Quvurlaming uzunligi 150-250 m atrofida qabul qilingan (35-jadval). quvurlaming oxiri kollektor-quvur bilan o'zaro tutashtirilgan, uning quyi qismida o'matilgan qulfakni ochish orqali tizim yuvib tozalanib turiladi.



42- rasm. Tuproq orasidan sug'orishda quvurlarni ulash sxemalari: 1 - namiqtiruvchi quvur; 2 - to'kma qum; 3 - sug'orish quvuri; 4 - to'kma tuproq.

<b>ЛГжН</b> , * 6-"	<i>h 5</i> ёф rnilViriimiririTITir } 11 i i И! м 1H i и м   { тMimiiiiMnmiHiHi
	f 1 i f 1 11 <sup>1</sup> Ml t ИПTTЧTT 1 fi
	пЩЛ1нПА    1иУпТ» 1 i 1 iiб 1 (J i 11И111 it 1 1 1 1
1 1 1 1 * 1 м i 1 ПП1 i 1 1 Г i T T j i гг   i l l l l i l l l K l l l H l l l l n i l	<i>69</i>

43-rasm. Tuproq orasidan sug'orish tizimining sxemasi: 1 - suv manbai; 2 - nasos stansiyasi; 3 - suvni tozalash inshootlari; 4 - taqsimlash quvurlari; 5 - sug'orish quvuri; 6 - namiqtiruvchi quvurlar; 7 - suv taqsimlash quduqlari; 8 - suv tashlagich kollektori; 9 - quduq.

*35-jadval*

**Joyning nishobligiga bog'liq holda namiqtiruvchi quvurlar uzunligi**

Tuproqning nishobligi	Quvuming uzunligi, m	Quvuming bosh va oxirgi qismlari balandligining farqi, sm	Quvuming bosh qismidagi suv sarfi, 1/sek..
0,001	200-250	20-25	0,20-0,25
0,002	200-250	40-50	0,20-0,25
0,004	200-250	80-100	0,20
0,006	120-160	72-96	0,10-0,15
0,008	80-160	64-96	0,06-0,10
0,010	60-90	60-90	0,05-0,07

Namiqtiruvchi quvurlami loyqa bosmasligi uchun ulardag'i suvning oqish tezligi 0,7-0,8 m/sek. dan kam bo'lmasligi lozim. Bosimli tizimlarda namiqtiruvchi quvurlar teskari nishoblikda o'matilgan sharoitda sug'orish quvuri kollektor vazifasini ham o'taydi.

Tuproq orasidan sug'orish tizimi sho'rланмаган, kapillyar suv ko'tarish tezligi 0,5 mm/min. dan va namiqtiruvchi quvurlar yo'na- lishida nishobligi 0,01 dan kam bo'lmanan yerlarda barpo etiladi. Tizimga loyqa, qum va boshqa qo'shilmalami tushirmaslik maqsadida sug'orishga beriladigan suv beton to'shamali yoki tuproq o'zanli tindirgichlarda yoki maxsus filtrlash qurilmalarida tozalanadi. Suvdagi qattiq zarrachalar diametri 1 mm. dan, uning loyqaligi 0,04 g/l. dan va mineralashganligi 1 g/l. dan ortiq bo'lmasligi talab qilinadi.

Polietylendan tayyorlangan namiqtiruvchi quvurlar tuproq orasi- ga xandaq kovlash yoki xandaqsiz quvur yotqizgich mashinalari (НБУ-ПТ, РБУ-ПТЭ, yoki ДПБН-1,8) yordamida yotqiziladi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Tuproq orasidan sug'orish tizimining afzallik va kamchiliklari nimalardan iborat?
2. Tizimni texnik jihatdan tavsiflang.
3. Tizimni qo'llash sharotlarini bayon eting.
4. Tizim uchun suvni tozalash tartibini ko'rsating.
5. Tuproq orasidan sug'orish tizimining qanday turlarini bilasiz?

## 10. SUG'ORISH TEKNIKASI VA USULLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Sug'orishga tatbiq qilinayotgan texnika va texnologiyalar samaradorligi yetishtirilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirishi, hosildorlikning ortishi, sof daromadning ko'payishi, sug'oriladigan dehqonchilik rentabellining ko'tarilishi kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Bu yerda sarflangan kapital (asosiy) va joriy xarajatlami oqlash muddati ham muhim o'rinn tutadi.

Kapital xarajatlaming rentabellik koeffitsienti ( $E_k$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$E_k = ASD/K,$$

bu yerda **ASD** - sug'orish texnikasini joriy etganda mahsulot miqdori yoki sof foydaning o'sishi, ming so'm/ga;

**K** - sug'orish texnikasiga qilingan kapital xarajat, ming so'm/ga.


Xalq xo'jaligi samaradorlik koeffitsienti sifatida quyidagilar tavsiya etilgan: paxtachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar uchun 0,12, sholichilik - 0,16, g'allachilik-chorvachilik - 0,10, bog'dorchilik- uzumchilik - 0,14 va sabzavotchilik - 0,11.

Yuqori rentabellikka ega ekinlar yetishtirishda kapital xarajatlar juda qisqa muddatlarda (5-6 yil) o'z-o'zini oqlaydi, g'allachilikka qilingan xarajatlar esa nisbatan uzoq muddat talab etadi.

1 ga maydonga yoki  $1 \text{ m}^3$  suvgaga qilingan xarajatlar xo'jaliklararo va xo'jalik tizimlarda qilingan xarajatlar negizida kelib chiqadi. Xo'jaliklararo tizimda suv manbasidan suvni xo'jalikkacha tashib keltirishda qilinadigan xarajatlar hisobga olinsa, xo'jaliklarda sug'orish tarmoqlari va inshootlami ish holatida tutib turish, sug'orish va yomg'irlatib sug'orish mashinalaridan foydalanish, muvaqqat tar- moqlar olish va ulami tekislash, suvchilarga xaq to'lash, tashkiliy tadbirlarga bo'lgan xarajatlami o'z ichiga oladi.

Xo'jalikda suvdan foydalanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri - bu **suvdan foydalanish koeffitsienti** (SFK) dir. U quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$SFK = R_{R-r|a}/R_{b-r|R},$$



bu yerda  $R_R$  - sug'orish rejasingin bajarilishi, %;  
 $R_b$  - xo'jalikka suv berishning bajarilishi, %;  
Ля ва Йа - xo'jalik sug'orish tarmog'ining rejadagi va amaldagi foydali ish koeffitsientlari.

SFK ning 0,90-1,0 ga teng bo'lishi suvdan eng yuqori samarada foydalanganligini ko'rsatadi.

